t.me/rtm_metodik_xizmat

Akbar Zamonov, Oybek Abdimo'minov, Islombek Bobojonov

O'ZBEKISTON TARIXI

11



Yangi nashr

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Toshkent – 2025

t.me/rtm_metodik_xizmat

UO‘K: 94(575.1)(075.3)
BBK 63.3(5O‘)ya72
Z 31

Zamonov A.T. O‘zbekiston tarixi 11 [Matn]: darslik / A.T. Zamonov, O.B. Abdimo‘minov, I.U. Bobojonov; muharrir X.M. Abulfaizov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2025. – 128 b.

Mas’ul muharrirlar:

Nodira Mustafoyeva – tarix fanlari doktori, professor;

Nargiza Ismatova – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Taqrizchilar:

Q. Matxoliqov – O‘zMU tarix fakulteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi;

A. Norboyev – Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti v.v.b., tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);

M. Boboyeva – Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi dotsenti v.v.b., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);

Z. Bozorov – RTM ijtimoiy fanlar bo‘limi metodisti;

B. Mahmudboyev – Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti;

G‘. Pardayev – Samarqand viloyati Toyloq tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabning tarix fani o‘qituvchisi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi xulosasi asosida takomillashtirildi.

Original maket va dizayn konsepsiyasi
Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

ISBN 978-9910-637-87-2

© Respublika ta’lim markazi, 2025

t.me/rtm_metodik_xizmat

MUNDARIJA

KIRISH 5

1-BOB. MILLIY DAVLATCHILIKNING TIKLANISHI

1 MAVZU
Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi 7

2 MAVZU
O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimi 13

3 MAVZU
Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi 18

4 MAVZU
O‘zbekistonda tub islohotlar:
Harakatlar strategiyasidan Taraqqiyot strategiyasi sari 26

5 MAVZU
Qurolli kuchlar va milliy armiya 30

2-BOB. IQTISODIY ISLOHOTLAR VA IJTIMOIY SIYOSAT

6 MAVZU
Milliy iqtisodiyotning barpo etilishi 36

7 MAVZU
Mamlakatda ishlab chiqarish salohiyatining oshishi va
jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv 45

8 MAVZU
Ijtimoiy siyosat va uni amalga oshirish bosqichlari 54

9 MAVZU
Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik 61

3-BOB. TA’LIM VA ILM-FAN

10 MAVZU
Ta’lim tizimidagi islohotlar 66

11 MAVZU
Ilm-fanda erishilgan yutuqlar 71

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

12 MAVZU
Jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi 74

13 MAVZU
O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati 82

4-BOB. MA’NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT

14 MAVZU
Ma’naviy va tarixiy merosga munosabat.
Buyuk ajdodlar xotirasining tiklanishi 86

15 MAVZU
Milliy va diniy qadriyatlarning qayta tiklanishi 92

16 MAVZU
Madaniyat va san’at taraqqiyoti 96

5-BOB. XALQARO MUNOSABATLAR VA TASHQI SIYOSAT

17 MAVZU
O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining shakllanishi
va ustuvor yo‘nalishlari 102

18 MAVZU
Markaziy Osiyo – O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi 105

19 MAVZU
O‘zbekiston va dunyoning yetakchi mamlakatlari hamkorligi 110

20 MAVZU
O‘zbekiston va Sharqning rivojlangan davlatlari aloqalari 114

6-BOB. XALQARO VA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR
BILAN HAMKORLIK

21 MAVZU
O‘zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti:
o‘zaro hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari 119

22 MAVZU
O‘zbekistonning mintaqaviy tashkilotlar doirasida
ko‘ptomonlama munosabatlari 123

Respublika a’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

KIRISH

XX asr oxiri O‘zbekiston tarixida buyuk burilish davri bo‘ldi. 1991-yil 31-avgust kuni mamlakatimiz mustaqillikka erishib, o‘z taraqqiyot yo‘lini belgilab oldi. Bu tarixiy sana xalqimiz hayotiga ulkan quvonch va cheksiz g‘urur olib keldi. Chunki mustaqillik ozodlik, erkinlik va o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqidir.

O‘zbek xalqi ko‘p mingyillik tarixida ulkan yutuqlar bilan bir qatorda sinovlarni ham boshdan kechirdi. Ammo mustaqillik xalqimizning eng katta g‘alabasi sifatida milliy tiklanish va taraqqiyotning yangi davrini boshlab berdi. Shu kundan yurtimizda milliy davlatchilikni mustahkamlash, bozor iqtisodiyotiga o‘tish, madaniyat va ma’naviyatni yuksaltirish, xalq farovonligini oshirish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar boshlandi.

Mustaqillik deganda, avvalo, davlatning suverenligi, ichki va tashqi siyosatini mustaqil belgilashi, o‘z qonunlarini qabul qilishi va fuqarolari huquqlarini himoya qilishi tushuniladi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarimizni asrash va rivojlantirish, xalqimiz kelajagini o‘zi belgilash imkoniyati ham mustaqillikning ajralmas qismidir.

Mustaqil O‘zbekistonda Konstitutsiya qabul qilinib, davlat institutlari shakllantirildi, huquqiy asoslar mustahkamlandi. Bugungi kunda esa yangi tahrirdagi Bosh qomus “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” ezgu g‘oyasini ro‘yobga chiqarishda muhim dastur bo‘lib xizmat qilmoqda. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot, madaniyat va tashqi siyosat sohalarida erishilgan yutuqlar xalqimizning hayoti sifatini oshirib, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘sini yanada mustahkamlamoqda.

O‘zbekistonning mustaqillikdan keyingi tarixini shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin:

1991–2016-yillar – milliy davlatchilik asoslarini yaratish va dastlabki islohotlar davri;

2017-yildan hozirgi kungacha – Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti davri.

Aziz o‘quvchilar! Tarixni o‘rganish o‘tmishni bilishgina emas, balki bugungi hayotimizni tahlil qilish va kelajakni ishonch bilan tasavvur qilishdir. Tarix milliy g‘ururimiz, Vatanni sevishga undovchi kuch, kelajakka mas’uliyat bilan qarashga chorlovchi saboqdir.

Ushbu darslik sizni nafaqat faktlar va voqealar bilan tanishtiradi, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish, bahs yuritish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishingizga yordam beradi. Natijada siz mustaqillik yillarida xalqimiz erishgan yutuqlarni chuqur anglab, kelajakda Vatanimiz ravnaqi uchun hissa qo‘shadigan shaxs sifatida shakllanishingizga ishonamiz.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

Biz shu vaqtgacha tarixning o‘zimizga yoqqan tomonlarini ko‘proq yoritib, yoqmagan jihatlarini esa ko‘pincha chetlab o‘tdik. Endi esa, kimlargadir yoqadimi-yoqmaydimi, u g‘ururimiz bo‘lsinmi yoki armonimiz, muvaffaqiyatmi yoki xiyonat – barchasini haqqoniy yozishimiz zarur. Chunki tarixni to‘liq va xolis o‘rganmasdan turib, kelajakni to‘g‘ri qurib bo‘lmaydi.

Shavkat Mirziyoyev

t.me/rtm_metodik_xizmat



1991

1-BOB

MILLIY DAVLATCHILIKNING TIKLANISHI

- **1990**-yil **24**-mart – O‘zbekistonda prezidentlik instituti joriy etildi.
- **1991**-yil **31**-avgust – O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e’lon qilindi.
- **1991**-yil **18**-noyabr – O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i qabul qilindi.
- **1992**-yil **2**-iyul – O‘zbekiston Respublikasining davlat gerbi qabul qilindi.
- **1992**-yil **8**-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.
- **1992**-yil **10**-dekabr – O‘zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi qabul qilindi.
- **2023**-yil **1**-may – O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi qabul qilindi.



t.me/rtm_metodik_xizmat

1-MAVZU MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI

BILIB OLASIZ

Mustaqillik asoslarining yaratilishi.
O‘zbekiston mustaqilligining e’lon qilinishi.
O‘zbekistonda prezidentlik institutining shakllanishi va siyosiy islohotlar taraqqiyoti.

Mustaqillik asoslarining yaratilishi

Mustamlakachilik va kommunistik mafkura asosida qurilgan tuzumni boshdan kechirgan o‘zbek xalqi mustaqil rivojlanish davrini boshlar ekan, o‘z oldiga demokratiya va inson haq-huquqlari hamda erkinliklarini ta’minlash singari oliy maqsadlarni qo‘ygan.

XX asrning 80-yillari oxiriga kelib O‘zbekiston SSRda mustaqillik yo‘lidagi amaliy harakatlar kuchaya boshladi. Natijada 1990-yil 20-iyunda O‘zbekiston SSRning Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilindi.

IJODIY FAOLIYAT

Quyi sinflarda O‘zbekiston tarixi va huquq fanlaridan olgan bilimlaringiz asosida javob bering.

1. XX asrning 80-yillari oxirida O‘zbekistonda qanday siyosiy vaziyat yuzaga kelgan edi?
2. Mustaqillikning huquqiy asoslari deganda nimani tushunasiz?
3. Mustaqillik deklaratsiyasi qachon qabul qilingan edi? Unda nimalar aks etgan?



Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

YODDA TUTING!

Mustaqillik deklaratsiyasi kirish qismiga quyidagicha yozib qo‘yildi: “Oliy Sovet O‘zbekistonning kelajagi uchun tarixiy mas’uliyatni chuqur his etgan holda xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib, O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e’lon qiladi”.



Islom Karimov davlat mustaqilligini e’lon qilmoqda



Davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan bu deklaratsiyani qabul qilishda xalqimizning ilg‘or ziyoli qatlami hamda respublika Oliy Soveti deputatlari faollik ko‘rsatdilar. Mustaqillik deklaratsiyasida o‘zbek xalqining asrlar davomida qo‘lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an’analari hisobga olinishi ko‘zda tutildi.

Mustaqillik deklaratsiyasidan O‘zbekistondagi ziyoli va faol qatlamning umidi katta edi. Natijada bu deklaratsiya O‘zbekiston mustaqilligi uchun tashlangan ulkan qadam bo‘ldi.

O‘zbekiston mustaqilligining e’lon qilinishi

XX asrning 90-yillariga kelib sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilish va ozodlikka intilishning yangi bosqichi boshlandi. 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Oliy Kengashining navbatdan tashqari XII chaqiriq VI sessiyasi o‘z ishini boshladi.

Unda O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi masala kun tartibiga qo‘yilib, qizg‘in muhokama qilindi.

Sessiyada O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e’lon qildi va uni mustaqillik to‘g‘risidagi qonun bilan mustahkamlashni taklif etdi. Oliy Kengash deputatlarining moddama-modda muhokamasidan so‘ng “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

“O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, O‘zbekistonning huquqiy holati tubdan o‘zgardi. 17 moddadan iborat ushbu qonun O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti asoslarini belgilab berdi. O‘z mohiyatiga ko‘ra bu hujjat respublika uchun vaqtincha konstitutsiya rolini ham bajaradigan bo‘ldi.

“O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida qo‘ygan ilk qadamlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asosini tashkil etdi. O‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra uni “Muvaqqat kichik konstitutsiya” deb ta’riflash mumkin.

t.me/rtm_metodik_xizmat

O‘zbekiston Respublikasining ilk konstitutsiyasini tayyorlash va qabul qilish vazifasi kun tartibiga chiqdi. Mazkur tarixiy ish bo‘yicha O‘zbekiston rahbari Islom Abdug‘aniyevich Karimov boshchiligida 64 a’zodan iborat komissiya 1990-yil 20-iyundayoq tuzilgan edi. Ular konstitutsiyaning birinchi, ikkinchi va uchinchi loyihalarini ishlab chiqqan. Bu borada dunyodagi eng rivojlangan, demokratik jamiyat tamoyillariga asoslangan davlatlar tajribasi o‘rganilgan.

Konstitutsiya loyihasi 1992-yil 26-sentyabrda va 21-noyabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e’lon qilindi. Komissiya bildirilgan fikr-mulohazalar va takliflarni ko‘rib chiqib, loyihaga o‘zgartirish va tuzatishlar kiritdi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilindi.

O‘zbekistonning davlat bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga doir takliflar hamda ular to‘g‘risidagi nizomlarni tayyorlash ham kun tartibidagi asosiy masalaga aylandi va bu boradagi ishlar boshlab yuborildi. 1991-yil 18-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi, 1992-yil 2-iyulda “O‘zbekiston Respublikasining davlat gerbi to‘g‘risida“gi, 1992-yil 10-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi.

Shu kuni Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burhonov tomonidan tayyorlangan madhiya varianti tasdiqlandi.

MULOHAZA UCHUN

Zamonaviy ko‘rinishdagi davlat madhiyasi ilk bor yurtimizda Turkiston Muxtoriyati davrida yaratilgan. Garchi Turkistonda turli xalqlar va millatlar yashasa-da, madhiya matni aynan o‘zbek tilida, ulug‘ shoirimiz Abdulhamid Cho‘lpon tomonidan yozilgan va 1917-yilda qabul qilingan. Unda quyidagi misralar bor edi:

Ko‘z oching, boqing har yon,
Qardoshlar, qanday zamon!
Shodlikka to‘ldi jahon,
Fido bu kunlarga jon!

Sovet Ittifoqi davrida O‘zbekiston SSR madhiyasi 1947-yilda qabul qilingan. Uning matnini Turob To‘la va Temur Fattoh yozgan. Mutal Burhonov esa musiqa bastalagan edi.

YODDA TUTING!

Oliy Kengashning “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e’lon qilish to‘g‘risida”gi qarorida “Respublikaning davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Oliy Kengash bayonoti tasdiqlansin va respublika bundan buyon O‘zbekiston Respublikasi deb atalsin; 1-sentyabr O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991-yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e’lon qilinsin”, deb qat’iy belgilab qo‘yildi.

YODDA TUTING!

Davlat madhiyasi. *O‘zbekistonning yangi madhiyasini ishlab chiqishga 1990-yil martidan kirishilgan. Shu yili davlat madhiyasi matni va musiqasi bo‘yicha tanlov e’lon qilingan. Nizomga ko‘ra, tanlovda ishtirok etuvchi ijodkorlar yashirin imzo – taxallus bilan qatnashishi shart qilib qo‘yilgan edi. Tanlovning birinchi bosqichi natijasida 70 dan ortiq madhiya tanlab olingan. Tanlovning yakuniy bosqichida qatnashish uchun saralangan uchta madhiya mualliflari Abdulla Oripov va Mutal Burhonov, Mirpo‘lat Mirzo va Rustam Abdullayev, Abdulla Oripov va Baxtiyor Aliyev bo‘lgan.*

Tanlov so‘ngida saralangan uch variant yopiq ovoz berish uchun qo‘yilgan. Deputatlar yashirin ovoz bergach, Abdulla Oripov va Mutal Burhonov hamkorligidagi madhiya g‘olib deb topilgan.

t.me/rtm_metodik_xizmat



Abdulla Oripov



Mutal Burhonov

IJODIY FAOLIYAT

1. O‘zbekiston mustaqilligi yo‘lida ilk tarixiy qadamlar qaysi davrda tashlangan va bu jarayon qanday muhim voqealar bilan bog‘liq?

2. 10-sinf O‘zbekiston tarixi fanidan olgan bilimlaringiz asosida javob berishga harakat qiling:

– 1991-yil avgustida Sovet Ittifoqi hududida qanday muammoli vaziyatlar yuzaga keldi?

– Bu jarayonlarga o‘sha davrdagi O‘zbekiston SSR hukumati qanday munosabat bildirdi? Qanday yo‘l tutdi?

3. O‘zbekiston Respublikasi davlat ramzlaridagi elementlar mohiyatini ochib bering.

Mamlakatimiz madhiyasidagi ushbu satrlarni ko‘p ming yillik tariximiz, davlatimiz bayrog‘i va gerbidagi elementlar bilan bog‘lab tushuntiring:

“... Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!”

O‘zbekistonda prezidentlik institutining shakllanishi va siyosiy islohotlar taraqqiyoti

Prezidentlik instituti prezident davlat boshlig‘i sifatida asosiy siyosiy qarorlar qabul qiladigan boshqaruv shakli hisoblanadi. 1990-yil 24-mart kuni O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining navbatdan tashqari sessiyasida Prezident lavozimi ta’sis etildi. Bu qaror sovet davrining oxiri va markazlashtirilgan ijro hokimiyatiga o‘tish jarayoniga to‘g‘ri keldi. Ittifoqdosh respublikalar orasida birinchi bo‘lib O‘zbekston SSRda prezidentlik boshqaruvi joriy qilingan edi. Prezidentlik institutining paydo bo‘lishi mamlakat tarixidagi muhim voqea bo‘lib, u mustaqillikka erishish va davlatchilik asoslarini shakllantirish, milliy manfaatlarni himoya qilish va davlat boshqaruvini markazlashtirishga xizmat qildi. 1990-yil 24-martda O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining sessiyasida Islom Karimov O‘zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi.



O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i va gerbi

Keyingi yillarda mustaqillik e’lon qilingach, 1992-yildagi Konstitutsiya prezidentlik institutini yangi respublika qonunchiligi tarkibiga qo‘shib, uning vakolatlari va maqomini bel-

t.me/rtm_metodik_xizmat

gilab berdi. Bu voqea O‘zbekiston siyosiy tarixida muhim burilish sanasi sifatida yodda qoladi. 1991-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi muqobillik asosida o‘tkazilib, saylovchilarning 86 foiz ovozi bilan Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. 1995-yil 26-martda o‘tkazilgan referendum asosida Prezident vakolatlari 2000-yilgacha uzaytirildi. 2000-, 2007- va 2015-yillarda o‘tkazilgan saylovlarda I. Karimov Prezidentlikka qayta saylandi. 2016-yil 2-sentyabr O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov miya qon aylanishining o‘tkir buzilishi (insult) oqibatida vafot etdi. Vasiyatiga binoan Samarqand shahridagi Hazrati Xizr qabristoniga dafn etildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vazifa va vakolatlarini vaqtincha bajarish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Shavkat Miromonovich Mirziyoyev zimmasiga yuklandi.



Shavkat Mirziyoyev
2016-yil 8-sentyabr kuni Oliy Majlisda nutq so‘zlamoqda

Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 8-sentyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi nutqida O‘zbekistonning zamonaviy tarixi mamlakatimizning chinakam mustaqillikka erishishida juda og‘ir va mashaqqatli kurash davri bo‘lganini ta’kidladi.

Shavkat Mirziyoyev siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda demokratik islohotlarni va o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablarini bajarish, mamlakat suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish borasidagi ishlarni rivojlantirishni alohida ta’kidladi.

Mazkur sana o‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixida Yangi O‘zbekiston davri boshlangani bilan e’tiborlidir.

2016-yil 4-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga navbatdan tashqari saylovlar bo‘lib o‘tdi. Saylov natijalariga ko‘ra, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzod Shavkat Mirziyoyevga saylovchilarning 88,61 foizi ovoz berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi jarayonida 46 davlatdan 600 ga yaqin kuzatuvchi hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Butunjahon saylov organlari uyushmasi va Islom hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

Vatanimiz mustaqilligini har tomonlama mustahkamlash, mamlakatimizning barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini, xalqimiz farovonligini ta’minlashga qaratilgan ishlarimizda buyuk yurtboshimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimovning “Ona Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish – oliy saodatdir” degan so‘zlari doimo bizga kuch-quvvat va g‘ayrat bag‘ishlaydi, deb ishonaman.

Shavkat Mirziyoyev

t.me/rtm_metodik_xizmat

Ushbu saylov jarayonida birinchi marta YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosining 32 mamlakatdan 200 ga yaqin kuzatuvchidan iborat hay'ati to'laqonli ishtirok etdi. Xalqaro kuzatuvchilar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayoniga yuqori baho berdi.

IJODIY FAOLIYAT

Tushunchalarni sharhlang

Quyidagi tushunchalarga qisqacha (2–3 jumla bilan) ta'rif yozing:

– davlat mustaqilligi;
– suverenitet;
– Oliy Kengash;
– "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonun.

Vaqt jadvalini tuzing (har bir o'quvchi o'z daftarida xronologik ketma-ketlikda tarixiy voqealar jadvalini tuzadi)

1990-yil 20-iyun

...

Insho yozing (yozma ish)

Mavzu: "O'zbekiston mustaqilligi – xalqimiz orzusi ro'yobi"

Hajmi: 150–200 so'z

Mazmuni: mustaqillik e'lon qilinishi, uning xalq hayotiga ta'siri, bugungi kun yoshlari zimmasidagi mas'uliyat haqida fikr bildiring.

1991-yil avgustida sodir bo'lgan va O'zbekiston mustaqilligiga olib kelgan 3 ta muhim voqeani izohlang. Nima uchun bu voqealarni muhim deb hisoblaysiz? Javoblaringizni asoslang.

Tadqiqot ishi

Quyidagi savol ustida guruhda fikr almashing va xulosa chiqaring.

Nega O'zbekiston mustaqilligi 1991-yilning 31-avgustiga to'g'ri keldi? Nima sababdan 31-avgust sanasi emas, balki 1-sentyabr bayram kuni deb e'lon qilindi?

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi qanday siyosiy vaziyatda yuz berdi?
2. "Ona Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish – oliy saodatdir" degan fikrni qanday tushundingiz? Siz saodatga erishish uchun xalqimizga qanday xizmat qilishni rejalashtirgansiz? Bu yo'lda sizga nimalar kerak bo'ladi?
3. 2010-yilda O'zbekiston gerbiga kichik o'zgarish kiritilib, bayroq o'rtasidagi "O'zbekiston" yozuvi kirill alifbosidan lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'girildi. Sizningcha, bu nima bilan bog'liq edi?

Respublika ta'lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

2-MAVZU O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMI

BILIB OLASIZ

Davlat boshqaruvidagi islohotlar.
Sud-huquq tizimidagi islohotlar.

Davlat boshqaruvidagi islohotlar

Bugungi kunda dunyoning ko‘plab yetakchi davlatlarida turli xil boshqaruv shakllari mavjud. Masalan, AQSH va Braziliyada prezidentlik respublikasi mavjud bo‘lib, bu yerda prezident asosiy rahbar hisoblanadi. Germaniya va Italiyada parlament respublikasi shakli amal qiladi, ya’ni siyosiy qarorlarni parlament va bosh vazir qabul qiladi. Fransiya hamda Rossiyada esa aralash boshqaruv shakli mavjud bo‘lib, prezident va parlament birgalikda muhim rol o‘ynaydi.

Davlat boshqaruvi shakli asosan amalda davlat hokimiyati siyosatini belgilashda qaysi organning mavqeyi yuqoriligi bilan aniqlanadi.

O‘zbekiston mustaqillikning ilk bosqichida prezidentlik boshqaruv shaklini tanladi. Prezident davlat rahbari bo‘lish bilan birga, Vazirlar Mahkamasi, ya’ni hukumatning ham rahbari edi. Bu orqali ijro hokimiyati samarali ishlashi ta’minlandi. Prezident fuqarolarning huquq va erkinliklariga, Konstitutsiyaga va qonunlarga rioya etilishini kafolatlovchi shaxs sifatida belgilandi.

Mustaqillikdan oldin O‘zbekiston SSRda ijro hokimiyati Ministrlar Soveti orqali amalga oshirilgan. 1990-yildan bu organ Vazirlar Mahkamasi deb nomlana boshladi. Prezident ayni vaqtda uning raisi bo‘ldi. Shu davrda vitse-prezident lavozimi joriy etildi. U hukumat ishlariga rahbarlik qilishi belgilandi. Bu lavozimga Shukrullo Mirsaidov tayinlandi. Vitse-prezident Prezident tomonidan tayinlanar, Oliy Sovet tomonidan tasdiqlanar edi.

1992-yilda vitse-prezidentlik lavozimi tugatilib, uning o‘rniga Bosh vazir lavozimi joriy etildi. Ushbu o‘zgarishlar davlat hokimiyati boshqaruv tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qildi.

YODDA TUTING!

Bugun *BMTga a’zo 193 davlatdan 143 tasida Prezident lavozimi ta’sis etilgan.*

Yaqin tarixda:

O‘zbekistondagi qator konstitutsiyaviy o‘zgarishlar Sovet Ittifoqidagi o‘zgarishlardan oldin amalga oshirildi. Shuningdek, Ministrlar Soveti o‘rniga Vazirlar Mahkamasi birinchi bo‘lib O‘zbekistonda ta’sis etildi.

t.me/rtm_metodik_xizmat

1990-1992-yillarda	1992-1995-yillarda	1995-2003-yillarda	2003-2016-yillarda	2016-yildan
• Shukrullo Mirsaidov • **Vitse-prezident**	• Abdulhoshim Mutalov • **Bosh vazir**	• O‘tkir Sultonov • **Bosh vazir**	• Shavkat Mirziyoyev • **Bosh vazir**	• Abdulla Aripov • **Bosh vazir**



O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi binosi

2002-yilda o‘tkazilgan referendumdan so‘ng ikki palatali parlament tuzildi. Bu jarayon xalq tomonidan qo‘llab-quvvatlandi va yangi qonunlar ishlab chiqishni talab qildi. 2003-yilda Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risidagi qonun yangilandi. Unda Prezidentning hukumat raisi sifatidagi vakolati bekor qilindi. Bu norma 2007-yilda Konstitutsiyadan ham chiqarildi.

2011-yilda Konstitutsiyaga o‘zgartishlar kiritildi. Endi Bosh vazir lavozimiga nomzod parlamentda eng ko‘p o‘rin olgan partiya yoki bir nechta partiyalar tomonidan ko‘rsatiladi va parlament tomonidan tasdiqlanadi. Bu o‘zgarishlar parlament va siyosiy partiyalarning vakolatlarini kengaytirishga xizmat qildi.

O‘zbekiston tarixida ilk bor 2015-yilda Bosh vazir lavozimiga nomzod Prezident tomonidan emas, balki saylovda g‘alaba qozongan siyosiy harakat – O‘zLiDeP tomonidan ilgari surildi va Shavkat Mirziyoyev shu tariqa parlament tomonidan tasdiqlandi.

O‘zbekistonda uch hokimiyat – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati – har biri mustaqil faoliyat yuritadi, lekin ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Prezident bu uchala hokimiyat faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mustaqil organ hisoblanadi.

Qonun chiqaruvchi organ – O‘zbekiston parlamenti dastlab Oliy Kengash, keyinchalik Oliy Majlis maqomida faoliyat yuritgan. Mustaqillikdan so‘ng, 1994-yilgacha parlament bir palatali edi. 2002-yilgi konstitutsiyaviy referendumdan so‘ng par-

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

IJODIY FAOLIYAT

1. O‘zbekistonda ikki palatali parlamentga o‘tish va Bosh vazir nomzodini ko‘rsatish huquqining parlamentga berilishi davlat boshqaruvining qaysi jihatlarini kuchaytirdi?
2. Prezidentning hukumat raisi sifatidagi vakolatlari bekor qilinishi nima uchun muhim islohot hisoblanadi?
3. Saylov jarayonlaridagi “Yangi O‘zbekiston. Yangi saylovlar” shiori va Prezidentning parlamentga murojaatnomasi o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?

lament ikki palatali bo‘ldi. Quyi palata – Qonunchilik palatasi xalq tomonidan, yuqori palata – Senat – hududiy deputatlar tomonidan saylanadi. Senat davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda faol ishtirok etadi.

O‘zbekistonda saylov tizimi xalqaro tan olingan tamoyillarga asoslanib, bosqichma-bosqich takomillashdi. 2019-yil 22-dekabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga navbatdagi saylov “Yangi O‘zbekiston. Yangi saylovlar” shiori ostida o‘tkazildi.

2020-yil 24-yanvarda Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnoma yo‘lladi. Unda, jumladan, qonunchilikdagi muhim masalalar bo‘yicha takliflar, mamlakatni yaqin istiqbolda rivojlantirishga doir strategik yo‘nalishlar, siyosiy, iqtisodiy, g‘oyaviy-mafkuraviy qoidalar bilan bir qatorda, parlamentning qonun ijodkorligi faoliyatiga taalluqli aniq takliflar va shu kabi boshqa fikr va mulohazalar bayon etildi.

Sud-huquq tizimidagi islohotlar

O‘zbekistonda sud-huquq tizimining rivojlanishini ikki davrga ajratish mumkin:

1. 1991–2016-yillar – mustaqillikdan keyingi ilk bosqich.
2. 2016-yildan hozirgi kungacha – chuqur islohotlar davri.

O‘zbekistonda sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan va boshqa tashkilotlardan mustaqil ravishda ish yuritadi. Bu mustaqillik bosqichma-bosqich mustahkamlandi. Sudlar avval jazolovchi organ sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, keyinchalik fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladigan mustaqil institutga aylana bordi.

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat



Bu yo‘nalishda bir qator qonunlar va me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Sud hokimiyatining asosiy vazifasi adolatni ta’minlashdan iborat bo‘lib, uning faoliyati siyosiy bosim va tashqi aralashuvlardan qat’iy himoyalangan.

2016-yildan boshlab sud tizimining ochiqligi va shaffofligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. 2017-yilda muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi:

– Sud qarorlarini ko‘rib chiqish bosqichlari: ilgari olti bosqichli tartib bo‘lgan bo‘lsa, endi uch bosqichli tizim joriy etildi. Bu xalqaro standartlarga mos keladi.

– “Bir sud – bir instansiya” tamoyili: har bir ish faqat tegishli instansiyada ko‘rib chiqiladi, bu esa ortiqcha takroriy ko‘rib chiqishlarni kamaytiradi.

– Nazorat instansiyasi: xalqaro tashkilotlar tanqid qilgan nazorat bosqichi butunlay bekor qilindi.

Xususan, sudlar faoliyati takomillashtirilib, Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudi fuqarolik, jinoiy, ma’muriy va iqtisodiy sud ish yurituvi sohasida sud hokimiyatining yagona oliy organi – Oliy sudga birlashtirildi. Sudyalar oliy kengashi, ma’muriy sudlar, Oliy sud huzurida Sudlar faoliyatini ta’minlash departamenti tashkil etildi.

Sudlarga yangi vakolatlar berildi. Endi pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish, murdani eksgumatsiya qilish, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish yoki u yerda qolish muddatini uzaytirish uchun sanksiya berish huquqi prokurorlardan sudlarga o‘tkazildi. Shuningdek, sudlar zarur bo‘lsa, muqobil ehtiyot choralarini qo‘llash huquqiga ega bo‘ldi.

Jinoyat protsessida yarashuv instituti kengaytirildi. Endi bu institut sud jarayonining barcha bosqichlarida qo‘llanadi. Jinoyat ishlarida dastlabki eshituv, fuqarolik va iqtisodiy sudlarda sudgacha majlis, soddalashtirilgan tartibda ish yuritish va mediatsiya institutlari joriy etildi. Bu o‘zgarishlar sud ishlarini tez va adolatli hal etishga xizmat qiladi.

Shaxsga nisbatan qiynoqqa solish, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomala va jazo turlarini qo‘llashning oldini olish bo‘yicha samarali mexanizmlar joriy etildi. Bunday qilmishlar uchun javobgarlik kuchaytirildi.

Agar shaxs ushlangan yoki jinoyat ustida qo‘lga olingan bo‘lsa, unga nisbatan protsessual harakatlar boshlanishidan

YODDA TUTING!

Eksgumatsiya *(lotincha) – murdani ko‘zdan kechirish va ekspertiza o‘tkazish zaruriyati tug‘ilganda uni dafn etilgan joyidan qazib olish.*

Mediatsiya *– kelib chiqqan nizoni taraflar o‘zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko‘magida hal qilish usuli.*

t.me/rtm_metodik_xizmat

oldin advokat bilan xoli uchrashuvi ta'minlanishi shart deb belgilandi. Bu inson huquqlarini himoya qilishda muhim qadam hisoblanadi.

Sudlar faoliyatida "yagona darcha" tartibi joriy etildi. Endi ish fuqarolik, iqtisodiy yoki ma'muriy sudga taalluqli bo'lishidan qat'i nazar, ariza yagona tartibda qabul qilinadi. Bu tizim fuqarolarga qulaylik yaratadi va murojaatlarni tez ko'rib chiqishga yordam beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ilk bor 2017-yilda mahkumlarni afv etish to'g'risida farmon e'lon qildi. Bu esa insonparvarlik tamoyillariga asoslangan muhim huquqiy amaliyot sifatida baholanadi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. 2016-yildan keyingi sud islohotlari, masalan, uch bosqichli tizimga o'tish va nazorat instansiyasining bekor etilishidan nima maqsad qilingan?
2. Sudlarga yangi vakolatlar (masalan, ayblanuvchini lavozimidan chetlatish) berilishi qanday ma'no kasb etadi va bu inson huquqlari himoyasiga qanday ta'sir qiladi?
3. Yarashuv instituti va mediatsiya kabi yangi mexanizmlar sud jarayonlarini qanday yaxshilaydi?
4. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasiga asoslanib 4-ustundagi bo'sh joylarni (og'zaki) to'ldiring.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI



1990-1994-yillar	1995-2004-yillar	2005-2023-yillar	2024-yildan
• Oliy Kengash • 500 deputat • bir palatali	• Oliy Majlis • 250 deputat • bir palatali	• Oliy Majlis • 150 deputat, 100 senator • ikki palatali	• Oliy Majlis • ___ deputat, ___ senator • ___ palatali

t.me/rtm_metodik_xizmat

3-MAVZU FUQAROLIK JAMIYATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

BILIB OLASIZ

Fuqarolik jamiyati rivoji.
Ko‘ppartiyaviylik va raqobat.
Shaffof saylov tizimi.
O‘zbekistonda o‘tkazilgan referendumlar.

Fuqarolik jamiyati rivoji

O‘zbekistonning fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘li to‘rtta asosiy bosqichdan iborat bo‘lib, har bir bosqich o‘ziga xos mazmun va ahamiyatga ega. Birinchi bosqich 1991–2000-yillarni qamrab olib, o‘tish davri islohotlari va milliy davlatchilik poydevorini yaratish davri bo‘ldi. Mustaqillikning ilk yillarida fuqarolik jamiyatining tashkiliy-huquqiy asoslari shakllantirildi, ko‘ppartiyaviylik tizimi, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) keng tarmog‘i yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, mustaqil ommaviy axborot vositalarining faoliyati uchun zarur sharoitlarni belgilovchi qonunlar ham qabul qilindi. Bu davrda, aslida fuqarolik jamiyati hali yangi shakllanayotgan bo‘lsa-da, keyingi taraqqiyot uchun zarur huquqiy poydevor yaratildi.

Ikkinchi bosqich – 2001–2010-yillar – mamlakatni faol demokratik yangilash davri sifatida tarixda qoldi. Bu yillarda asosiy maqsad kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqich o‘tish edi. Ikki palatali parlament tizimi joriy qilindi, siyosiy partiyalarni moliyalashtirishning milliy tizimi shakllandi, parlament fraksiyalari va muxolifatning huquqiy maqomi aniq belgilandi. Natijada siyosiy maydon yanada jonlandi, parlament faoliyati esa ko‘proq demokratiya tamoyillariga moslashdi. Shu bilan birga, mahallaning ijtimoiy hayotdagi o‘rni kuchaydi, yordamga muhtoj oilalarni qo‘llab-quvvatlash va milliy qadriyatlarni mustahkamlash borasidagi vakolatlari kengaytirildi. Bu bosqichda davlat jamiyatga nisbatan ochiqroq bo‘la boshladi.

Uchinchi bosqich (2011–2016-yillar) fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy-iqtisodiy faolligi oshgan davr bo‘ldi. Nodavlat notijorat tashkilotlarning soni sezilarli darajada ortdi, ular mamlakatdagi islohotlarni rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish jarayonida faol qatnasha boshladi. Avvalgi bosqichlarda ko‘proq tashqi kuzatuvchi sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, endi ular davlatning hamkori sifatida yuzaga chiqdi. Bu

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

Fuqarolik jamiyati institutlarining erkin faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Shavkat Mirziyoyev

YODDA TUTING!

Jamoat birlashmalari *fuqarolarning qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan birlashmalari hisoblanadi.*

t.me/rtm_metodik_xizmat

o‘z-o‘zidan demokratik jarayonlarning chuqurlashganini ko‘rsatadi.

To‘rtinchi bosqich – 2016-yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davr Yangi O‘zbekistonni barpo etish davri hisoblanadi. Bu davrning asosiy mohiyati “Inson manfaatlari – ustuvor” tamoyiliga asoslangan bo‘lib, fuqarolik jamiyati institutlari davlat va jamiyat o‘rtasidagi ko‘prikka aylandi. 2017–2024-yillarda fuqarolik jamiyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan 60 dan ortiq hujjat qabul qilindi. Konstitutsiyaga ilk bor fuqarolik jamiyati institutlariga bag‘ishlangan maxsus bob kiritildi.

Keng ko‘lamli amaliy ishlar sifatida NNTlarni ro‘yxatdan o‘tkazish jarayoni soddalashtirildi, davlat xizmatlari elektron shaklda taqdim etila boshladi (e-ngo.uz portali ishga tushdi), xorijiy mablag‘larni olish tartibi yengillashtirildi. Nogironlar jamiyati, Ko‘zi ojizlar jamiyati kabi yuzlab tashkilotlar to‘liq davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Har bir viloyatda “Do‘stlik va nodavlat tashkilotlar uylari” ochilib, yuzlab NNT va milliy madaniy markazlarga bepul joy berildi.

Bugungi kunda fuqarolik jamiyati institutlari nafaqat davlatning hamkori, balki xalq manfaatlarini ifoda etuvchi asosiy kuchga aylanmoqda. “Yuksalish” umummilliy harakati, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi, “Hunarmand” uyushmasi, “Vatandoshlar” fondi va boshqa ko‘plab tashkilotlar mamlakatning demokratik rivojlanishida faol ishtirok etmoqda. Ularning ishtiroki natijasida O‘zbekistonning xalqaro imiji ham mustahkamlanmoqda, jamiyatda adolat, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari tobora chuqurroq qaror topmoqda.

YODDA TUTING!

Davlatchiligimiz tarixida birinchi marta “mahalla” tushunchasi Konstitutsiyamizga kiritilib, uning jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va maqomi qat’iy belgilab qo‘yildi.



2018-yilda “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun” ko‘krak nishoni ta'sis etildi.

Nishondagi belgilarga ta'rif bering.

IJODIY FAOLIYAT

1. “Qiyosla va xulosa qil” tarixiy o‘zgarishlar jadvali

Yo‘nalish	1-bosqich (1991–2000)	4-bosqich (2016–2025)	Farqi / Taraqqiyot darajasi
Fuqarolik institutlari			
OAV erkinligi			
Mahalla tizimi			

2. Agar fuqarolik jamiyatini daraxtga qiyoslasak, qaysi bosqich uning ildizi bo‘ladi deb o‘ylaysiz?

3. “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” g‘oyasi qaysi davrga xos? G‘oya mazmunini izohlang.

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

Ko‘ppartiyaviylik va raqobat

Ko‘ppartiyaviylik jamiyatda ikki yoki undan ortiq partiyaning faoliyat yuritishi demakdir. U demokratiyaning eng muhim belgilaridan biri bo‘lib, turli fikrlarning erkin aytilishiga yo‘l ochadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, xalq o‘z manfaatlari va siyosiy irodasini erkin ifoda etishi uchun huquqiy asoslar yaratildi. Natijada mamlakatda siyosiy partiyalar birin-ketin tashkil topa boshladi.

O‘zbekistonda faoliyati yo‘lga qo‘yilgan birinchi siyosiy partiya Xalq demokratik partiyasi bo‘lib, u mustaqillikning ilk yillarida (1991-yilda) tuzildi va shu kundan buyon Prezident hamda parlament saylovlarida faol ishtirok etib kelmoqda.

1992-yilda esa “Vatan taraqqiyoti” partiyasi tashkil topdi. Biroq u besh yil faoliyat yuritib, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshira olmagani sababli 2000-yilda “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasiga qo‘shildi.

1995-yilda “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi vujudga keldi. U O‘zbekistondagi ilk sotsial-demokratik partiya hisoblanadi. Asosiy g‘oyasi tenglik, qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolatni ta’minlashdir.

Xuddi shu yili, 1995-yilda “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi ham tuzildi. U milliy qadriyatlarni asrash, madaniyat va an‘analarni rivojlantirishni maqsad qilib oldi.

1999-yilda esa “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi tashkil etildi. U ko‘proq yoshlar faolligi va vatanparvarlik g‘oyalariga urg‘u berdi. 2008-yilda “Fidokorlar” partiyasi “Milliy tiklanish” partiyasi bilan birlashtirildi. Buning sababi ikkala partiyaning g‘oyalari va maqsadlari bir-biriga o‘xshash bo‘lganida edi. Alohida faoliyat yuritish kuchni bo‘lib yuborardi, shuning uchun ularni birlashtirish orqali yagona va kuchliroq siyosiy partiya shakllantirildi.

O‘zbekiston siyosiy tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega partiyalardan biri O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O‘zLiDeP) dir. U 2003-yil noyabrda bo‘lib o‘tgan Ta’sis qurultoyida tuzilgan. Partiya mulkdorlar, kichik biznes vakillari, fermerlar, ishlab chiqarish mutaxassislari va ishbilarmonlar manfaatlarini ifodalashni maqsad qilgan.

t.me/rtm_metodik_xizmat

Ekologiya masalasi ham mamlakatimiz siyosiy hayotida muhim o‘rin egallaydi. Shu bois 2008-yilda O‘zbekiston ekologik harakati vujudga keldi. Keyinchalik u kengayib, 2019-yilda Ekologik partiya nomi bilan rasmiy ro‘yxatdan o‘tdi va ilk bor parlament saylovida qatnashdi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda bir nechta siyosiy partiya faoliyat yuritmoqda. Ularning har biri turlicha g‘oya va dasturlarni ilgari suradi: biri milliy qadriyatlarni, yana biri yoshlar manfaatlarini, boshqasi esa ijtimoiy tenglik yoki iqtisodiy taraqqiyotni ustuvor hisoblaydi.

Ko‘ppartiyaviylik tufayli saylovlarda xalqning tanlovi kengaydi. Fuqarolar o‘zlariga ma’qul partiyani qo‘llab-quvvatlash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu esa jamiyatda sog‘lom raqobatni shakllantirib, demokratiya taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

Siyosiy partiyalar bilan bir qatorda turli jamoat birlashmalari ham faoliyat yuritmoqda. Ularga kasaba uyushmalari, xotin-qizlar va yoshlar tashkilotlari, faxriylar va nogironlar uyushmalari, shuningdek, madaniy-ma’rifiy va sport jamiyatlari kiradi. Bunday birlashmalar fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish, ularni ijtimoiy hayotga faol jalb etishda muhim rol o‘ynaydi.



YODDA TUTING!

- *O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasiga 1991-yilda asos solindi.*
- *“Vatan taraqqiyoti” partiyasi 1992-yilda tashkil etildi.*
- *O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi 1995-yilda tashkil topgan.*
- *O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi 1995-yilda tuzilgan.*
- *“Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi 1999-yili tashkil topgan.*
- *O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O‘zLiDeP) 2003-yilda tashkil topgan.*
- *Ekologik partiya 2019-yili tashkil etilgan.*

t.me/rtm_metodik_xizmat

IJODIY FAOLIYAT

1. Jadvalni daftaringizga chizing va to‘ldiring.
Har bir o‘zgarish ortida qanday tarixiy ehtiyoj yotganiga e’tibor qarating.

Islohot turi	Tarixiy ehtiyoj (sababi)	Ko‘zda tutilgan maqsad
Konstitutsiyaga fuqarolik jamiyati institutlariga doir alohida bob kiritilishi	Davlat – jamiyat – fuqaro tizimida huquqiy mustahkam aloqa zarurati	Fuqarolarni davlat ishining bevosita ishtirokchisiga aylantirish

2. “Ijobiy o‘zgarishni tanishtir”. So‘nggi 5 yilda yashash hududingizdagi fuqarolik jamiyatiga oid o‘zgarishlar haqida yozing:
- mahalladagi yangiliklar;
- jamiyatda nogironlar uchun yaratilgan qulayliklar;
- yoshlar yoki ayollar uchun tadbir va loyihalar;
- OAVda yoritilgan ijobiy misol va shu kabilar haqida.

3. Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini kuchaytirish uchun taklif bildiring.

4. “Vatanparvarlik jamiyat hayotida ishtirok etish, mavjud muammolarga befarq bo‘lmaslikda ham ko‘rinadi”. Ushbu fikrga munosabat bildiring.

5. Qo‘shimcha manbalarga, xususan, huquq fani darsliklaridagi ma’lumotlarga tayanib, quyida keltirilgan fuqarolik jamiyati institutlarining har biriga izoh bering.
- nodavlat notijorat tashkilotlar (NNTlar);
- fuqarolik harakatlari va jamoaviy tashabbuslar;
- mahalla va mahalla fondlari;
- kasaba uyushmalari va mehnat tashkilotlari;
- professional va ilmiy assotsiatsiyalar;
- talaba-yoshlar va ayollar tashkilotlari;
- inson huquqlari tashkilotlari va huquqiy yordam markazlari;
- fondlar va xayriya tashkilotlari (vaqflar);
- mustaqil ommaviy axborot vositalari va jurnalistika markazlari;
- fikr-tadqiqot markazlari;
- madaniy, sport va ko‘ngilochar klublar;
- raqamli platformalar, onlayn hamjamiyatlar.

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

Shaffof saylov tizimi

Davlat ishlarini boshqarishda fuqarolarning ishtiroki juda muhim. Chunki davlat qarorlari xalq manfaatlariga xizmat qilishi kerak. Fuqarolar bunga ikki yo'l bilan ta'sir o'tkazadilar.

Birinchisi – bevosita ishtirok. Bu degani, odamlar o'zlari saylovlarda ovoz berishlari, referendumlarda qatnashishlari, qonun loyihalari muhokamasida o'z fikrlarini bildirishlari mumkin. Shuningdek, mahalla yig'inlarida qatnashish ham bevosita ishtirok shakllaridan biridir.

Ikkinchisi – vakillar orqali ishtirok. Fuqarolar o'zlari ishonch bildirgan vakillarni saylab, ular orqali davlat ishlariga ta'sir ko'rsatadilar. Masalan, Prezident, Oliy Majlis deputatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi a'zolari, shuningdek, viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatlari shular jumlasidandir.

O'zbekistonda mustaqillikdan buyon bir necha bor saylov va referendumlar o'tkazilgan. Bu jarayonlarda xalq o'z fikri, o'z tanlovini ifoda etadi. O'tgan vaqt davomida saylov tizimi ham takomillashib bordi. Ya'ni qonunlar, tartib-qoidalar va amaliyot yildan yilga adolatli, qulay va xalqaro talablar darajasiga yaqin bo'lib bormoqda.

Saylov va referendumlar – xalq hokimiyatining asosiy ko'rinishlaridan biri. Har bir fuqaro bu jarayonlarda ishtirok etish orqali davlat hayotiga o'z hissasini qo'shadi. Shu sababli saylovlarda ovoz berish nafaqat huquq, balki fuqarolik burchi ham hisoblanadi.



Respublika ta'lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

IJODIY FAOLIYAT

1. Fuqarolar davlat ishlariga qanday yo'llar bilan ta'sir o'tkaza oladi? Misollar keltiring.
2. Saylovlarda ovoz berish nima uchun muhim? Fikringizni asoslang.

YODDA TUTING!

Siyosiy partiyalarning jamiyatdagi mavqeyini belgilovchi asosiy mezon ularning davlat hokimiyati vakillik organlariga bo'ladigan saylovlarda erishgan natijasi hisoblanadi.

O'zbekistonda o'tkazilgan referendumlar

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikdan keyin bir necha marta referendum o'tkazilgan. Referendum – davlat ahamiyatiga ega muhim masalalar yuzasidan xalq fikrini aniqlash jarayoni, umumxalq so'rovi.

Birinchi referendum 1991-yil mart oyida bo'lib o'tgan. U paytda O'zbekiston hali SSSR tarkibida edi. Referendumda "O'zbekiston mustaqil respublika sifatida yangilangan ittifoq tarkibida qolishiga rozimisiz?" deb so'ralgan. O'zbekistonliklarning katta qismi bunga rozilik bildirgan. Bu o'sha paytda odamlar mustaqillikni xohlagan bo'lsalar ham SSSR bilan aloqalarni uzil-kesil to'xtatishga tayyor emasliklarini ko'rsatgan.

Ikkinchi referendum 1991-yil dekabrda o'tkazildi. Bu safar xalq oldiga aniq masala qo'yildi: "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini ma'qullaysizmi?" Ovoz berganlarning deyarli barchasi mustaqillikni qo'llab-quvvatladi. Shu tariqa xalq o'z tanlovini qat'iy bildirdi va mustaqillikni yoqladi.

Bu ikki referendum O'zbekiston tarixida burilish yasagan voqealar bo'ldi. Chunki birinchisida xalq mustaqil respublika bo'lish fikrini bildirdi, ikkinchisida esa mamlakatning to'liq mustaqilligi e'tirof etildi. Keyingi yillarda o'tkazilgan referendumlarda ham xalqimiz muhim siyosiy o'zgarishlarga o'z munosabatini bildirib keldi.

Uchinchi referendum 1995-yilda o'tkazilgan. Unda Prezidentning lavozim muddatini uzaytirish masalasi so'ralgan. Aksariyat saylovchilar bu taklifni qo'llab-quvvatladi va natijada Prezident vakolati 2000-yilgacha uzaytirildi.

To'rtinchi referendum 2002-yilda bo'lib o'tgan. Bu safar ikki masala muhokama qilingan: Oliy Majlisni ikki palatali parlament qilish va Prezident vakolat muddatini uzaytirish. Xalqning katta qismi ikkala taklifni ham qo'llab-quvvatlagan. Natijada mamlakatda ikki palatali parlament tizimi joriy etildi va Prezident vakolatlari muddati uzaytirildi.

Respublika ta'lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

Beshinchi referendum esa 2023-yil aprelida o‘tkazildi. Bu safar Konstitutsiyani yangilash masalasi xalq muhokamasiga qo‘yildi. Fuqarolarning katta qismi o‘z ovozi bilan 150 dan ortiq moddani o‘z ichiga olgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qo‘llab-quvvatladi.

MA’LUMOT UCHUN

Referendum va saylovning bir-biridan farqi

Referendumda mamlakat hayoti uchun eng muhim masalalar yuzasidan qonun yoki qaror qabul qilish umumxalq so‘roviga, fuqarolar ovoz berishlari uchun qo‘yiladi.

Saylovda esa bir necha nomzod taqdim etiladi, fuqarolar o‘zlari munosib ko‘rgan nomzodni tanlaydilar.

Saylov va referendum byulletenlari ham bir-biridan farq qiladi. Referendum byulleteniga qo‘yilayotgan masalaning matni yoki savolnomasi kiritiladi. Masalan, referendum byulletenida “Siz “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasini qabul qilasizmi?” degan savol qo‘yiladi. *“Ma’qullaysizmi?”, “Qo‘llab-quvvatlaysizmi?”* shaklida emas, aynan *“Qabul qilasizmi?”* ko‘rinishida savol qo‘yiladi.

Saylov byulletenida ovoz beruvchi o‘z xohish-irodasini *“ha”* yoki *“yo‘q”* yoxud *“roziman”* yoki *“qarshiman”* deb ko‘rsatadi.

YODDA TUTING!

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi (MSK) 1998-yildan e’tiboran mustaqil organ sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Saylov qonunchiligiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi hududida Oliy Majlis, Prezidentlik saylovlari hamda O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazadi. MSK kollegial organ bo‘lib, davlat hokimiyati organlaridan mustaqildir. MSK faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi. MSK eng kamida 15 kishidan iborat tarkibda Oliy Majlis palatalari tomonidan tuziladi. 2024-yil sentyabrdan 9 kishilik tarkibdagi komissiya faoliyat ko‘rsatmoqda.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sizningcha, saylovlarda ishtirok etish huquqmi yoki burch?
2. Saylov va referendumning qanday farqlari bor?
3. O‘zbekistonda o‘tkazilgan referendumlardan qaysi biri xalq hayotida eng katta burilish yasagan deb hisoblaysiz?
4. 1995 va 2002-yillardagi referendumlar mamlakat siyosiy tizimi va boshqaruv shakliga qanday o‘zgarishlar kiritdi?

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

4-MAVZU O‘ZBEKISTONDA TUB ISLOHOTLAR: HARAKATLAR STRATEGIYASIDAN TARAQQIYOT STRATEGIYASI SARI

BILIB OLASIZ

Harakatlar strategiyasining (2017–2021-yillar) O‘zbekiston rivojiga ta’siri.

Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda konstitutsiyaviy islohotlarning ahamiyati.

Harakatlar strategiyasining (2017–2021-yillar) O‘zbekiston rivojiga ta’siri

2017-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini e’lon qildi. U beshta ustuvor yo‘nalishni qamrab olib, mamlakatda turli sohalarda keng islohotlar boshlanishiga asos bo‘ldi. Strategiya asosida har yili alohida davlat dasturlari qabul qilindi. Xususan, 2017–2021-yillar O‘zbekistonda quyidagicha nomlandi:

“Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”;

“Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”;

“Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”;

“Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”;

“Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”.



2021-yil –“Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”

t.me/rtm_metodik_xizmat

Bu yillar davomida 300 ga yaqin yangi qonun va minglab Prezident qarorlari qabul qilinib, siyosiy va iqtisodiy hayotda katta o‘zgarishlar yuz berdi. Parlamentning roli kuchaytirildi, siyosiy partiyalar faollashdi, saylovlar ochiq va raqobatli o‘ta boshladi.

2021-yilda Shavkat Mirziyoyev qayta Prezident etib saylandi. Uning nutqlari va dasturlarida Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi e’lon qilindi. Unda kelgusi yillarda jamiyatni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va xalq bilan muloqotda bildirgan takliflar o‘z aksini topdi.



2023-yilda esa “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilindi. Bu hujjat mamlakatni barqaror va uzoq muddatli rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Unda iqtisodiy o‘sish, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ekologiya, ijtimoiy himoya, davlat boshqaruvini zamonaviylashtirish kabi muhim vazifalar belgilangan. Har yili shu strategiyadan kelib chiqqan holda davlat dasturlari qabul qilinib, bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Umuman olganda, 2017-yildan boshlangan Harakatlar strategiyasi va keyinchalik qabul qilingan Taraqqiyot strategiyasi O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida tub burilish yasadi. Natijada mamlakatimiz yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ydi.

Respublika ta’lim markazi

IJODIY FAOLIYAT

1. Harakatlar strategiyasi O‘zbekiston taraqqiyotida qanday o‘rin tutdi? Javobingizni misollar bilan asoslang.
2. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi xalq hayotiga qanday yangiliklar olib keldi? Misollar keltiring.
3. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida mamlakat kelajagi uchun qanday maqsadlar belgilangan? Fikringizni asoslang.

t.me/rtm_metodik_xizmat



Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda konstitutsiyaviy islohotlarning ahamiyati

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida Konstitutsiyani takomillashtirish dolzarb vazifaga aylandi. Chunki mamlakatni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari – “Harakatlar strategiyasidan Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan belgilandi.

2022-yil 20-mayda Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi qo‘shma majlisida Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi. Uning vazifasi Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflarni yig‘ish, tahlil qilish va xalq muhokamasiga taqdim etishdan iborat bo‘ldi.

Prezident bu jarayon ijrosini uch bosqichda belgilab berdi:
– takliflarni yig‘ish va tahlil qilish;
– yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasini umumxalq muhokamasiga qo‘yish;
– referendum orqali qonuniy kuchga kiritish.

Umumxalq muhokamasi davrida butun mamlakat bo‘ylab 20 mingdan ortiq uchrashuv va yig‘ilishlar o‘tkazildi. 193 davlat tajribasi o‘rganildi, 10 minglab qo‘shimcha taklif kelib tushdi. Bu xalq davlat boshqaruvida faol ishtirok etayotganining yaqqol dalili bo‘ldi.

2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan referendumda xalqimiz yangi Konstitutsiyani qo‘llab-quvvatladi va u 1-maydan kuchga kirdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada “O‘zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” tamoyili mustahkamlandi. Davlatning fuqarolar oldidagi ijtimoiy majburiyatlari 3 barobar ko‘paytirildi. Har bir fuqaroga g‘amxo‘rlik, teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash, inklyuziv rivojlanish kabi tamoyillar belgilandi.

Eng muhimi, Konstitutsiya xalq hayotini yaxshilashning huquqiy kafolati sifatida amalda xizmat qila boshladi.

Siyosiy jarayonlarning davomi sifatida, Konstitutsiyaning 128-moddasiga asosan, Prezident muddatidan ilgari saylov o‘tkazish tashabbusini ilgari surdi. Bu tashabbus siyosiy partiyalar va jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

2023-yil 9-iyul kuni bo‘lib o‘tgan muddatidan ilgari Prezident saylovida Shavkat Mirziyoyev g‘alaba qozondi. Bu voqea Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida xalq ishonchi va davlat siyosatining uzviy bog‘liqligini namoyon etdi.

O‘ZBEKISTON 2030

YODDA TUTING!

Prezident farmoniga binoan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatidagi eng ustuvor vazifa etib belgilangan.

t.me/rtm_metodik_xizmat

MA'LUMOT UCHUN

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi quyidagi asosiy g'oyalarni aks ettirgan:

- barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini yo'lga qo'yish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoit yaratish;
- xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlat barpo etish;
- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatlash.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi quyidagi 5 ustuvor yo'nalishdan iborat:

- har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratish;
- barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash;
- suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;
- qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;
- "xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish.

YODDA TUTING!

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan va amalga oshirilishi davom etayotgan, o'z ahamiyatini yo'qotmagan barcha maqsadlarga erishilishi va dolzarb vazifalar bajarilishi ta'minlanadi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumning O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi uchun ahamiyati qanday bo'ldi?
2. Yangi Konstitutsiyada davlatning fuqarolar oldidagi majburiyatlari necha barobar ko'paytirildi va bu o'zgarishlar xalq hayotiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?
3. "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 5 ustuvor yo'nalishidan qaysi biri, sizningcha, kelajagimiz uchun eng muhim? Javobingizni asoslang.

Respublika ta'lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

5-MAVZU QUROLLI KUCHLAR VA MILLIY ARMIYA

BILIB OLASIZ

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining mustaqillik davrida shakllanishi va buning ahamiyati.
Ichki ishlar idoralari qayta tiklanishi va rivojlanishining jamiyat xavfsizligiga ta’siri.
Milliy xavfsizlik strategiyasi shakllanishining O‘zbekiston taraqqiyotida tutgan o‘rni.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining mustaqillik davrida shakllanishi va buning ahamiyati

1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, eng muhim vazifalardan biri milliy xavfsizlik va hududiy yaxlitlikni ta’minlash edi. Shu maqsadda:

- Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik komiteti O‘zbekiston tasarrufiga o‘tdi.
- SSSRning O‘zbekistondagi harbiy qismlari Prezidentga bo‘ysundirildi.
- Mudofaa ishlari vazirligi tashkil etildi.

Bu o‘zgarishlar O‘zbekistonning o‘z harbiy siyosatini yuritishiga zamin yaratdi. 1992-yilda Prezident farmoni bilan Chegara qo‘shinlari boshqarmasi tashkil etildi. Konstitutsiyada Prezident mamlakat Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo‘mondoni sifatida belgilandi. 1993-yil 14-yanvar esa Vatan himoyachilari kuni deb e’lon qilindi hamda bu sana har yili harbiylar va ularning xizmatini qadrlash kuni sifatida nishonlanadi.

Mustaqillikning ilk yillaridayoq harbiy kadrlar tayyorlashga katta e’tibor qaratildi. Mamlakatimizda quyidagi yangi harbiy oliy o‘quv yurtlari ochildi:

- Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU) maxsus fakulteti;
- Qurolli Kuchlar akademiyasi;
- Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti.

MULOHAZA UCHUN

Harbiy xizmat – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turi.

O‘zbekistonda harbiy xizmatda bo‘lish yoshining chegarasi – shartnoma bo‘yicha harbiy xizmatni o‘tayotgan oddiy askarlar, serjantlar va kichik ofitserlar uchun – 45 yosh, katta ofitserlar uchun – 50 yosh, polkovniklar uchun – 55 yosh, general-mayor, general-leytenant va general-polkovnik harbiy unvonidagi ofitserlar uchun – 60 yosh etib belgilangan.

Hozir majburiy harbiy xizmat (armiya) 12 oy, oliy ma’lumotlilar uchun esa 9 oy etib belgilangan.

t.me/rtm_metodik_xizmat

Keyinchalik Chirchiq, Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlarda harbiy bilim yurtlari tashkil etildi. 2001-yildan boshlab turli harbiy okruglarda serjantlar tayyorlash maktablari ochildi.

1995-yilda mamlakatimizda Harbiy doktrina qabul qilindi. 2003-yilga kelib, ushbu doktrina Oliy Majlisda qayta muhokama qilindi va O‘zbekiston Qurolli Kuchlarini tashkil etishdan asosiy maqsad Vatan himoyasiga qaratilgani e’tiborga olinib Mudofaa doktrinasi, deb o‘zgartirildi. 2018-yilga kelib bu doktrina yanada takomillashtirildi va shu yilning 9-yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi qonuni imzoladi. Bu hujjat:

- xalqaro tahdidlarga qarshi kurashish;
- terrorizm va ekstremizmga qarshi choralar;
- axborot xavfsizligini ta’minlash kabi muhim masalalarni o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, Konstitutsiyada Vatan himoyasi har bir fuqaroning muqaddas burchi deb belgilangan. Harbiy xizmatga chaqirilish umumiy harbiy majburiyat asosida amalga oshiriladi.

Yoshlarni harbiy kasbga yo‘naltirish maqsadida:

- Harbiy litseylar “Temurbeklar maktabi” deb nomlandi.
- 2019-yildan boshlab Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari va Milliy gvardiya tarkibida yangi akademik litseylar tashkil etildi (shu sababli Samarqand va Urganchdagi “Temurbeklar maktabi” faoliyati tugatildi).

Vatanga sadoqatli, jasur yoshlarni rag‘batlantirish uchun “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti ta’sis etildi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

Harbiy-jangovar salohiyat va yuksak ma’naviy salohiyat – O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchi.

Shavkat Mirziyoyev

Atama	Mazmuni
Qurolli Kuchlar	O‘zbekistonning mudofaa va xavfsizlikni ta’minlovchi harbiy kuchlari
Mudofaa doktrinasi	Harbiy siyosatning asosiy yo‘nalishlarini belgilovchi hujjat
Temurbeklar maktabi	Yoshlarni harbiy kasbga tayyorlovchi harbiy litseylar
“Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti	Jasorat ko‘rsatgan yoshlarga beriladigan mukofot

IJODIY FAOLIYAT

1. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin o‘z Qurolli Kuchlarini tuzishi mamlakat mustaqilligi va xalq xavfsizligi uchun qanday ahamiyatga ega bo‘lgan deb o‘ylaysiz?
2. Sizningcha, nega yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash uchun “Temurbeklar maktabi” ochilmoqda yoki “Mard o‘g‘lon” kabi mukofotlar ta’sis etilmoqda?

t.me/rtm_metodik_xizmat

YODDA TUTING!

2018-yil 10-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining ilk bor kengaytirilgan, ochiq videokonferensiya yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining jangovar holatga shayligi ilgarigi 5 kundan 3 soatga tushirilgani ta’kidlandi.

YODDA TUTING!

2006-yildan boshlab 25-oktyabr Ichki ishlar xodimlari kuni deb belgilangan.

Ichki ishlar idoralari qayta tiklanishi va rivojlanishining jamiyat xavfsizligiga ta’siri

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davrlarda Ichki ishlar vazirligi va uning qo‘shinlari murakkab holatda edi. Sovet ittifoqi davrida ko‘plab ofitser va harbiy xizmatchilar boshqa respublikalarda xizmat qilgani uchun mamlakatda milliy kadrlar yetishmas edi. 1991–1994-yillar oralig‘ida chet elda xizmat qilgan o‘zbek ofitserlari vatanga qayta boshladi. Bu jarayon ichki ishlar tizimini mustahkamlash va mamlakat xavfsizligini ta’minlashda muhim qadam bo‘ldi.

Shu davrdan boshlab ichki ishlar organlari uchun maxsus harbiy oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Natijada qisqa vaqt ichida milliy kadrlar soni sezilarli darajada oshdi.

2001-yilda Prezident farmoni bilan ichki ishlar tizimida xizmat qilish tartibi aniq belgilandi, ofitser va xodimlarning huquqiy himoyasi mustahkamlandi. Bu o‘zgarishlar xodimlarning mehnatini qadrlash, ularning faoliyatini adolatli asosda tashkil etishga xizmat qildi.

2017-yilda ichki ishlar organlari faoliyati tubdan qayta ko‘rib chiqildi. Tizimning moddiy-texnik bazasi yangilandi, zamonaviy



t.me/rtm_metodik_xizmat

texnologiyalar joriy qilindi va kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi. Bu islohotlar ichki ishlar tizimini yanada samarali, tezkor va zamon talablari darajasiga moslashtirdi.

2019–2021-yillarda ichki ishlar tizimi xalq bilan ochiq muloqotga o'tdi. "Xavfsiz shahar" va "Xavfsiz hudud" loyihalari orqali shahar va mahallalarda videokuzatuv tizimlari, tezkor javob berish mexanizmlari joriy etildi. Bu loyihalar fuqarolarning o'zini xavfsiz his qilishiga, muammolarni tez va samarali hal etishga yordam berdi.

Bugungi kunda Ichki ishlar vazirligi o'z faoliyatini maxsus nizom va qonunlarga asoslanib olib boradi. Tizimning asosiy maqsadi fuqarolarning tinchligi, huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat tartibini saqlashdir.

IJODIY FAOLIYAT

1. Mustaqillikdan keyingi davrda ichki ishlar tizimida milliy kadrlar yetishmasligi muammosi qanday hal etildi?
2. 2017-yildagi islohotlar ichki ishlar tizimini zamon talablari darajasiga moslashtirishda qanday o'rin tutdi? Misollar bilan izohlang.
3. "Xavfsiz hudud" loyihasi fuqarolarning kundalik hayotiga qanday ta'sir ko'rsatdi? O'zingiz yashaydigan hududda bu loyihaning natijalarini ko'rganmisiz?

Milliy xavfsizlik strategiyasi shakllanishining O'zbekiston taraqqiyotida tutgan o'rni

1991-yil 26-sentyabrda Sovet ittifoqi Davlat xavfsizlik qo'mitasi o'rnida O'zbekiston Milliy xavfsizlik xizmati (MXX) tashkil etildi. Bu yangi tuzilma davlat mustaqilligi, hududiy yaxlitligi va fuqarolarning osoyishtaligini ta'minlash uchun xizmat qildi.

1995-yilda Prezident huzurida Xavfsizlik kengashi tuzildi. U mamlakat xavfsizligi masalalarini muvofiqlashtirish bilan shug'ullandi. Shuningdek, 1996-yilda Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etilib, tabiiy ofatlar va boshqa xavfli vaziyatlarda aholiga yordam ko'rsatish vazifasi yuklatildi.

1999–2000-yillarda O'zbekistonda terrorchilik xavfi kuchaydi. Toshkentdagi portlashlar, tog'li hududlardagi chegaradan kirib kelgan jangarilar mamlakat xavfsizligini jiddiy sinovdan o'tkazdi. Shu sababli davlat "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonunni qabul qildi. Bu qonun terrorizmga qarshi

YODDA TUTING!

Milliy xavfsizlik strategiyasining maqsadi xalqning fundamental maqsadlari bilan hamohang bo'lib, uning amalga oshirilishiga davlatning mavjud barcha siyosiy imkoniyatlari, umummilliy darajadagi vositalar va resurslar safarbar qilindi.

t.me/rtm_metodik_xizmat

murosasiz kurashish hamda davlat organlari va fuqarolarning bu boradagi burchlarini belgilab berdi.

2005-yilda Andijon voqealari yuz berdi. “Akromiylar” deb atalgan jangarilar tartibsizliklar keltirib chiqardi. Ularning harakatlari mamlakat xavfsizligi uchun katta xavf tug‘dirgan bo‘lsa-da, davlat bunga qarshi qat’iy choralar ko‘rdi.

Keyingi yillarda xavfsizlik tizimi yanada takomillashdi. 2018-yilda O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati (DXX) sifatida qayta tashkil etildi. Nafaqat nomdagi, balki mazmundagi bunday o‘zgarish tufayli tashkilotning vazifalari kengaydi.

Bugungi kunda DXX quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi:

- mamlakat konstitutsion tuzumini himoya qilish;
- davlat chegaralarini qo‘riqlash;
- ichki va tashqi xavflarni aniqlash hamda bartaraf etish;
- razvedka va kontrrazvedka ishlari;
- terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash;
- narkotik moddalar savdosini to‘xtatish;
- korrupsiya va boshqa xavfli jinoyatlarning oldini olish.

2021-yilda xizmat xodimlarining kasb bayrami sanasi 26-sentyabr etib belgilandi. Bu sana ramziy ma’noga ega, chunki 1991-yilning aynan shu kuni O‘zbekiston o‘z milliy xavfsizlik tizimiga asos solgan edi.

Bu sanani belgilashdan maqsad DXX xodimlarining mashaqqatli mehnatini qadrlash, ularning jamiyat xavfsizligi, tinchligi va osoyishtaligini ta’minlashdagi xizmatlarini e’tirof etishdir.

Respublika ta’lim markazi

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sizningcha, O‘zbekistonda Davlat xavfsizlik xizmatining tashkil etilishi mustaqillikning ilk yillarida qanday ahamiyat kasb etgan?
2. Terrorizm va boshqa xavf-xatarlar sharoitida davlat xavfsizlik tizimining kuchli bo‘lishi oddiy odamlar hayotiga qanday ta’sir qiladi?
3. Bugungi kunda yoshlar mamlakat xavfsizligini ta’minlashga qanday hissa qo‘shishi mumkin deb o‘ylaysiz?

t.me/rtm_metodik_xizmat



2-BOB IQTISODIY ISLOHOTLAR VA IJTIMOIY SIYOSAT

- **1994**-yil **1**-iyulda milliy valyuta – so‘m muomalaga kiritildi.
- **1996**-yilda Asaka shahrida “UzDaewoo” avtomobil zavodi ish boshladi.
- **2011**-yildan boshlab tezyurar “Afrosiyob” poyezdi qatnay boshladi.
- **2019**-yilda O‘zbekiston ilk bor xalqaro yevroobligatsiyalarini London birjasida joylashtirdi.
- **2020**-yilda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi.
- **2024**-yildan boshlab haftaning juma kuni “Mehr va saxovat kuni” deb belgilandi.









t.me/rtm_metodik_xizmat

6-MAVZU MILLIY IQTISODIYOTNING BARPO ETILISHI

BILIB OLASIZ

O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi. O‘zbek modeli.

O‘zbekistonning zamonaviy transport-kommunikatsiya tizimi.

Qishloq xo‘jaligidagi islohotlarning hayotimizga ta’siri.

O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi. O‘zbek modeli



Mustaqillik e’lon qilinganida mamlakat iqtisodiyoti juda og‘ir ahvolda bo‘lib, aholi deyarli ocharchilik ostonasiga kelib qolgan edi. Bunday iqtisodiy tanglikdan taraqqiyot yo‘liga chiqish uchun mamlakat iqtisodiy tizimini yangilash, mustabid tuzum davridagi rejali iqtisodiyotdan yangi bozor iqtisodiyotiga o‘tish talab etilardi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov iqtisodchilar va siyosatchilar oldiga rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish, uni tahlil qilish va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish vazifasini qo‘ydi. Shu asosda mamlakat bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘lini ishlab chiqishga kirishdi.

1993-yilda Birinchi Prezident Islom Karimov yangi iqtisodiy tizimga o‘tish modeli haqida yozib, uning asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatdi. Mazkur model iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi va uni mafkuradan xoli etish, davlat bosh islohotchi bo‘lishi, qonun ustuvorligi, kuchli ijtimoiy himoya yo‘lga qo‘yilishi va bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish deb nomlangan besh tamoyildan iborat edi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda milliy valyuta – so‘mni joriy qilish masalasi juda muhim edi. Chunki o‘z valyutasiga ega bo‘lmagan mamlakat to‘liq iqtisodiy mustaqillikka erisha olmaydi.

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

Mustaqillikning dastlabki davrida O‘zbekiston Sovet Ittifoqining rubl zonasida, rubl iqtisodiy va moliyaviy ustunlikda edi. Biroq rubl zonasida qolish mamlakat iqtisodiyotiga katta xavf tug‘dirardi. Chunki boshqa davlatlar bilan bir xil puldan foydalanish inflyatsiyani kuchaytirishi, narx-navo beqarorligiga olib kelishi mumkin edi. Shu sababli O‘zbekiston o‘z milliy valyutasini joriy qilish yo‘lini tanladi. 1992-yildayoq so‘m-kuponlar tayyorlandi va 1993-yil 1-noyabrdan muomalaga chiqarildi. U rubl bilan tenglashtirilgan bo‘lib, vaqtinchalik pul birligi sifatida xizmat qildi. 1994-yil 1-iyulda milliy valyuta – so‘m muomalaga kiritildi. Bu voqea O‘zbekistonning iqtisodiy suverenitet yo‘lidagi eng muhim qadamlaridan biri bo‘ldi.



So‘m-kupon nusxasi

1991-yil 18-noyabrda O‘zbekiston Oliy Kengashi “Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi qonunni qabul qildi. Bu qaror mamlakatda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning eng muhim bosqichlaridan biri edi. Chunki shu orqali mulk oddiy odamlarning ham qo‘liga o‘tishi mumkin bo‘ldi. Dastlabki bosqichda xususiylashtirish jarayoni ko‘proq aholiga yaqin sohalarni qamrab oldi. Jumladan, umumiy uy-joy fondi, savdo shoxobchalari, mahalliy sanoat korxonalari, xizmat ko‘rsatish joylari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlash tizimi asta-sekin xususiylashtirildi. Bu jarayonni to‘g‘ri tashkil qilish uchun 1992-yil fevral oyida Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish davlat qo‘mitasi tuzildi. Qisqa davr ichida odamlar ko‘plab uy-joylarga, kichik korxonalarga va savdo shoxobchalariga egalik qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Shu yillarda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish bo‘yicha 20 dan ortiq qonun va qaror qabul qilindi.

1995-yildan esa jarayon yanada kengaydi va ommaviy xususiylashtirish boshlandi. Bu bosqichda nafaqat kichik korxonalar, balki o‘rta va yirik sanoat korxonalari ham xususiy sektorga aylantirildi.

Davlat mulkini bosqichma-bosqich xususiylashtirishga kirishildi. 1996-yilga kelib, respublikada 3 million oila shaxsiy tomorqaga, 50 ming kishi kichik biznesga va 5 ming kishi ko‘chmas mulkka ega bo‘ldi. Keyingi bosqichda o‘rta va yirik korxonalar ham xususiylashtirildi, ular asosan hissadorlik jamiyatlariga aylantirildi.

t.me/rtm_metodik_xizmat







2001–2016-yillarda jarayon yanada chuqurlashdi. Bu davrda investitsiyalar jalb qilish, sanoatni modernizatsiya qilish va yangi tarmoqlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Davlat mulkini sotishda ochiq tanlov va auksionlar o'tkazildi.

2017-yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev davrida iqtisodiyotda davlat ulushini kamaytirish, xususiy sektorni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha faol siyosat olib borildi. Natijada shaffoflik va raqobat tamoyillari kuchaydi. Shu yillardan boshlab sezilarli natijalarga erishildi, jumladan, iqtisodiy o'sish har yili 5–7 foiz atrofida barqarorlashdi, yangi sanoat korxonalari ishga tushirildi, eksport hajmi va xorijiy investitsiyalar miqdori oshdi, tadbirkorlar va investorlar uchun soliq imtiyozlari joriy qilindi.

Yuqorida keltirilgan bir qator iqtisodiy islohotlar natijasida 2024-yilda O'zbekiston xalqaro ochiq ma'lumotlar (ODIN) reytingida 83 ball olib, dunyoda 12-o'ringa ko'tarildi va Markaziy Osiyodagi yetakchi o'rnini saqlab qoldi.

Bu davrda mamlakatda keng qamrovli iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, milliy valyuta – so'mning erkin konvertatsiyasi joriy etildi. Davlat korxonalarini xususiylashtirish dasturi kengaytirildi. Bank xizmatlari sifatini oshirishga e'tibor qaratildi. Qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va sifati oshdi. Eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish ulushi ortdi. Bu islohotlar mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirib, iqtisodiy o'sishni ta'minladi va aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qildi.

t.me/rtm_metodik_xizmat

IJODIY FAOLIYAT

1. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning qaysi yo‘lini tanladi?
2. O‘zbekiston o‘z milliy valyutasini joriy qilmaganda, qanday salbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin edi?
3. Milliy valyutani joriy qilish yo‘lida qanday muammolarga duch kelindi?

O‘zbekistonning zamonaviy transport-kommunikatsiya tizimi







Mustaqillikdan keyin O‘zbekiston oldida turgan eng muhim vazifalardan biri zamonaviy transport va aloqa tizimini rivojlantirish edi. Chunki yaxshi yo‘llar, aeroportlar, temiryo‘llar va qulay transport xizmati nafaqat odamlar hayotini yengillashtiradi, balki mamlakat iqtisodiyoti va xalqaro aloqalarini ham mustahkamlaydi.

Birinchi navbatda milliy transport tizimi shakllantirildi. “O‘zbekiston havo yo‘llari”, “O‘zbekiston avtomobil transporti” va “O‘zbekiston temiryo‘llari” kabi yirik tashkilotlar tuzildi. Toshkent xalqaro aeroportida yangi terminallar barpo etildi, yurtimizdagi 11 ta shahar aeroporti xalqaro maqomga ega bo‘ldi. Shu bilan birga, minglab kilometr avtomobil va temiryo‘l yo‘nalishlari qurildi. Masalan, Toshguzar – Boysun – Qumqo‘rg‘on yoki Angren – Pop yo‘llari uzoq hududlarni bog‘lab, odamlar uchun katta qulaylik yaratdi.



t.me/rtm_metodik_xizmat



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Jizzaxdagi “BYD Uzbekistan Factory” avtomobil zavodida. 2024-yil

2011-yildan tezyurar “Afrosiyob” poyezdi dastlab Toshkent – Samarqand yo‘nalishida, keyinchalik Qarshi va Buxorogacha qatnay boshladi. 2016-yilda ochilgan Qamchiq tunneli orqali Farg‘ona vodiysi poytaxt bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘landi. Natijada yuk va yo‘lovchi tashish ancha tezlashdi.

Bu davrda Toshkent metrosi ham kengaydi. 2001-yilda Yunusobod yo‘nalishining birinchi qismi ishga tushirilgan bo‘lsa, 2020-yildan keyin yangi bekatlar ochilib, poytaxt metrosining umumiy uzunligi 70 kilometrdan oshdi. Bu esa aholi kundalik hayotini yanada qulaylashtirdi.

Avtomobil yo‘llari tarmog‘i ham keskin rivojlandi. 2025-yilga kelib, umumiy yo‘llar uzunligi 184 ming kilometrdan oshdi. Shu yili Toshkentni Andijon bilan bog‘laydigan yangi 314 kilometrli magistral yo‘l loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha natijasida qatnov vaqti 5 soatdan 3 soatga qisqaradi. Bu esa ham iqtisodiy o‘sishga, ham avtohalokatlarning kamayishiga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida transport sohasi bilan bir qatorda avtomobilsozlik ham rivojlandi. 1996-yilda Andijonda ishga tushirilgan “Uz-DaewooAuto” zavodi keyinchalik “GM Uzbekistan” nomi bilan mashhur bo‘ldi. 2020-yilga kelib esa

Respublika ta’lim markazi



t.me/rtm_metodik_xizmat

yangi raqobatchilar paydo bo‘ldi. Masalan, “ADM Jizzakh” zavodi 2021-yilda, “BYD Uzbekistan Factory” esa 2023-yilda ish boshladi. Ayniqsa, BYD korxonasi O‘zbekistonda elektr va gibrid avtomobillar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi. Bunday avtomobillar esa ekologiya uchun ham foydali, iqtisodiyot uchun ham samarali hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda transport tizimi va avtomobil sanoatidagi raqobat odamlar uchun tanlov imkoniyati va sifatli xizmatni ta’minlamoqda. Shuningdek, O‘zbekistonning geografik joylashuvi transport tarmoqlarini rivojlantirish orqali uni mintaqaviy logistika markaziga aylantirish imkonini bermoqda.

2025-yil uchun ishlab chiqilgan “Yo‘l xaritasi”ga muvofiq, O‘zbekiston avtomobil yo‘llari bo‘yida zamonaviy xizmat ko‘rsatish obyektlari — “Service point” (xizmat nuqtasi) va “Service area” (xizmat hududi) tashkil etilmoqda.

Xizmat nuqtasi (Service point) bu — avtomobil yo‘llari bo‘yida yo‘lovchilar va haydovchilarga zarur xizmatlarni ko‘rsatadigan kichik obyektlar majmuasi. Unda quyidagi xizmatlar mavjud bo‘ladi:

– yonilg‘i quyish shoxobchasi;
– elektromobillarni quvvatlash stansiyasi;
– ovqatlanish maskani (kafe, choyxona);
– sanitariya-gigiyena shoxobchasi (hojatxona, yuvinish joyi);
– texnik xizmat ko‘rsatish nuqtasi;
– do‘kon va dorixona.

YODDA TUTING!

O‘zbekistonda 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Bunda kelgusi yillarda yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish ko‘zda tutilgan.

Respublika ta’lim markazi



t.me/rtm_metodik_xizmat

Xizmat hududi (Service area) esa xizmat nuqtasidan kengroq va to‘liqroq obyekt bo‘lib, unda quyidagi qo‘shimcha qulayliklar yaratiladi:

– TIR park (yuk mashinalari uchun to‘xtash joyi);
– motel yoki mehmonxona;
– avtomobillarni yuvish joyi;
– dam olish maskani;
– Wi-Fi va aloqa nuqtalari;
– bolalar maydonchasi.

Bu obyektlar yo‘lovchilarga qulaylik yaratish, transport-logistika xizmatlarini yaxshilash va elektromobil infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular zamonaviy me’morchilik asosida qurilib, tadbirkorlarga foydalanish uchun taklif etiladi.

IJODIY FAOLIYAT

1. Toshkent – Andijon yangi magistral yo‘li ishga tushgach, odamlarning hayot tarzi qanday o‘zgaradi deb o‘ylaysiz?
2. O‘zbekistonda BYD elektr avtomobillari ishlab chiqarilishi transport sohasida va ekologiya yo‘nalishida qanday o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin?
3. Sizningcha, Toshkent metrosi 70 kilometrga cho‘zilgani poytaxt aholisi turmushini qanday osonlashtirdi? Yana qaysi hududlarga metro liniyasi borishini xohlardingiz?

Respublika ta’lim markazi



t.me/rtm_metodik_xizmat

Qishloq xo‘jaligidagi islohotlarning hayotimizga ta’siri



O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, qishloq xo‘jaligida ham katta islohotlar boshlandi. Mulk egaligi tizimi o‘zgardi va yangi xo‘jalik yuritish shakllari paydo bo‘ldi.

1990-yilda aholiga kerakli g‘allaning 82 foizi, kartoshka, go‘sht va sut mahsulotlarining yarmi chetdan olib kelinar edi. Import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 70 foizdan ortiqni tashkil qilgan.



1992-yilda “Yer to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, yerlar davlat mulki deb belgilandi. Lekin dehqon va fermerlarga ularni uzoq muddatli ijara asosida ishlatish huquqi berildi. Keyinchalik “Oziq-ovqat dasturi” qabul qilinib, g‘alla mustaqilligi siyosati boshlandi. 1996-yilda “Fermer xo‘jaliklari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi va natijada mayda shirkat xo‘jaliklari tugatilib, fermer xo‘jaliklari tashkil etildi va shu yili O‘zbekiston g‘alla mustaqilligiga erishdi.

2008–2009-yillarda xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda zamonaviy texnologiyalarga asoslangan qishloq xo‘jaligi texnikalari ishlab chiqarildi va fermer xo‘jaliklariga yetkazib berildi. Natijada fermer xo‘jaliklari soni ortdi, g‘alla va paxta hosildorligi barqarorlashdi.

2016-yildan boshlab qishloq xo‘jaligida yangicha yondashuv joriy qilina boshladi. Bozor munosabatlari asosida agroklasterlar va kooperatsiyalar hamkorligi o‘rnatilib, yetishtirilgan paxta tolasini mamlakatimizda to‘liq qayta ishlash yo‘lga qo‘yildi. Natijada:

Respublika ta’lim markazi



t.me/rtm_metodik_xizmat



– eksport qilinadigan meva-sabzavot mahsulotlari 34 turdan 119 turga, ularning eksport geografiyasi esa 43 tadan 92 ta davlatga kengaydi;

– suv tejovchi sug‘orish texnologiyalari joriy qilindi. 2017-yildan oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha alohida dasturlar joriy etilib, imtiyozli kreditlar ajratildi.

2018–2024-yillar davomida iqtisodiy islohotlar natijasida O‘zbekistonda qo‘shimcha 1 milliondan ortiq yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi va 2 millionga yaqin odam doimiy ish bilan ta‘minlandi.

Mamlakatni daromadi o‘rtachadan yuqori davlatlar qatoriga qo‘shish maqsadida 2016–2025-yillarda har bir sohada tizimli islohotlar amalga oshirildi.

2021-yildan boshlab paxta va g‘alla maydonlari qisqartirilib, ularning o‘rniga eksportbop ekinlar ekila boshlandi. Jumladan, 1 gektar paxta yetishtirishdan uzum yetishtirish 7 baravar, gilos 6 baravar, yong‘oq esa 5 baravar daromadliroq ekani sababli ko‘plab yerlar bog‘dorchilikka ajratildi.

Suvni tejash va hosildorlikni oshirish uchun tomchilab sug‘orish kengaytirildi, nasos stansiyalariga onlayn nazorat tizimlari o‘rnatildi, xususiy sheriklik asosida tejamkor nasos va quyosh panellari joriy qilinadi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Suvni tejovchi texnologiyalar va tomchilab sug‘orish tizimlarining joriy etilishi fermer xo‘jaliklari samaradorligini qanday oshirdi?
2. “Yer to‘g‘risida”gi va “Fermer xo‘jaliklari to‘g‘risida”gi qonunlar mustaqillik davrida agrar sohaning rivojlanishida qanday rol o‘ynadi?
3. 2021-yildan paxta va g‘alla maydonlari qisqartirilgach, ularning o‘rniga ekilayotgan eksportbop ekinlar mamlakat iqtisodiyoti va fermer xo‘jaliklari daromadiga qanday ta‘sir ko‘rsatmoqda?

t.me/rtm_metodik_xizmat

7-MAVZU MAMLAKATDA ISHLAB CHIQARISH SALOHIYATINING OSHISHI VA JAHON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSIYALASHUV

BILIB OLASIZ

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash – raqamli davr sari qadam.
Erkin va maxsus iqtisodiy zonalar – imkoniyatlar makoni.
Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv – O‘zbekiston dunyo bozorida.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash – raqamli davr sari qadam



Iqtisodiyotni modernizatsiyalash mamlakat iqtisodiy tizimini zamonaviy talablar asosida yangilash va rivojlantirishni anglatadi. Bundan asosiy maqsad iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish, yangi tarmoqlarni rivojlantirish, raqobatni kuchaytirish va O‘zbekistonning jahon bozoridagi o‘rnini mustahkamlashdir.

Mustaqillikning dastlabki davrida iqtisodiyotimizda hal qilinishi kerak bo‘lgan muammolar bor edi. Raqobat muhiti yo‘q, ayrim zavod va korxonalar deyarli yagona ishlab chiqaruvchi bo‘lib hisoblanardi. Soliq va bojxona tizimidagi byurokratiya esa tadbirkorlar ishini qiyinlashtirardi.

Sovet Ittifoqi davrida mamlakat iqtisodiyoti asosan biryoqlama xomashyo yetkazib berishga ixtisoslashgan edi. Mustaqillikdan so‘ng ishlab chiqarish sohalari kengaydi, turli zamonaviy korxonalar barpo etildi. Masalan, Andijonda yengil avtomobil ishlab chiqaruvchi (“Uz-Daewoo”), Samarqandda avtobus ishlab chiqaruvchi (“SamKochAvto”) zavodlar, shuningdek, oziq-ovqat, to‘qimachilik va elektronika mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar ishga tushdi.

Sovet Ittifoqi respublikalari orasida faqat O‘zbekistonda 1996-yildan boshlab izchil iqtisodiy o‘sish sur’atlari ta’minlandi. Agar 1996–2003-yillarda o‘rtacha o‘sish sur’ati 4,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2004-yildan boshlab bu jarayon yangi bosqichga ko‘tarilib, yuqori darajada – yiliga o‘rtacha 7,5 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, mustaqillik yillarida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi, Qo‘ng‘irot soda zavodi, Dehqonobod kaliy zavodi kabi yirik ishlab chiqarish maskanlari ish boshladi. Yuzlab yengil sanoat va oziq-ovqat korxonalari barpo etilib, iqtisodiyotimiz poydevori mustahkamlandi.

t.me/rtm_metodik_xizmat

YODDA TUTING!

O'zbekistonda valyutaning kutilmagan tarzda 50 foiz devalvatsiya qilinishi tijoriy shartnoma tuzuvchilarning e'tiborini tortadi.

AQSHning moliyaviy-iqtisodiy yangiliklar bo'yicha Bloomberg agentligi. 2017-yil

2016-yildan O'zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi bosqichi boshlandi. Bu davrda soliq, bojxona, tashqi savdo va moliya tizimida katta o'zgarishlar qilindi.

Avvallari odamlar xorijiy valyutani faqat "qora bozor"dan olgan bo'lsa, endilikda banklarda bemalol valyuta sotib olish va sotish imkoniyati yaratildi. Bu odamlar uchun qulay bo'lib, narx-navo barqarorligiga ham xizmat qiladi.

Soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida korxonalar to'laydigan 25 foizli ijtimoiy soliq stavkasi 12 foizgacha tushirildi. Natijada tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda bozor iqtisodiyotini erkinlashtirish maqsadida mamlakatda bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi. Avvalo, soliq tizimi soddalashtirilib, tadbirkorlar uchun ortiqcha byurokratik to'siqlarni kamaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Soliq turlari kamaytirilib, soliq tekshiruvlari soni ham sezilarli darajada qisqartirildi. Bu esa tadbirkorlarning soliq yukini yengillashtirishga, faoliyatini erkin va shaffof yuritishiga xizmat qildi.

Bundan tashqari, soliq stavkalari qayta ko'rib chiqilib, ularni pasaytirish orqali biznes subyektlarining moliyaviy yuklamalari yengillashtirildi. Xususan, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) va ijtimoiy soliq stavkalarining pasaytirilishi korxonalar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratdi hamda ularning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qildi.

2017-yildan jismoniy shaxslarga chet el valyutasini tijorat banklarining valyuta ayirboshlash shoxobchalariga erkin sotish va konversion bo'limlaridan sotib olish hamda chet elda hech qanday cheklovlarsiz ishlatish huquqi berildi.

Markaziy Osiyoda yagona "Falk Porsche Fiberglass" O'zbekiston – Germaniya qo'shma korxonasi



Respublika ta'lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

Milliy valyutaning yagona to‘lov vositasi sifatidagi mavqeyini mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududida tovar va xizmatlar (ishlar) uchun chet el valyutasida to‘lovlarni amalga oshirish taqiqlandi. Valyuta siyosatini liberallashtirish natijasida 2017–2020-yillarda ichki valyuta bozorida ishtirokchilar soni o‘sishi kuzatildi.

2020-yildan ipoteka krediti orqali aholini uy-joy bilan ta’minlashning bozor tamoyillariga asoslangan yangi tartibi joriy qilinib, daromadi yuqori bo‘lmagan oilalarga ipoteka krediti bo‘yicha dastlabki badal uchun 32 million so‘m subsidiya berish va foiz stavkasining 10 foizdan oshgan qismini qoplash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekistonning “Doing Business” reytingidagi o‘rni ancha yaxshilandi. 2016-yilda 44 ball bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yilga kelib, 58 ballga chiqdi. Bu mamlakatimizda biznes yuritish qulaylashganini ko‘rsatadi.

“e-MEHMON” avtomatlashtirilgan axborot tizimi to‘liq ishga tushirilib, mamlakat bo‘yicha mingga yaqin elektron joylashtirish vositalari yagona platformaga birlashtirildi. Natijada xorijiy va mahalliy fuqarolarni ro‘yxatga olish jarayoni hamda tegishli hisobotlar yuritish to‘liq elektron shaklga o‘tkazildi.

Davlat byudjetining ma’lum qismi xalqning o‘z takliflariga asosan sarflanadigan bo‘ldi. Ya’ni odamlar “Tashabbusli byudjet” portali orqali qaysi loyihaga pul ajratish kerakligini ovoz berib tanlashadi. Eng ko‘p ovoz olgan loyihalar moliyalashtiriladi.

Shu tartibda 2025-yilgacha 2215 ta loyiha amalga oshirilgan va ular uchun 1,1 trillion so‘m ajratilgan.

Shuningdek, 2017-yildan keyingi islohotlar oddiy odamlarning hayotiga ham, tadbirkorlik va turizm sohalariga ham juda katta qulayliklar olib keldi.

YODDA TUTING!

Doing Business – bu Jahon banki (World Bank) har yili chiqaradigan xalqaro hisobot bo‘lib, u turli davlatlarda biznes qilish qanchalik oson yoki qiyin ekanini ko‘rsatib beradi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

Moliyaviy bozorning rivojlanishi iqtisodiyotni yanada liberallashtirish va tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratishning asosiy omili hisoblanadi.

Shavkat Mirziyoyev



Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

O‘tgan qisqa muddatda mamlakatning turizm bilan bog‘liq soha va tarmoqlarida yuz bergan o‘zgarishlar o‘zining ijobiy natijalarini berdi. O‘zbekistonga kelayotgan sayyohlar soni 2,5 barobar ortdi.

IJODIY FAOLIYAT

1. “Tashabbusli byudjet” loyihasi orqali o‘z hududingizdagi qaysi muammoni hal qilgan bo‘lardingiz va nima uchun?

2. Quyidagi ma’lumotlar juftligini “sabab – natija” tarzida moslang:

1	Valyuta bozori liberallashtirildi	A	Aholi uchun valyutani erkin sotib olish va chet elda ishlatish imkoniyati yaratildi
2	Ipoteka va subsidiya tizimi joriy qilindi	B	Daromadi past oilalar uy-joyli bo‘ldi
3	“Doing Business” reytingida oshdi	D	Tadbirkorlikka oid islohotlar amalga oshirildi
4	Elektron joylashtirish tizimi yaratildi	E	Sayyohlar soni 2,5 barobar oshdi

3. Valyuta erkin konvertatsiya qilinishi natijasida oddiy odamlar turmushi qanday qulaylashadi? Misollar keltiring.

4. Tasavvur qiling, siz tadbirkorsiz. Soliq turlari kamaytirilishi va litsenziya olishning soddalashtirilishi sizning biznesingizga qanday ta’sir qilardi?

Respublika ta’lim markazi

“Orient Logistics Center” – Toshkent markazida joylashgan zamonaviy transport-logistika markazi



t.me/rtm_metodik_xizmat

Erkin va maxsus iqtisodiy zonalar – imkoniyatlar makoni

XXI asrda mamlakatlar o‘rtasida savdo va iqtisodiy aloqalar kuchayib bormoqda. Shu sababli ayrim hududlarda soliq va bojxona yengilliklari berilgan erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilmoqda. Bundan asosiy maqsad yangi ish o‘rinlari yaratish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va xorijiy investorlarni jalb qilishdir.

O‘zbekistonda 1996-yilda “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Unda erkin iqtisodiy zona – muayyan hududni tezroq rivojlantirish uchun alohida huquqiy tartibga ega bo‘lgan maxsus zona sifatida ta’riflangan.

Keyingi yillarda bu sohada bir qator yirik qadamlar qo‘yildi. Avval “Navoiy” logistika markazi ochildi, keyin “Jizzax” va “Angren” maxsus industrial zonalari barpo etildi. 2016-yilda esa “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon” va “Hazorasp”, 2019-yilda “Termiz” erkin iqtisodiy zonalari ish boshladi. Mazkur hududlarda xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash, investitsiyaviy faollikni oshirish va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga katta e’tibor qaratilgan.

2021-yilga kelib, mamlakatda yigirmadan ortiq erkin iqtisodiy zona va uch yuzdan ortiq kichik sanoat zonasi mavjud edi. Ularning barchasida yangi ishlab chiqarish korxonalari uchun infratuzilma yaratildi.

So‘nggi yillarda farmatsevtika sohasi uchun ham maxsus hududlar barpo etildi. Masalan, “Nukus-farm”, “Zomin-farm” va “Kosonsoy-farm” shular jumlasidan. Buning natijasida dorilar ishlab chiqarish kengaydi va ko‘plab odamlar ish bilan ta’minlandi.

2024-yilda O‘zbekiston iqtisodiyoti 6 foizdan ortiq o‘sdi. Bu o‘sishda erkin iqtisodiy zonalarda amalga oshirilgan loyihalar muhim rol o‘ynadi.

Umuman olganda, erkin iqtisodiy zonalar mamlakatimiz sanoatini rivojlantirish, eksportni oshirish, aholi turmushini yaxshilash va O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o‘rnini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega.

MA’LUMOT UCHUN

Erkin iqtisodiy zona *– yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import o‘rnini bosuvchi, eksportga yo‘naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o‘zlashtirish, shuningdek, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transport, ijtimoiy infratuzilma va logistika xizmatlarini rivojlantirish maqsadida tashkil etiladigan hudud.*

Maxsus iqtisodiy zona *– tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy sarmoyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy tartibga ega hudud.*

t.me/rtm_metodik_xizmat

Erkin iqtisodiy zonalar





Andijon logistika markazi negizida tashkil etilgan “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ va “Rhenus SE & Co. KG” kompaniyalari hamkorligida “UzContargo Andijan” qo‘shma korxonasi ochildi.

t.me/rtm_metodik_xizmat

IJODIY FAOLIYAT

1. Tumaningizda maxsus iqtisodiy zona ochilsa, qanday korxona tashkil etgan bo‘lardingiz, nima uchun?
2. Sizningcha, O‘zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarning ko‘payishi aholi turmushiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
3. Agar siz sarmoyador bo‘lib, “Navoiy”, “Angren” yoki “Urgut” kabi zonalardan biriga sarmoya tikmoqchi bo‘lsangiz, qaysi sohani tanlab, qanday loyiha boshlardingiz?

Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv – O‘zbekiston dunyo bozorida

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan savdo va iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Bugungi kunda tashqi savdo aylanmasi hajmi Xitoy, Rossiya, Hindiston, Turkiya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va qo‘shni davlatlar bilan sezilarli darajada ortib bormoqda.

Jahon iqtisodiyotiga qo‘shilish jarayonida O‘zbekiston uchun eng muhim masalalardan biri Jahon savdo tashkilotiga (JST) a’zo bo‘lishdir. Bu jarayon 1994-yilda boshlangan, biroq 2005-yilda to‘xtab qolgan edi. 2018-yildan Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi islohotlar doirasida JSTga a’zo bo‘lish jarayoni yana faollashtirildi. JSTga kirish global savdo qoidalariga moslashish, eksport-import imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro bozorga erkin chiqish imkonini beradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan xalqaro hamkorlik faqat tashqi savdo aloqalari bilan cheklanmaydi. O‘zbekiston Xitoy, Koreya, Germaniya, Rossiya va Turkiya bilan yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirdi. Shuningdek, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi moliyaviy institutlar bilan hamkorlik kuchaydi.



Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

YODDA TUTING!

Investor – *o‘z mablag‘ini (pulini, mulkini yoki boshqa resurslarini) foyda olish maqsadida korxona, loyiha yoki qimmatli qog‘ozlarga kiritadigan shaxs yoki tashkilot.*

O‘zbekiston Islom taraqqiyot bankiga 2003-yilda a’zo bo‘lgan. 2025-yilga kelib, qiymati jami 2,5 milliard dollardan ortiq 30 ta yirik investitsiya loyihasi ma’qullangan. Ular doirasida maktablar, arzon uy-joylar, avtomobil yo‘llari, elektr va ichimlik suv tarmoqlari qurilib, sog‘liqni saqlash muassasalari zamonaviy jihozlangan.

Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvda savdo yo‘llari ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli O‘zbekiston “Transafg‘on temiryo‘li”, “Qozog‘iston – O‘zbekiston – Turkmaniston – Eron”, “Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” kabi transport loyihalarida faol ishtirok etmoqda.

2018-yilda O‘zbekiston o‘z tarixida birinchi bor suveren kredit reytingini oldi, 2019-yilda esa xalqaro moliyaviy statistik tizimlarda o‘z sahifasiga ega bo‘ldi. Bu mamlakatning jahon moliya tizimida ham faol ishtirok etayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiyotga qo‘shilishi savdo aloqalari kengayishi, investitsiyalar jalb qilinishi, yangi transport yo‘llari ochilishi va moliyaviy hamkorlikni mustahkamlash bilan namoyon bo‘lmoqda.

2019-yilda O‘zbekiston ilk bor xalqaro yevroobligatsiyalarini London birjasida joylashtirdi. Bu mamlakatning jahon

O‘zbekiston eksportidagi yetakchi 10 davlat

(2025-yil, yanvar – avgust)



t.me/rtm_metodik_xizmat

moliya bozoriga chiqishida muhim qadam bo‘ldi. 2020-yil noyabr oyida esa yana 750 million dollarlik obligatsiyalar London fond birjasiga muvaffaqiyatli joylashtirildi. Bu jarayon xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan yuqori baholandi.

Xalqaro hamkorlikning kuchayishi O‘zbekistonga ishonchni orttirdi. 2020-yilda mamlakat birinchi marta Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) indeksiga kiritildi va Markaziy Osiyo bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda yetakchi o‘ringa chiqdi.

Iqtisodiyot sohasida amalga oshirilgan muhim islohotlar natijasida O‘zbekistonning eksport va import hajmi keskin oshdi. Yangi bozorlarga kirib borish imkoniyatlari va savdo geografiyasi kengaydi. Mahalliy mahsulotlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi ortdi. Xorijiy investorlar uchun qator imtiyozlar joriy etildi. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyati kengaytirildi. Jahonning yetakchi kompaniyalari va brendlari O‘zbekistonga kirib keldi. Yangi temiryo‘l va avtomobil yo‘llari qurildi. Xalqaro, mintaqaviy va mahalliy transport yo‘llari modernizatsiya qilindi. Markaziy Osiyodagi tranzit salohiyatini oshirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirildi. Turizm sanoatini rivojlantirishga katta e’tibor berildi, viza tartiblari soddalashtirildi, turizm infratuzilmasi yaxshilandi. Xorijiy sayyohlar oqimi keskin oshdi, valyuta tushumlari ko‘paydi. Bu esa O‘zbekistonning xalqaro nufuzini yanada oshirishga xizmat qildi. Ushbu islohotlar va ularning samarasi natijasida mamlakat yanada ochiq, bozor tamoyillariga asoslangan va xalqaro hamkorlikka intiluvchi davlatga aylandi.

YODDA TUTING!

2023-yilda O‘zbekistonning yalpi ichki mahsuloti ilk bor 100 milliard dollardan oshdi.

Xalqaro valyuta jamg‘armasi

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O‘zbekistonning Jahon savdo tashkiloti (JST)ga to‘liq a’zoligi oddiy odamlar hayotiga qanday ta’sir qiladi deb o‘ylaysiz?
2. Xitoy, Koreya yoki Turkiya kabi davlatlardan kelayotgan investitsiyalar hududingizdagi qaysi sohada foydali bo‘lishi mumkin deb hisoblaysiz?
3. O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lishi mamlakat iqtisodiyotiga qanday foyda keltiradi deb o‘ylaysiz?

t.me/rtm_metodik_xizmat

8-MAVZU IJTIMOIY SIYOSAT VA UNI AMALGA OSHIRISH BOSQICHLARI

BILIB OLASIZ

O‘zbekistonda ijtimoiy holat va demografiya.

Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi.

Sog‘liqni saqlash tizimining isloh qilinishi va zamonaviy tibbiyotning shakllanishi.

Aholini ish va uy-joy bilan ta’minlash siyosati.

O‘zbekistonda ijtimoiy holat va demografiya

Mustaqillik e’lon qilinishi mamlakatda ijtimoiy hayotni faollashtirish, aholi farovonligini oshirish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Sovet Ittifoqi davrida odamlarning turmush tarzi, eng muhimi, ularning jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi o‘ta past, tomorqa yerlari keskin kamayib ketgan edi. Millatning salomatligi hamda genofondiga salbiy ta’sirlarning kuchayishi, bolalar va onalar o‘limining avj olishi hamda o‘lkamizning ekologik nochor holati dolzarb muammolardan edi. Sovet Ittifoqi davrida O‘zbekiston aholisi o‘rta hisobda go‘sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlarini Ittifoq aholisiga nisbatan ikki barobar kam iste’mol qilardi. Bir millionga yaqin kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda o‘zining qo‘lidan keladigan ishni topa olmasdi.

Mustaqillikka erishish arafasida kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha O‘zbekiston Ittifoqdagi 15 respublika ichida 12-o‘rinda edi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan milliy daromad ishlab chiqarish bo‘yicha ko‘rsatkich esa o‘rtacha darajadan ikki hissa past bo‘lgan. Mustaqillik yillarida aholining turmush sharoiti yaxshilanib, farovonligi oshib bordi. Iqtisodiy ahvolning yaxshilanishi xarid qobiliyatining oshishiga hamda aholi demografiyasiga ta’sir ko‘rsatdi. O‘zbekistonda doimiy aholi soni o‘sib bordi. 1991–2016-yillarda O‘zbekiston aholisi taxminan 11,5 million kishiga ko‘paydi va 32 milliondan ortdi.

O‘tish davrida, ya’ni mustaqillikning dastlabki yillarida aholining ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlari – ko‘p bolali va moddiy ko‘mak hisobidan yashovchi oilalar qiyin ahvolga tushib qoldi. 1990-yillar oxirida O‘zbekiston byudjetida kamomad yuzaga keldi. Bu holat ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya sohalariga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

YODDA TUTING!

1991-yilda O‘zbekistonda aholi soni 20,6 million kishini tashkil etgan va ulardan katta qismining turmush farovonligi past darajada edi.

2024-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, O‘zbekistonning doimiy aholisi soni 37 million 134 ming 200 kishini tashkil etdi. Aholining 18 million 696 ming 700 nafari erkaklar, 18 million 437 ming 500 nafari ayollardir. Mamlakatda shahar aholisi 18,9 million, qishloq aholisi 18,2 million kishini tashkil etadi.

t.me/rtm_metodik_xizmat

O‘qituvchilarning oylik maoshi mamlakatdagi o‘rtacha daromadning taxminan 60–65 foizini tashkil qilardi. Pensiya va nafaqalarni moliyalashtirishda ham muammolar paydo bo‘ldi, chunki banklarda naqd pul yetarli emas edi. Bu muammolar 2000-yillargacha ham davom etdi va ijtimoiy hayotning turli sohalarida sezildi.

2022-yilga kelib, kam ta’minlangan oilalarni aniqlash va ularga aniq yordam ko‘rsatish maqsadida “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimi joriy etildi. Bu tizim orqali ehtiyojmand oilalar ro‘yxatga olinib, ularga manzilli yordam ko‘rsatish boshlandi.

2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Shuningdek, har bir tuman va shaharda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari ochildi. Bu markazlar mahalla darajasida yordamga muhtoj odamlarga turli xizmatlar – moddiy yordam, maslahat, huquqiy ko‘mak kabilarni ko‘rsatadi.

2024-yildan boshlab haftaning juma kuni “Mehr va saxovat kuni” deb belgilandi. Bu kuni odamlar bir-biriga yordamlashishi, mehr ko‘rsatishi, ehtiyojmandlarga ko‘mak berishi odat tusiga kirgan.

YODDA TUTING!

Yoshlar (yosh fuqarolar) – 14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar.

Yosh oila – erxotinning ikkisi ham 30 yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga yetkazayotgan 30 yoshdan oshmagan yolg‘iz otadan yoki yolg‘iz onadan iborat bo‘lgan oila, shu jumladan, nikohdan ajralgan, beva erkak (beva ayol).

IJODIY FAOLIYAT

1. Mustaqillikdan oldingi davrda aholining turmush sharoitini og‘irlashtiruvchi asosiy muammolar nimalardan iborat edi?
2. Mustaqillik yillarida aholining turmush sharoiti va ijtimoiy himoya tizimida qanday o‘zgarishlar amalga oshirildi va bu jarayonlar aholining demografik ko‘rsatkichlariga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
3. “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimi va “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari ijtimoiy muammolarni hal etishda qanday yangi imkoniyatlar yaratdi?

Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi

O‘zbekistonda mustaqillik e’lon qilinganidan so‘ng aholi turmush darajasini oshirish, inson manfaatlarini ta’minlash va uni har tomonlama rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar orqali ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga ega kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga harakat qilindi.

t.me/rtm_metodik_xizmat

YODDA TUTING!

Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish kafolatlari:

- *bepul tibbiy xizmat ko‘rsatilishi;*
- *bepul umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim olish;*
- *davlat ta’lim muassasalarida davlat grantlari doirasida bepul kasb-hunar va oliy ta’lim olish;*
- *davlat sport-sog‘lomlashtirish va madaniy-ma’rifiy muassasalariga borish uchun shart-sharoitlar yaratish va boshqalar.*

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq davlat ijtimoiy siyosatining asoslari shakllantirildi. O‘zbekistonda ijtimoiy siyosat ustuvor yo‘nalish hisoblanadi va u bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bu siyosatning o‘ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

- davlat ijtimoiy siyosatni boshqarish funksiyasiga ega;
- islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi;
- aholi turmush darajasining keskin tushib ketishiga yo‘l qo‘yilmaydi;
- mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish idoralari orqali manzilli yordam ko‘rsatiladi;
- islohotlarning iqtisodiy va huquqiy asoslari yaratiladi.

Aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishga qaratilgan siyosat natijasida ish haqi, pensiya va daromadlar o‘sa boshladi.

Yordamga muhtoj oilalarni ijtimoiy himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi va bu yo‘nalishda huquqiy asoslar yaratildi. Kambag‘allikni kamaytirish va yangi ish o‘rinlari yaratishda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor berildi. Shu maqsadda davlat tomonidan kredit va subsidiyalar ajratish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va rasmiy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratildi.



Mustaqilligimizning 33 yilligi arafasida Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining ochilishidan lavha

Yolg‘iz shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlik (YaTT) faoliyati rivojlantirildi. Biznesni boshlash uchun eng oddiy va qulay usul sifatida jismoniy shaxslar o‘z nomidan va mas’uliyatini o‘z zimmasiga olgan holda faoliyat yuritishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Bu yo‘nalishdagi byurokratik to‘siqlar bekor qilindi.

t.me/rtm_metodik_xizmat

Natijada so‘nggi yillarda O‘zbekistonda kambag‘allik darajasini 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirishga erishildi.

Ijtimoiy himoyani mahalla darajasida tashkil etish, og‘ir ahvolga tushib qolgan fuqarolarga individual yondashuv asosida yordam ko‘rsatish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Ijtimoiy muammolarni adolatli hal etishning mutlaqo yangi va o‘ziga xos tizimi yaratilib, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, “mahallabay” va “xonadonbay” ishlash usullari joriy etilgani bugun ijtimoiy masalalarni hal etishga xizmat qilmoqda.

IJODIY FAOLIYAT

1. “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” kabi tizimlarning ijtimoiy muammolarni hal etishdagi o‘rni va ahamiyatini qanday baholaysiz?
2. Yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish orqali odamlarning iqtisodiy faolligini oshirishdan qanday ijobiy natijalar kutish mumkin?
3. O‘zbekistonda ijtimoiy siyosat bosqichma-bosqich amalga oshirilishining qanday afzalliklari bor?

Sog‘liqni saqlash tizimining isloh qilinishi va zamonaviy tibbiyotning shakllanishi

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatda sog‘liqni saqlash tizimini rivojlangan davlatlardagi darajaga olib chiqish, aholi salomatligini yaxshilash va mavjud muammolarni bartaraf etish vazifasi yuzaga keldi. 1996-yilda “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Unda davlatning sog‘liqni saqlashga oid yangi yondashuvi belgilab berildi.

Tibbiyot muassasalarini xususiylashtirish ishlari boshlandi. 2001-yilda Sog‘liqni saqlash vazirligidan rasmiy ruxsat olgan xususiy tibbiyot muassasalari soni 1700 tani, shaxsiy tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar soni esa 4000 tani tashkil etgan.

Sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi sezilarli darajada oshdi. Masalan, 1990-yilda bu ko‘rsatkich 67 yosh atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 74 yoshga yaqinlashdi. 2025-yilda esa ayollar uchun 75 yosh, erkaklar uchun 72 yoshdan oshdi.

Bu ko‘rsatkichlar MDH davlatlaridagiga nisbatan ancha yuqori ekani qayd etilgan. Demak, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar aholi salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

t.me/rtm_metodik_xizmat

O‘tgan yillar davomida qishloq vrachlik punktlari, shahar va qishloq oilaviy poliklinikalari tashkil etildi. Bu orqali aholiga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish tizimi yaxshilandi va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaydi.

Shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish uchun yagona markazlashgan tizim yaratildi. Joylarda fuqarolarga zamonaviy texnologiyalar asosida xizmat ko‘rsatuvchi respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari faoliyati takomillashtirildi.

Aholining sog‘lig‘ini yaxshilash, onalik va bolalikni muhofaza qilish maqsadida O‘zbekistonda mustaqillikdan so‘ng bir qator milliy dasturlar amalga oshirildi. Bolalarda irsiy va tug‘ma kasalliklarni barvaqt aniqlash uchun respublika va hududiy skrining markazlari tashkil etildi.

Sog‘liqni saqlash sohasida to‘planib qolgan muammolar — zamonaviy amaliyotdan uzilish, xorijga davolanish uchun chiqish, profilaktika ishlarining sustligi, ta’lim va fan bilan yetarli bog‘lanishning yo‘qligi, elektron sog‘liqni saqlashda yagona standartlar mavjud emasligi tizimni rivojlantirishga to‘sqinlik qilgan.

Rossiya, Koreya, Germaniya, Turkiya, Hindiston, Italiya, Xitoy va Polsha kabi davlatlarning 22 ta universiteti bilan hamkorlikda kadrlar tayyorlash boshlandi.

O‘zbekistonda ilk bor kattalar gematologiya markazida donordan olingan suyak ko‘migi hujayralarini ko‘chirish, ya’ni allogen transplantatsiya amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. 2021-yilda gematologiya va bolalar onkologiyasi markazlari alohida muassasa sifatida tashkil etildi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

Biz ta’lim va tibbiyotga alohida e’tibor beryapmiz. Chunki odamlar bilimli bo‘lib, sog‘lom bo‘lsa, o‘z yo‘lini topadi.

Bu markaz ham shunday ishlardan biri. Bu loyihaga 1,2 trillion so‘m ajratib, “noldan” qurdik. Barcha onkologiya shifoxonalarini jihozlashga 80 million dollar yo‘naltirildi. Endigi asosiy vazifa xodimlarni o‘qitib olish, samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yishdir.

Shavkat Mirziyoyev



Respublika fa’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

Shoshilinch tibbiy yordam sohasida markazlashgan tizim yaratildi. Brigadalar soni 818 tadan 1666 tagacha ko‘paytirildi. 1500 dan ortiq tez yordam mashinasi xarid qilindi.

Joylarda allergologiya, onkologiya, nefrologiya kabi yo‘nalishlarda 16 ta ixtisoslashgan markaz tashkil etildi. 310 ta ixtisoslashgan bo‘lim va 14 ta respublika tibbiyot markazi filiali ochildi. Xususiy sektor ulushi oshdi, shifoxonalar soni 5300 tadan ortdi. Xorijiy hamkorlikda 100 dan ortiq zamonaviy xususiy klinika ish boshladi.



2024-yilning o‘zida bog‘cha va maktablar barpo qilish, tibbiy xizmatni kengaytirish, mahallalarda ichimlik suv, elektr energiyasi, yo‘l infratuzilmasini yaxshilash uchun byudjetdan 31,5 trillion so‘m ajratilgan.

Ayni paytda mamlakatda oliy tibbiy ta’lim muassasalari, ularning filiallari va xalqaro nufuzli tibbiy ilmiy markazlar bilan hamkorlikda 22 ta xalqaro fakultet ochildi.

Sohadagi ilg‘or texnologiyalar va xalqaro tajriba asosida aholiga yuqori sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari kengaymoqda.

Aholini ish va uy-joy bilan ta’minlash siyosati

Deyarli barcha mamlakatlarda aholini ish bilan ta’minlash muammosi muhim hisoblanadi. O‘zbekistonda ish o‘rinlari yaratish, yordamga muhtoj qatlamlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

2007-yildan boshlab tuman va shaharlarda Bandlikka ko‘maklashish markazlari tashkil qilindi. Ularning vazifasi aholi uchun turli mehnat shakllarini rivojlantirish, kasanachilik, dehqonchilik va boshqa sohalarda bandlikni rag‘batlantirish edi. Mahallalarda kichik korxonalar, sartaroshxonalar, do‘konlar ochilib, ayniqsa, yoshlar va yordamga muhtoj oilalar uchun qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratildi.

IJODIY FAOLIYAT

1. Sog‘liqni saqlash sohasida uzoq yillardan buyon saqlanib kelayotgan muammolar haqida fikr bildiring.
2. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida aholi sonining o‘sib borishini infografika asosida tasvirlang.
3. Mahallangizda yoshlar bandligini ta’minlash borasida qanday amaliy ishlar bajariladi?

t.me/rtm_metodik_xizmat

Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida yuz minglab odamlar kredit olib, biznes boshladi, minglab yangi korxonalar ochildi. Qishloqlarda 2009–2016-yillarda 70 mingdan ortiq namunaviy uy-joy qurildi. 2017-yilda esa 800 ming kvadrat metrdan ziyod uy foydalanishga topshirildi.

2021-yilda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus qaror qabul qilindi. Unda ayollarning ta’lim olishi, ish bilan band bo‘lishi, tadbirkorlikni rivojlantirishini qo‘llash, “Ayollar daftari” orqali muammolarini hal qilish vazifalari belgilandi.

Bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlarda “Yangi O‘zbekiston” massivlari barpo etilmoqda. Bu yangi turarjoylar, ijtimoiy obyektlar va infratuzilma aholining farovon hayot kechirishi uchun yaratilmoqda.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O‘zbekistonda aholini ish bilan ta’minlash uchun qanday choralar ko‘rilgan?
2. “Yangi O‘zbekiston” massivlari va oilaviy tadbirkorlik dasturlari aholi turmush darajasini oshirishda qanday ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda?
3. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash siyosati bandlik va uy-joy masalalarida qanday natijalar berdi, bu islohotlar kelajakda qanday imkoniyatlar yaratadi deb o‘ylaysiz?

2024-yili yurtimizda jami 40 million kvadrat metrdan ziyod bino-inshootlar qurilgan. Jumladan, 100 mingdan ziyod xonadonga ega 2 044 ta ko‘p qavatli uy bunyod etilgan.



t.me/rtm_metodik_xizmat

9-MAVZU MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK

BILIB OLASIZ

Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik.
Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik.

Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik

O‘zbekiston – ko‘p millatli mamlakat. Bu yerda turli millat va elat vakillari birgalikda yashaydi. Ularning manfaatlarini uyg‘unlashtirish, o‘zaro hurmat va totuvlikni ta’minlash mamlakat taraqqiyoti uchun juda muhim.

Millatlararo totuvlik g‘oyasi O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlangan. Ming yillar davomida mintaqamizda turli xalqlar tinch-totuv yashab kelgan. Bugun ham bu an’ana davom etmoqda.

Har bir millatning urf-odatlari, tili va madaniyati qadrlanadi. Shu maqsadda O‘zbekistonda milliy-madaniy markazlar tashkil etilgan. Ular turli millat vakillarining madaniy merosini saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Har birining o‘z qadriyatlari bor, lekin umumiy manfaatlar atrofida birlashib, tinchlikda yashash hammaga foyda keltiradi.

1992-yilda Respublika Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilgan. Dastlab 10 ta milliy-madaniy markaz faoliyat yuritgan bo‘lsa, keyingi yillarda ularning soni ortib borgan. Bugungi kunda 150 dan ortiq shunday markazlar mavjud.

O‘zbekiston hukumati turli millat va elat vakillarining tili, urf-odatlari va an’analarini asrab-avaylashga katta e’tibor qaratmoqda. Shu maqsadda “Yagona oilada” jurnali chop etiladi. Unda ruslarning “Maslennitsa”, tatar va boshqirdlarning “Sabanto‘y”, uyg‘urlarning “Sayil”, xitoylarning “Chunjie”, koreyslarning “Soller” va “Ovol-tano” bayramlari haqida ma’lumotlar beriladi.

Har yili “Biz – yagona oila farzandlarimiz”, “Vatan yagonadir, Vatan bittadir”, “O‘zbekiston – umumiy uyimiz” kabi shiorlar ostida festivallar o‘tkaziladi. Bu tadbirlar turli millat vakillarini birlashtiradi va o‘zaro hurmatni mustahkamlaydi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqandda Hadis ilmi va Kalom ilmi, Qashqadaryoda Aqida ilmi, Buxoroda Bahouddin Naqshband tasavvuf ilmi hamda Islom huquqi maktablari tashkil etildi. Toshkent islom universiteti negizida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

O‘zbekistonda gazetalar bir necha tilda – o‘zbek, rus, qoraqalpoq, tojik, qozoq, turkman, ingliz va koreys tillarida nashr etiladi. Radioeshittirishlar ham turli tillarda uzatiladi, bu esa har bir millatning axborotga ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

2025-yilga kelib, yangi do‘stlik jamiyatlari tashkil etildi. Masalan, “O‘zbekiston – Belarus”, “O‘zbekiston – Ispaniya”, “O‘zbekiston – Kanada” kabi jamiyatlar orqali xalqaro madaniy aloqalar mustahkamlanmoqda. Bugungi kunda bunday jamiyatlar soni 40 dan oshgan.

Turli millat va elatlarning madaniyatini rivojlantirish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida “Do‘stlik uylari” tashkil etilgan. Bu joylarda milliy madaniy markazlar faoliyat yuritadi va davlat tomonidan moddiy qo‘llab-quvvatlanadi.

Mamlakatimizda tinchlik va barqarorlik ta'minlanishidan turli diniy konfessiya vakillari ham manfaatdor. 2006-yilda O‘zbekiston Milliy universitetida tarix fanlari doktori, professor Rahbarxon Murtazayeva tashabbusi bilan Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik ilmiy markazi tashkil etilgan. Bu markaz turli millatlarning tarixi, urf-odatlari va boshqa xalqlar bilan aloqalari bo‘yicha tadqiqotlar olib boradi.

YODDA TUTING!

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasi

IJODIY FAOLIYAT

1. Milliy madaniy markazlarning tashkil etilishi turli millat vakillari hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
2. Nega millatlararo totuvlik mamlakat taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi?
3. O‘zbekistonda yashayotgan turli millatlarning umumiy manfaatlar asosida birlashishi qanday ijobiy natijalarga olib keladi?

Respublika ta’lim markazi

O‘ZBEKISTON AHOLISINING ETNIK TARKIBI
(foizlarda)



t.me/rtm_metodik_xizmat

Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik

1990-yilda O‘zbekiston musulmonlari uchun muhim voqea yuz berdi: ular haj ziyoratini amalga oshirish imkoniga ega bo‘ldilar. Ramazon va Qurbon hayitlari rasmiy bayram va damolish kuni sifatida e’lon qilindi. 1992-yilda esa Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tashkil etildi.

Sovet davrida qarovsiz qolgan ko‘plab masjidlar ta’mirlanib, yana ibodatxona sifatida foydalanila boshladi. Yangi masjidlar ham qurildi. Bu ishlar diniy e’tiqodga hurmat va uning jamiyatdagi ahamiyatini tan olish asosida amalga oshirildi.

Islom dinining muqaddas kitobi – Qur’oni karim o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Shuningdek, Imom Buxoriy va Imom Termiziyning hadis to‘plamlari ham o‘zbek tilida chop etildi. Bu asarlar yoshlar va keng jamoatchilik uchun diniy bilimlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda qator diniy ta’lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Buxorodagi Mir Arab madrasasi, Termizdagi Imom Termiziy nomidagi islom instituti, Hadis ilmi maktabi, xotin-qizlar uchun maxsus o‘quv yurtlari, shuningdek, Toshkentdagi pravoslav va xristian seminariyalari shular jumlasidandir.

2017-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasini ilgari surdi. Bu hujjat ta’lim huquqini ta’minlash, savodsizlikka qarshi kurashish, diniy erkinlikni himoya qilish va e’tiqod qiluvchilarning huquqlarini himoyalashga qaratilgan. 2018-yilda bu rezolyutsiya BMTga a’zo barcha davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, yakdillik bilan qabul qilindi.

Shu yili O'zbekiston islom akademiyasi negizida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi. 2025-yildan u O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi deb nomlandi. Shuningdek, “Ziyo” media markazi va “Vaqf” xayriya fondi tashkil etildi. Bu muassasalar diniy-ma’rifiy ishlarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda muqaddas islom dinimizning insonparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etish, “Jaholatga qarshi – ma’rifat” tamoyili asosida unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni sog‘lom e’tiqod ruhida tarbiyalashga ahamiyat qaratilmoqda.

YODDA TUTING!

1995-yil 16-noyabrda YUNESKO Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi qabul qilingan.

Har yili 16-noyabr butun dunyoda **Xalqaro bag‘rikenglik kuni** *sifatida nishonlab kelinadi.*

YODDA TUTING!

Musulmon olami turli millat va din vakillari bir-birini hurmat qilib, qadrlab va qo‘llab-quvvatlab yashayotgan O‘zbekistondan ibrat olib, bag‘rikenglik muhitini yaratishi zarur.

Shimoliy Amerika musulmonlari jamiyatining taniqli arboblaridan biri imom Muhammad Majid

t.me/rtm_metodik_xizmat

YODDA TUTING!

2025-yili Samarqand shahrida o'tkazilgan "Islom dunyosining ma'naviy merosi va madaniy ifodalari: xattotlik, musiqa, she'riyat va hamjihatlik" mavzusidagi xalqaro forumda Samarqandga Islom madaniyati poytaxti maqomi berilgani haqidagi ramziy bayroq va statuetka tantanali topshirildi.

Masjidlarning umumiy soni 2066 taga yetdi. 2019-yildan e'tiboran O'zbekiston fuqarolari uchun Umra ziyoratchilarining sonini belgilash bo'yicha cheklovlar olib tashlandi. 2020-yilda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Markaz mutafakkir olim, moturidiylik ta'limoti asoschisi Imom Abu Mansur Moturidiy va uning izdoshlari merosini chuqur o'rganish, ularning aqida va kalom ilmi rivojiga qo'shgan hissasini tadqiq etish va keng targ'ib qilish, yoshlarning ma'rifiy qarashlarga yot zararli ta'sirlarga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish maqsadlarini ko'zlaydi.

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan yurtimiz allomalariga hurmat ramzi sifatida Toshkent shahrida "Imom Termiziy", "Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf", "Suzuk ota" masjid-majmualari, Namanganda Sulton Uvays Qaraniy ziyoratgohi, Buxoroda Bahouddin Naqshband va yetti pir ziyoratgohlari, Sherobodda Imom Termiziy ziyoratgohi, Urganchda "Oxun bobo" masjidi, Xivada Pahlavon Mahmud ziyoratgohi, Nukusda "Imom eshon Muhammad" masjidi va yana ko'plab tabarruk manzillarda keng ko'lamli qurilish-ta'mirlash ishlari bajarildi. Qisqa muddatda bu maskanlar g'oyat go'zal va ulug'vor qiyofa kasb etdi. Ayniqsa, bundan ming yil oldin diniy e'tiqod masalasida yozgan asarlari bilan adashganlarga to'g'ri yo'l ko'rsatgan Abu Muin Nasafiy bobomizning ziyoratgohi tubdan ta'mirlanib, har tomonlama obod qilindi. Buyuk allomaning "Tabsiratul adilla" nomli kitobi o'zbek tilida nashr etildi. Bu asar bilan tanishgan odam turli soxta va zararli oqimlarning mohiyatini anglab yetadi.

Respublika ta'lim markazi

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. 1990-yilda musulmonlar uchun haj ibodati imkoniyati berilishi, Ramazon va Qurbon hayitlarining rasmiy bayram sifatida e'lon qilinishi jamiyat hayotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
2. Sovet davrida qarovsiz qolgan masjidlarning ta'mirlanishi va yangilarining qurilishi qanday ijtimoiy-ma'naviy vazifani bajaradi?
3. Prezident tashabbusi bilan qurilgan va ta'mirlangan masjid-majmualar, ziyoratgohlar milliy va diniy qadriyatlarni asrashda qanday o'rin tutadi?





t.me/rtm_metodik_xizmat

3-BOB

TA’LIM VA ILM-FAN



- **1992**-yil **2**-iyulda ilk bor “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.
- **1992**-yilda Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tashkil etildi.
- **1992**-yilda O‘zbekistondagi 6 ta oliy ta’lim muassasasida test sinovi asosida o‘qishga qabul qilish tajriba tariqasida yo‘lga qo‘yildi.
- **1994**-yilda Davlat test markazi tashkil etildi.
- **1994**-yilda O‘zbekiston FIFA (Xalqaro Futbol Assotsiatsiyalari Federatsiyasi)ga a’zo bo‘ldi.
- **2023**-yilda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tashkil etildi.
- **2025**-yili tarixda ilk bor O‘zbekiston milliy terma jamoasi futbol bo‘yicha Jahon chempionatiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi.







t.me/rtm_metodik_xizmat

10-MAVZU TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

BILIB OLASIZ

Maktabgacha ta’lim tizimining takomillashuvi.
Maktab ta’limi tizimida amalga oshirilgan islohotlar.
Oliy ta’lim tizimining takomillashuvi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi.

Shavkat Mirziyoyev

Maktabgacha ta’lim tizimining takomillashuvi

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ta’lim tizimini tubdan isloh qilish muhim masalaga aylandi. Shu maqsadda bosqichma-bosqich huquqiy asoslar yaratildi. 1992-yil 2-iyulda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Bu qonunga ko‘ra, ta’lim siyosati xalqning tarixiy tajribasi, madaniyati, ilm-fani va umuminsoniy qadriyatlar asosida yuritilishi belgilandi.

So‘nggi yillarda maktabgacha ta’limga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2017-yildan boshlab bu sohani takomillashtirish uchun yangi huquqiy asoslar ishlab chiqildi. Bu hujjatlar maktabgacha ta’lim muassasalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Uzoq yillardan beri mavjud muammolarni bosqichma-bosqich hal qilish jarayoni boshlandi. Eng katta muammo bog‘chalar sonining yetarli emasligi edi.

Bu muammoni hal qilish uchun yangi tarmoq – xususiy sektor faoliyati kengaytirildi. 2019-yilda kichik yoshdagi bolalarni bog‘chalarga qamrab olish darajasi sezilarli oshdi. Bog‘chalar soni ham ko‘paydi, bu esa tizimning rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida davlat, nodavlat va davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan muassasalar faoliyat yuritmoqda. Nodavlat muassasalar doirasida oilaviy bog‘chalar tashkil etishga ham ruxsat berilgan. Bu ikki jihatdan foydali: bolalarni bog‘cha bilan qamrab olish kengayadi va yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat bog‘chalar sonini oshirish va ularning xizmat turlarini kengaytirish uchun mustahkam asos bo‘ldi.

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

2023-yilda O‘zbekistonda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tashkil etildi. Bu yangi vazirlik ta’lim tizimini yaxshilash va muvofiqlashtirishga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi.

2024-yilda maktabgacha ta’lim sohasida sezilarli o‘sish kuzatildi. Mamlakat bo‘ylab minglab yangi bog‘chalar qurildi va ularda 100 minglab qo‘shimcha o‘rinlar yaratildi. Bu orqali bolalarni bog‘chalarga qamrab olish darajasi oshdi. 2023-yilda bu ko‘rsatkich 74 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 76 foizga yetdi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida ishlayotgan xodimlar orasida oliy ma’lumotga ega bo‘lganlar soni ham ortdi. Bu ko‘rsatkich 34,6 foizga yetkazildi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

YODDA TUTING!

2020-yildan matematika, kimyo, biologiya, axborot tizimlari va informatika fanlari bo‘yicha milliy test tizimini joriy etish boshlandi.





Maktab ta’limi tizimida amalga oshirilgan islohotlar

Xalqaro tajribani muntazam o‘rganib borish va ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida 1997-yil 29-avgustda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Unga ko‘ra, islohotlar quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi belgilandi: birinchi bosqich 1997–2001-yillar, ikkinchi bosqich 2001–2005-yillar hamda uchinchi bosqich 2005-yil va undan keyingi yillarni qamrab oladi.

Mazkur islohotlar asosida 9+3 majburiy ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yildi. Unga ko‘ra, 9 yil maktabda ta’lim olib, keyin o‘quv faoliyatini kasb-hunar kollejlari yoki akademik litseylarda davom ettirish mumkin bo‘ldi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonining o‘sib borishi



Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

YODDA TUTING!

2025-yilda O‘zbekistondagi 23 ta oliy ta’lim muassasasi QS (Quacquarelli Symonds) xalqaro reytingining Markaziy Osiyodagi eng yetakchi universitetlar ro‘yxatidan o‘rin oldi.

Zamonaviy ta’lim talablariga mos ravishda O‘zbekistonda 12 yillik ta’lim tizimini takomillashtirish zarur bo‘ldi. Ayniqsa, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining ish bilan ta’minlanishida yuzaga kelgan muammolar bu sohani tubdan isloh qilishni talab etdi. Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etdi.

2017-yil umumta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida islohotlar yili bo‘ldi. Maktab bitiruvchilari va ularning ota-onalari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar, shuningdek, kelib tushgan takliflar asosida Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 9+3 shaklidagi majburiy ta’limdan to‘liq 11 yillik ta’lim tizimiga o‘tildi. Bu o‘zgarishlar ta’lim sifatini oshirish, yoshlarni zamonaviy bilim va kasblarga tayyorlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda yangi turdagi ta’lim muassasalari tashkil etildi. Ulug‘ allomalarimiz – Mirzo Ulug‘bek va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablar, Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Ogahiy, Is’hoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf va Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktablari faoliyat boshladi.

Shuningdek, “Temurbeklar maktabi” kabi zamonaviy va namunaviy harbiy ta’lim dargohlari tashkil etildi. Bu maktablar iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni qo‘llab-quvvatlash va yetuk mutaxassislar sifatida tarbiyalashga qaratilgan.

2019-yil 20-fevralda Prezident maktablarini tashkil etish bo‘yicha qaror qabul qilindi. Dastlab Toshkent, Namangan, Xiva va Nukus shaharlarida ushbu maktablar ochildi. 4-sinfni tugatgan o‘quvchilar mantiqiy fikrlash testlari, yozma imtihon va suhbat asosida tanlab olindi. Maktablar avval cheklangan miqdorda tashkil etildi, chunki ularni boshqarish uchun yangi modelni sinab ko‘rish zarur edi.

Keyinchalik 2020–2021-yillarda Prezident maktablari O‘zbekistonning barcha hududlarida tashkil etildi. Shu bilan birga, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari soni ham oshdi. Ixtisoslashtirilgan maktablarda aniq va tabiiy fanlar bilan birga O‘zbekiston tarixi chuqurlashtirib o‘qitiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt, robototexnika, agrotexnologiya, biotexnologiya kabi yo‘nalishlar bo‘yicha qo‘shimcha kurslar tashkil etildi. Chet tillar bo‘yicha IELTS, TOEFL va SAT imtihonlariga tayyorlov mashg‘ulotlari ham yo‘lga qo‘yildi.

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

Iqtidorli yoshlarning bilimini amaliyotda qo'llay olishiga imkon yaratish maqsadida maktablar zamonaviy laboratoriya jihozlari va kimyoviy reagentlar bilan ta'minlandi. Fizika, kimyo va biologiya fanlari uchun maxsus jihozlar olib kelindi.

2019-yildan boshlab xususiy maktablar tashkil etish va davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan foydalanish kengaydi. Soliq imtiyozlari berilishi bu jarayonni tezlashtirdi. 2018/2019-o'quv yilida xususiy maktablarda o'qiyotgan o'quvchilar soni 13 mingdan ortgan bo'lsa, 2024/2025-o'quv yilida bu ko'rsatkich yanada oshdi.

IJODIY FAOLIYAT

1. Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning boshqa maktablardan farqi nimada?
2. Sizningcha, sun'iy intellekt, robototexnika, chet tillar kabi qo'shimcha kurslarning yoshlar kelajagidagi o'rni qanday bo'ladi?

Oliy ta'lim tizimining takomillashuvi

Mamlakat taraqqiyoti har doim bilimli va yetuk kadrlarga bog'liq bo'lgan. Shu sababli oliy ta'lim tizimi ta'limning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. 1992-yilda O'zbekistondagi 6 ta oliy ta'lim muassasasida test sinovi asosida o'qishga qabul qilish tajriba tariqasida yo'lga qo'yildi. 1993-yilda esa 46 ta oliy ta'lim muassasasining bir qismida test sinovlari o'tkazildi. 1994-yilda Davlat test markazi tashkil etilib, oliy ta'limga test asosida qabul qilish amaliyoti rasman joriy etildi.

O'zbekistondagi OTMlar soni



Respublika ta'lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat



2016-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Natijada 2016-yilda 9 foizga yaqin bitiruvchi oliy ta’lim bosqichida o‘qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘lgan bo‘lsa, keyingi yillarda bu ko‘rsatkich muntazam oshib bordi. Xususan, 2019-yilda oliy ta’limga qabul parametrlari 2016-yilga nisbatan 2,5 barobar o‘sdi. 2025-yilda esa oliy ta’lim muassasalari soni 202 taga yetdi.

Oliy ta’lim muassasalari, ularning filiallari, shuningdek, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etildi. Xususiy oliy ta’lim muassasalarini ochishga keng imkoniyatlar yaratildi.

YODDA TUTING!

Times Higher Education (THE) Impact Rankings natijalariga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekistondagi 53 ta oliy ta’lim muassasasi global reytingga kiritildi va ulardan 7 tasi eng ilg‘or 1000 talikdan joy oldi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida 2 yillik magistratura bosqichi mavjud bo‘lib, bu bosqichda turli mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlanadi. Magistratura bitiruvchilari oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchi, ilmiy-tadqiqot institutlarida ilmiy xodim yoki boshqa tashkilotlarda mutaxassis sifatida faoliyat yuritish imkoniga ega bo‘ladi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda “ikki diplomli tizim”ni joriy etish belgilangan. Bu tizim kamida 50 ta qo‘shma ta’lim dasturi asosida amalga oshiriladi. Maqsad O‘zbekiston talabalarining xalqaro darajadagi bilim va diplomga ega bo‘lishlarini ta’minlashdir.

Shuningdek, O‘zbekistondagi 10 ta oliy ta’lim muassasasini dunyoning eng nufuzli 1000 ta universiteti ro‘yxatiga kiritish rejalashtirilgan. Bu orqali mamlakatda ta’lim sifati oshiriladi, ilmiy salohiyat kuchaytiriladi va xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlar tayyorlanadi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Oliy ta’lim tizimida 2016-yildan keyin boshlangan islohotlar yoshlarning kelajakdagi kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini qanday o‘zgartirdi?
2. Xorijiy universitetlar va xususiy oliy ta’lim muassasalarining ochilishi talabalarga qanday imkoniyatlar beradi?
3. Sizningcha, “ikki diplomli tizim”ning yoshlar uchun eng katta foydasi nimada?

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

11-MAVZU ILM-FANDA ERISHILGAN YUTUQLAR

BILIBOLASIZ

Ilm-fan sohasidagi islohotlar.
Ilm-fan sohasidagi xalqaro aloqalar.

Ilm-fan sohasidagi islohotlar

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi (O‘zRFA) mamlakatdagi eng yirik va muhim ilmiy tashkilot hisoblanadi. Akademiyada turli ilmiy yo‘nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlar olib boriladi. 1991-yilda Fanlar akademiyasi qayta tashkil etildi. 1991–2016-yillarda akademiya olimlari qishloq xo‘jaligi, paxtachilik, bog‘dorchilik, biotexnologiya, nanotexnologiya, ijtimoiy fanlar, tabiiy va aniq fanlar sohalarida muhim ilmiy yutuqlarga erishdi. Jumladan, paxtaning turli iqlim sharoitlariga mos, yuqori hosildor navlari yaratildi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

Shuningdek, o‘zbek davlatchiligi, madaniyati, san’ati va ijtimoiy hayoti bo‘yicha fundamental tadqiqotlar olib borildi. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (6 jildli), “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”, “Ruscha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-ruscha lug‘atlar”, “Alisher Navoiy ensiklopediyasi” hamda o‘zbek va qoraqalpoq folklori to‘plamlari nashr qilindi.



O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

1997-yilda Xorazm Ma’mun Akademiyasi o‘z faoliyatini boshladi. U o‘tgan ming yillik tarixiy merosni zamonaviy ilm bilan uyg‘unlashtirib, yosh avlodni ilm-fanga, tafakkurga va izlanishga chorlaydi.

2017-yil sentyabr oyida Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Islom hamkorlik tashkilotining ilm-fan va texnologiyalar bo‘yicha birinchi Sammitida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev xalqaro matematika olimpiadasini o‘tkazish tashabbusini ilgari surgan edi. Unga ko‘ra 2018-yil ilk bor Urganchda talabalar o‘rtasida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika olimpiadasi o‘tkazildi.

t.me/rtm_metodik_xizmat



Maydanak observatoriyasi Fanlar akademiyasining faxri bo‘lib, hozir noyob astroiqlimi bilan jahonning eng yetakchi beshta observatoriyalaridan biri hisoblanadi. Shimoliy yarimsharning eng yaxshi observatoriyasi sifatida bu yerda 80 dan ortiq asteroid, to‘rtta kometa va yangi kichik sayyora kashf etilgan.

O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLAR UYUSHMASI

olima

2025-yil holatiga ko‘ra, Fanlar akademiyasi tarkibida 30 dan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasasi faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston tarixi Davlat muzeyi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi va Temuriylar tarixi davlat muzeyi shular jumlasidan. Ushbu muzeylarda ham ilmiy-tadqiqot ishlari olib boriladi.

1992-yilda Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tashkil etildi. U fan, ta’lim va madaniyat yo‘nalishlarida ilmiy va ilmiy-pedagog xodimlarga ilmiy daraja hamda unvonlar beruvchi davlat organidir.

2007-yilda Maydanak rasadxonasida O‘zbekiston tarixida ilk bor Quyosh tizimidagi yangi kichik sayyora aniqlandi. Keyinchalik ushbu sayyoraga “Samarqand” deb nom berildi.

Fizika sohasida dunyoda birinchi marta quyosh energiyasidan foydalanib, 110–150 Kelvin darajada o‘ta o‘tkazuvchanlik holatiga o‘tadigan mustahkam materiallar yaratildi.

1992-yilda ayollarning ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Olima” uyushmasi tashkil etildi. “Olima” uyushmasi Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, 100 ga yaqin oliy o‘quv yurtlari va Fanlar akademiyasi institutlaridagi olima ayollarni birlashtirib, ilm-fan sohasida davlat siyosatini xotin-qizlar o‘rtasida targ‘ib etishga xizmat qilmoqda.

YUNESKO Statistika institutining 2020-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda ilm-fan bilan shug‘ullanayotgan olimalar ulushi 30 foizni tashkil etadi. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich

YODDA TUTING!

2017-yilda 22 yillik uzoq tanaffusdan so‘ng Fanlar akademiyasining 32 nafar, 2023-yilda esa 16 nafar yangi haqiqiy a’zosi tasdiqlandi.

IJODIY FAOLIYAT

1. Yangi aniqlangan kichik sayyoraga “Samarqand” nomi qo‘yilishi nimani anglatadi?
2. Nega O‘zbekistonda ilm-fan bilan shug‘ullanayotgan ayollar ulushi dunyodagiga qaraganda ko‘proq?

t.me/rtm_metodik_xizmat

39 foizga yetgan. Masalan, taniqli mikrobiolog olimamiz Dilfuza Egamberdiyeva sho'rlangan tuproqda serhosil ekinlar yetishtirish bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlari uchun YUNESKO-ning nufuzli Karlos Finley xalqaro mukofotiga sazovor bo'ldi.

2016-yildan boshlab O'zbekistonda ilmiy faoliyat yangi bosqichga ko'tarildi. Davlat rahbarining tashabbusiga ko'ra, mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotiga foyda keltiradigan ilmiy tadqiqotlar yo'lga qo'yildi.

Toshkent shahrida Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari parki ochildi. Shu bilan birga, Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etilib, keyinchalik Innovatsion rivojlanish agentligiga aylantirildi. Bu agentlik "Bo'lajak olim", "Olima ayollar", "Akademik harakatchanlik" kabi tanlovlarni yo'lga qo'ydi hamda turli ilmiy loyihalarni qo'llab-quvvatlamoqda.

Ilm-fan sohasidagi xalqaro aloqalar

O'zbekiston xalqaro reytinglarda o'z o'rnini yaxshilab bormoqda. Mamlakat olimlari YUNESKO, MAGATE kabi tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Shuningdek, Rossiya, Xitoy, AQSH va boshqa davlatlar bilan ilmiy aloqalar yo'lga qo'yilgan.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan 2018-yilda "El-yurt umidi" jamg'armasi tashkil etildi. Ushbu jamg'arma chet ellarda faoliyat ko'rsatayotgan salohiyatli olimlar, mutaxassislar va ekspertlarni O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarga faol jalb etish tadbirlarini, shuningdek, iqtidorli yoshlarning rivojlangan mamlakatlarda ta'lim olish, yetakchi xalqaro institutlar hamda xorijiy tashkilotlarda malaka oshirish ishlarini tashkil etmoqda.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. "El-yurt umidi" jamg'armasi qanday ahamiyatga ega? U kimning tashabbusi asosida amalga oshirilgan?
2. O'zbekiston ilm-fan sohasida ayollarning faol ishtiroki ortib borayotgani mamlakatning innovatsion va intellektual salohiyatiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda, deb o'ylaysiz?
3. Internet ma'lumotlari asosida mustaqillik yillarida faoliyat yuritgan tarix fani akademiklari ro'yxatini tuzing.

YODDA TUTING!

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2015-yil 22-dekabrda qabul qilingan "Taraqqiyot maqsadlaridagi fan, texnika va innovatsiyalar to'g'risida"gi rezolyutsiyada 11-fevral – Xalqaro ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar kuni deb e'lon qilingan. Ushbu sana 2016-yildan butun dunyoda keng nishonlab kelinmoqda.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

Hozirgi vaqtda 6 ming 200 dan ortiq xotin-qizlar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgani, ilmiy ishlanmalarning 25 foizini olima ayollarimiz yaratayotgani ham, jamiyatda ularning o'rni mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Ularning orasida xalqaro darajada e'tirof etilayotgan ilm-fan vakillarining borligi barchamizga cheksiz faxr-iftixor bag'ishlaydi, yoshlarimizni yangi-yangi yutuqlarga undaydi.

Shavkat Mirziyoyev

t.me/rtm_metodik_xizmat

12-MAVZU JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING RIVOJLANISHI

BILIB OLASIZ

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi islohotlar.

O‘zbek sportchilarining olimpiada o‘yinlaridagi ishtiroki.

Milliy paralimpiya.

Boks. Kurash. Futbol.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi islohotlar

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab sportni rivojlantirishga katta e’tibor berildi. Shu maqsadda sportni qo‘llab-quvvatlovchi tashkilotlar tuzildi va xalqaro maydonga chiqish uchun imkoniyatlar yaratildi. O‘zbekiston 1994-yilda FIFAga a’zo bo‘ldi va shu yil futbol bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi yozgi Osiyo o‘yinlarida chempionlikni qo‘lga kiritdi.

2000-yillardan boshlab o‘quvchilar va talabalar uchun turli sport musobaqalari muntazam o‘tkazila boshladi. “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” musobaqalari yoshlar orasida sportni keng yoyishga xizmat qildi. Ko‘plab iqtidorli sportchilar yetishib chiqib, xalqaro maydonda ham yutuqlarga erishildi.

Shuningdek, milliy sport turlarini rivojlantirishga ham katta e’tibor qaratildi. Respublika musobaqalarida kurash, poyga, ko‘pkari (uloq), arqon tortish, bilak kuchini sinash kabi xalq o‘yinlari alohida o‘rin egallaydi. Maktablarda esa “Alpomish” va “Barchinoy” sport bellashuvlari o‘tkazildi.

Ayollar sportini rivojlantirish ham davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Ular uchun maxsus musobaqalar tashkil etilishi, qizlarning sportga qiziqishi ortishiga xizmat qildi. Shuningdek, sportning shaxmat va shashka turi ham mamlakatimizda ommalashdi. Yosh shaxmatchilar xalqaro musobaqalarda yirik g‘alabalarga erishib, O‘zbekiston nomini dunyoga tanitmoqda. Jumladan, shaxmatchimiz Nodirbek Abdusattorov 2021-yili Varshava (Polsha)da o‘tkazilgan tezkor shaxmat bo‘yicha jahon chempionatida g‘olib bo‘ldi. Bugungi kunda mamlakatimizda bir qator shaxmatchilar xalqaro grossmeyster unvoniga sazovor bo‘lib, ular orasida Rustam Qosimjonov, Jahongir Vohidov, Nodirbek Yoqubboyev,

YODDA TUTING!

- *2004-yil 13-iyulda shaxmat bo‘yicha xalqaro grossmeyster Rustam Qosimjonov Liviyaning Tripoli shahrida o‘tkazilgan jahon chempionatida g‘alaba qozonib, bosh sovrinni qo‘lga kiritdi.*
- *Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi 2022-yilda Hindistonning Chennay shahrida o‘tkazilgan 44-jahon shaxmat olimpiadasida Niderlandiya jamoasini mag‘lubiyatga uchratib, birinchi o‘rinni egalladi.*

t.me/rtm_metodik_xizmat

Nodirbek Abdusattorov, Javohir Sindarov, Shamsiddin Vohidov, Muhiddin Madaminov, Abdumalik Abdusalimov va Ortiq Nig‘matov alohida o‘rin tutadi. Ushbu sportchilar o‘z muvaffaqiyatlari bilan nafaqat respublika, balki jahon miqyosida ham O‘zbekiston shaxmat maktabining nufuzini oshirishga katta hissa qo‘shib kelmoqda.

Nafisa Mo‘minova Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. U shaxmat bilan 9 yoshidan shug‘ullana boshlagan.

U ko‘plab xalqaro musobaqalarda qatnashgan va 2008-yilgi Osiyo chempionatida kumush medalni qo‘lga kiritgan. 2013-yilda Nafisa Mo‘minova O‘zbekiston tarixida birinchi bo‘lib ayollar o‘rtasida xalqaro grossmeyster unvonini olgan.

U bir necha bor shaxmat bo‘yicha xalqaro olimpiadalarda O‘zbekiston terma jamoasi safida ishtirok etgan. Nafisa nafaqat sportchi, balki murabbiy hamdir.



Nafisa Mo‘minova



Muhammadqodir Abdullayev

O‘zbek sportchilarining olimpiada o‘yinlaridagi ishtiroki

O‘zbekistonlik sportchilar ilk bor qatnashgan 1994-yilgi qishki Olimpiada o‘yinlarida Lina Cheryazova oltin medalni qo‘lga kiritdi.



Milliy Olimpiya qo‘mitasi

IJODIY FAOLIYAT

1. “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” musobaqalarining ahamiyati nimada deb o‘ylaysiz?
2. Milliy sport turlari (kurash, ko‘pkari, arqon tortish va boshqalar)ga berilayotgan e’tibor madaniy taraqqiyotda qanday ahamiyatga ega?
3. Nodirbek Abdusattorov kabi yoshlar erishgan yutuqlar tengdoshlarini qanday ruhlantirishi mumkin?



Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat



Parij – 2024 Olimpiadasi sovrindorlari

Bu mamlakatimiz tarixidagi birinchi olimpiada oltin medali edi. Keyinchalik sportchilarimiz yozgi Olimpiadada ham ishtirok etib, dzyudo va boks bo'yicha ilk medallarga erishdilar.

Sidney (Avstraliya) Olimpiadasida bokschimiz Muhammadqodir Abdullayev oltin medal oldi. Sport sohasiga qaratilgan e'tibor tufayli yillar o'tishi bilan natijalar yanada yaxshilandi. Rio de Janeyro (Braziliya) Olimpiadasida sportchilarimiz umumiy hisobda o'nlab medalni qo'lga kiritishdi. Ayniqsa, bokschilarimizning yutuqlari diqqatga sazovor bo'ldi. Ular orasida Hasanboy Do'smatov, Shahobiddin Zoirov va Fazliddin G'oibnazarov oltin medallari bilan tarixga kirdi.

O'zbekiston uchun eng yorqin natijalardan biri Parij (Fransiya) Olimpiadasida qayd etildi. Bu safar 90 nafardan ortiq sportchi qatnashib, jami 13 ta medal qo'lga kiritildi. Ulardan 8 tasi oltin bo'lib, mamlakatimiz 206 ta mamlakat orasida 13-o'rinni egalladi.

O'zbekiston sportchilarining yozgi Olimpiada o'yinlaridagi natijalari

№	Olimpiada	Ishtirokchilar soni	Oltin	Kumush	Bronza	Jami	O'rin
1	Atlanta – 1996	71	0	1	1	2	58
2	Sidney – 2000	70	1	1	2	4	43
3	Afina – 2004	70	2	1	2	5	34
4	Pekin – 2008	56	0	1	3	4	62
5	London – 2012	54	0	0	3	3	75
6	Rio – 2016	70	4	2	7	13	21
7	Tokio – 2020	67	3	0	2	5	32
8	Parij – 2024	90	8	2	3	13	13

IJODIY FAOLIYAT

1. O'zbekiston tarixida ilk Olimpiada oltin medalini kim qo'lga kiritgan va bu voqea qanday ahamiyatga ega?
2. Parij – 2024 Olimpiadasi nega O'zbekiston sporti tarixida alohida o'rin tutadi?

t.me/rtm_metodik_xizmat

Afsonaviy gimnastikachi



Oksana Chusovitina Buxoroda tug‘ilgan. Sport gimnastikasi bo‘yicha Olimpiada chempioni, Osiyo o‘yinlari va “Jahon yulduzlari” xalqaro musobaqasining sovrindori.

1992–2020-yillarda Olimpiya o‘yinlarida gimnastika bo‘yicha 8 marta ishtirok etdi hamda mazkur ko‘rsatkich bilan Ginnesning rekordlar kitobiga kirdi.

Toshkentda Oksana Chusovitina nomidagi sport maktabi ochilgan.

O‘zbek dzyudochi qizi



Diyora Keldiyorova Samarqand viloyatida tug‘ilgan. 2024-yili Fransiyaning Parij shahrida bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiada o‘yinlarida dzyudo bo‘yicha oltin medalni qo‘lga kiritdi.

2025-yilda Diyora Keldiyorova dzyudo mahorati maktabi tashkil qilindi.

Milliy paralimpiya

Milliy paralimpiya qo‘mitasi (NPC Uzbekistan) 2007-yilda tashkil etilgan bo‘lib, u mamlakatdagi imkoniyati cheklangan sportchilarni paralimpiya o‘yinlariga tayyorlash va qo‘llab-quvvatlash bilan shug‘ullanadi.

O‘zbekiston 2004-yili Afina (Gretsiya)dagi yozgi Paralimpiya o‘yinlarida ilk bor mustaqil davlat sifatida qatnashgan.

2012-yili London (Buyuk Britaniya)da Sharif Xalilov paradzyudo bo‘yicha O‘zbekiston tarixidagi ilk paralimpiya medali – kumush medalni qo‘lga kiritdi.

2016-yilgi Rio de Janeyro Paralimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston para sportchilari medallar soni bo‘yicha jahon reytingida 16-o‘rinni egalladi.

2020-yili Tokio (Yaponiya) yozgi Paralimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston sportchilari jami 19 ta medalni qo‘lga kiritib, umumjamoa hisobida 16-o‘rinni egalladi.

Parij – 2024 musobaqasida O‘zbekiston delegatsiyasi 10 ta oltin, 9 ta kumush va 7 ta bronza medal yutib, eng yaxshi natijani qayd etdi. Jamoa medallar soni bo‘yicha 13-o‘rinni egalladi va Osiyoda Xitoy va Yaponiya ortidan 3-o‘rinni band qildi. Parij – 2024 o‘yinlarida yurtimiz vakillari jami 26 ta medalni qo‘lga kiritib, tarixiy rekord o‘rnatdi. Bunday mislsiz, yorqin g‘alaba O‘zbekiston tarixiga oltin harflar bilan muhrlandi.

IJODIY FAOLIYAT

1. Oksana Chusovitinaning sportga munosabati, sizningcha, qanday irodaviy fazilatlarni ifodalaydi?
2. Sizningcha, Oksana Chusovitina xalqaro sportda nega “tirik afsona” deb ataladi?
3. Sizningcha, Diyora Keldiyorovaning Olimpiadadagi g‘alabasi O‘zbekistonda ayollar sporti rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

t.me/rtm_metodik_xizmat



Prezident Shavkat Mirziyoyev Paralimpiya o'yinlari sovrindorlari bilan. 2024-yil



Nozimaxon Qayumova, *para yengil atletikachi, nayza uloqtirish bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi*

Matonat va ibrat namunasi

Nozimaxon Qayumova Namangan viloyatida tug'ilgan. U para yengil atletikaning nayza uloqtirish yo'nalishida O'zbekiston sharafini himoya qilib kelmoqda.

U ikki karra Paralimpiya o'yinlari chempioni:

2016-yili Rio de Janeyroda oltin medalni qo'lga kiritdi va jahon rekordini yangiladi.

2020-yilgi Tokio Paralimpiadasida (2021-yilda) yana oltin medal oldi. O'sha yili u O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" unvoni bilan taqdirlangan.

Boburjon Omonov 2021-yilda bo'lib o'tgan yozgi Paralimpiya o'yinlarida erkaklar o'rtasida yadro uloqtirish bo'yicha oltin medalni qo'lga kiritdi. Boburjon Omonov 14,06 metr natija bilan Paralimpiya rekordini yangiladi. O'sha yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Boburjon Omonovni "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni bilan taqdirladi.

Boburjon Omonov 2023-yilda Parij (Fransiya)da yengil atletika bo'yicha jahon chempionatida erkaklar o'rtasida yadro uloqtirish bo'yicha oltin medalni qo'lga kiritdi va shu tariqa jahon chempionati rekordini yangiladi. O'sha yilning oktyabr oyida Xanchjou shahri (Xitoy)da bo'lib o'tgan yozgi Paraosiyo o'yinlarining erkaklar o'rtasida yadro uloqtirish bo'yicha Boburjon Omonov 13,14 metr natija bilan oltin medalni qo'lga kiritdi. 2024-yili "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

t.me/rtm_metodik_xizmat

Asila Mirzayorova para yengil atletikachi. Yengil atletikaning uzunlikka sakrash yo'nalishidagi musobaqalarda ishtirok etadi. O'zbekiston terma jamoasi a'zosi. 2020-yilgi yozgi Paralimpiya o'yinlarining kumush medali sovrindori, yozgi Paraolimpiya o'yinlari bronza medali sohibasi. Shuningdek, paralimpiya chempioni. 2021-yilda "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning farmoni bilan unga "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" unvoni berilgan.



Husniddin Norbekov para yengil atletikachi, disk va yadro uloqtirish bilan shug'ullanadi. O'zbekiston terma jamoasi a'zosi. 2016-, 2020- va 2024-yilgi yozgi Paralimpiya o'yinlari chempioni. Yengil atletika bo'yicha uch karra jahon chempioni va yozgi Paraosiyo o'yinlarining ikki karra chempioni sanaladi.

2016-yilda Rio de Janeyroda bo'lib o'tgan yozgi Paralimpiya o'yinlarida disk uloqtirish bo'yicha oltin medalni qo'lga kiritib, paralimpiya chempioni bo'ldi. 2021-yilda Tokio (Yaponiya)da bo'lib o'tgan yozgi Paralimpiya o'yinlarida yadroni 16,13 metr masofaga uloqtirib, oltin medalni qo'lga kiritdi va ikki karra paralimpiya chempioni bo'ldi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev farmoniga binoan, Husniddin Norbekovga "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" unvoni berildi.

Boks. Kurash. Futbol

Olimpiada musobaqalarida, jahon va qit'a chempionatlari hamda turli xalqaro musobaqalarda o'zbek bokschilari g'oliblikka asosiy da'vogarlar qatoridan joy oldi.

Mustaqillik yillarida boks sport turining rivojlanishiga alohida e'tibor berilishi natijasida Muhammadqodir Abdullayev, Artur Grigoryan, Ruslan Chagayev, O'tkirbek Haydarov, Bahodir Jalolov, Murodjon Ahmadaliyev, Shahram G'iyosov, Bektemir Meliqo'ziyev kabi o'nlab jahon va Olimpiada chempionlari yetishib chiqdi.

2023-yil Toshkentda o'tkazilgan boks bo'yicha jahon chempionatida O'zbekiston terma jamoasi 9 ta medal (5 ta oltin)ni qo'lga kiritdi va umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi.

Bokschilar Abdumalik Xaloqov, Ruslan Abdullayev, Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev, Hasanboy Do'smatov va Bahodir Jalolov musobaqada oltin medalni qo'lga kiritdi.



Boburjon Omonov,
Tokio va Parij Paralimpiya o'yinlari g'olibi



Husniddin Norbekov,
uch karra Paralimpiya o'yinlari g'olibi bo'lgan ilk o'zbekistonlik sportchi

Respublika ta'lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

IJODIY FAOLIYAT

2025-yilgi U-17 Osiyo chempionati: O‘zbekiston terma jamoasi birinchi bo‘limda ikki futbolchisi maydondan chetlatilganiga qaramay, ikkinchi bo‘limda ikki gol urib, mezbonlarni mag‘lub etdi.

1. Ikki futbolchisi maydondan chetlatilgan bo‘lishiga qaramay, terma jamoamiz g‘alabaga erishdi. Sizningcha, bu qanday fazilatlar namunasi?
2. Futbol o‘yini davomida “ikki kishi kam bo‘lib ham g‘alaba qozonish” nimani anglatadi? Jamoaviy birdamlik qanday ahamiyatga ega?

1998-yili Kurash xalqaro assotsiatsiyasi tuzildi. 1999-yil Toshkent shahrida kurash bo‘yicha 1-jahon chempionati o‘tkazildi. Unda jahonning 48 mamlakatidan kurashchilar qatnashdi.

Akobir Qurbonov, Kamol Murodov va boshqa o‘zbek sportchilari birinchi jahon chempionlari bo‘ldi. 2000-yilda esa Turkiyaning Antaliya shahrida 2-jahon chempionati bo‘lib o‘tdi.

2003-yilda Osiyo Olimpiya kengashining Kuvaytda o‘tgan XXII Bosh assambleyasida o‘zbek kurashi Osiyo o‘yinlari dasturiga kiritildi. “Chala”, “dakki”, “tanbeh”, “g‘irrom”, “yonbosh”, “halol” kabi o‘zbek tilidagi so‘zlar xalqaro sport atamalari sifatida qabul qilindi va rasmiy qo‘llana boshladi.

Sport turlari orasida futbolni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. 1992-yildan mamlakat ichki chempionatiga start berildi. 1994-yilda Yaponiyaning Xirosima, Onomiti va Miyosi shaharlarida bo‘lib o‘tgan yozgi Osiyo o‘yinlarida O‘zbekiston futbol terma jamoasi chempionlikni qo‘lga kiritdi.

2018-yili Xitoyda 23 yoshgacha bo‘lganlar o‘rtasida o‘tkazilgan Osiyo chempionatida O‘zbekiston terma jamoasi g‘olib bo‘ldi.

2025-yili Saudiya Arabistonida 17 yoshgacha bo‘lgan futbolchilar o‘rtasida o‘tkazilgan Osiyo chempionatida 9 o‘yinchi bo‘lib o‘ynaganiga qaramay, O‘zbekiston o‘smirlar terma jamoasi Saudiya Arabistoni o‘smirlarini 2:0 hisobida mag‘lub etib, qit’a chempioni bo‘ldi.



t.me/rtm_metodik_xizmat

O‘zbek futbolida yutuqlar bilan birga kamchiliklar ham bor. Futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi bir necha bor jahon chempionati saralash o‘yinlarida ishtirok etganiga qaramay, final bosqichi yo‘llanmasini qo‘lga kirita olmadi. Nihoyat 2025-yili tarixda ilk bor 2026-yilgi jahon chempionati final bosqichi yo‘llanmasiga ega bo‘ldi.

O‘zbek futbolchilari orasida Mirjalol Qosimov, Odil Ahmedov, Server Jeparov, Eldor Shomurodov, Abbosbek Fayzullayev, Abduqodir Husanov kabi futbol yulduzlari yetishib chiqib, Osiyo va Yevropaning nufuzli jamoalarida o‘ynab kelmoqda.

Mamlakatimizda ommaviy sportni yanada rivojlantirish, olimpiya va jahon chempionlarini yetishtirish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2025-yili Toshkent shahrida Olimpiya shaharchasi bunyod etildi. Shaharchada 5 ta asosiy sport majmuasi, 12 ming o‘rinli stadion joylashgan. Sportning futbol, voleybol, tennis, chim ustida xokkey, yengil atletika kabi turlari uchun 15 ta ochiq maydon ham barpo etilgan. Olimpiya shaharchasida sport mashg‘ulotlari bilan birga nufuzli musobaqalar ham o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan.



Murodjon Ahmadaliyev

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O‘zbekistonlik paralimpiyachilardan kimlarni bilasiz? Nima uchun ularni “matonat va ibrat namunasi” deb atashadi? Siz ularni yana qanday nom bilan atagan bo‘lardingiz?
2. Qishki va yozgi Olimpiada musobaqalarida ilk oltin medalni qo‘lga kiritgan sportchilar haqida ma’lumot bering.
3. O‘zbek boks maktabini jahonga tanitgan qaysi bokschilarni bilasiz?
4. Futbol bo‘yicha O‘zbekiston chempionatining yutuq va kamchiliklarini tahlil qiling.
5. O‘zbekistonda ommaviy sport turlarini yanada rivojlantirish uchun qanday islohotlarni amalga oshirish kerak deb hisoblaysiz?

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

13-MAVZU JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING RIVOJLANISHI

BILIBOLASIZ

Yoshlarga oid davlat siyosati.
O‘zbekistonda yoshlar tashkilotlari.

YODDA TUTING!

YUNESKO me’yorlariga ko‘ra, 17–25 yoshli shaxslar yoshlar hisoblansa, Yevropaning aksariyat mamlakatlarida, AQSH va Yaponiyada “yoshlar” atamasi 13-14 yoshdan 29-30 yoshgacha bo‘lganlarga qo‘llanadi.

Milliy qonunchiligimizda esa 14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar yoshlar yoki yosh fuqarolar deb ataladi.

Yoshlarga oid davlat siyosati

Bugun O‘zbekiston aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. 1991-yildan buyon O‘zbekistonda yoshlarga oid ko‘plab qonun hujjatlari, farmonlar, qarorlar qabul qilindi. Ular yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. Mazkur qonun hujjatlarida millati, irqi, tili, dini, jinsi, ma’lumoti va siyosiy e’tiqodidan qat’i nazar, barcha yoshlarning manfaatlari bir xil maqomda ifodalanishi o‘z aksini topdi.

1999-yili mamlakatimizda Zulfiya nomidagi davlat mukofoti ta’sis etilishi qizlarni barkamol qilib tarbiyalash, ijtimoiy va ijodiy faolligini oshirish hamda tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi. 1999–2020-yillarda ushbu mukofot bilan 322 nafar yosh xotin-qiz taqdirlandi.

2016–2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi, Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya tuzildi.

Bu yo‘nalishdagi ishlar davom ettirilib, Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi huzurida Yoshlar parlamenti, Innovatsion rivojlanish agentligi huzurida Yoshlar akademiyasi tashkil etildi. Yoshlarni qiziqtirayotgan dolzarb masalalar bo‘yicha fikr almashish, ularning taklif va tavsiyalarini o‘rganish, muammolariga amaliy yechim topish maqsadida Yoshlar press-klubi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Mamlakatimizda yosh oilalarning ijtimoiy-maishiy muammolarini hal etish masalalari ham ustuvor vazifaga aylandi. 2014–2020-yillarda respublikamizda istiqomat qilayotgan 8 mingdan ortiq yosh oila imtiyozli asosda uy-joy bilan ta’minlandi. Bunday uy-joy va xonadonlar, birinchi navbatda, imkoniyati cheklangan, ijod, ilm-fan bilan mashg‘ul yoshlarga, turli loyihalarda faol ishtirok etayotgan yigit-qizlarga imtiyozli asosda xarid qilib olishi uchun berildi.

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

IJODIY FAOLIYAT

Bugun O‘zbekistonda yoshlar tashkiloti sifatida Yoshlar ittifoqi faoliyat yuritmoqda. Dunyoning boshqa mamlakatlaridagi yoshlarni birlashtiruvchi qanday tashkilotlar haqida bilasiz? Do‘stlaringiz bilan guruhlarga bo‘lingan holda eng namunali yoshlar tashkilotlari haqida ma’lumot tayyorlang.

YODDA TUTING!

2017-yil 30-iyun kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu sanani mamlakatda Yoshlar kuni sifatida nishonlash tashabbusini ilgari surdi.

O‘zbekistonda yoshlar tashkilotlari

1991-yilda mamlakat yoshlarini birlashtiruvchi Yoshlar ittifoqi tashkiloti tuzildi. U yoshlarni o‘z plenumi va konferensiyalari qarorlarini bajarishga safarbar qilolmagani, yoshlarning manfaatlari va ehtiyojlarini to‘la aks ettirmagani tufayli 1996-yilda tugatilib, o‘rniga “Kamolot” jamg‘armasi tashkil etildi. Mazkur jamg‘arma yoshlar manfaatlari himoyachisi sifatida ish boshladi. 2001-yilda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati ta’sis qilindi. Uning tarkibiga 10–14 yoshli bolalar uchun “Kamalak” tashkiloti ham kiritildi.

“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan “Bunyodkor” yoshlar mehnat harakati tuzildi. “Mening biznes g‘oyam”, “Yosh tadbirkor – yurtga madadkor” tanlovlari hamda “Biz – buyuk yurt farzandlarimiz” shiori ostida yoshlar festivallari, turli tadbirlar muntazam o‘tkazib kelindi. 2016-yilda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Mazkur qonun asosida yoshlarni ijtimoiy shakllantirish, turli yo‘nalishda salohiyatini kamol toptirish uchun tashkiliy va huquqiy jarayonlar tizimli amalga oshirilmoqda, yangicha yondashuvlarga ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda.

“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining 2017-yil 30-iyundagi IV qurultoyi qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Yoshlar ittifoqi tashkil etildi.

O‘ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi rahbari ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosati bo‘yicha davlat maslahatchisi lavozimida faoliyat yuritishi belgilandi. Shu bilan birga, u Oliy Majlis Senati a’zosi etib tayinlanadi.

2020-yilda Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. U yoshlar bilan bog‘liq soha va yo‘nalishlarda yagona davlat siyosatini yuritishi, strategik yo‘nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqishi hamda amalga oshirishi nazarda tutilgan.

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan “Yosh kitobxon” tanlovi yoshlar orasida kitob o‘qish, bilim olishga qiziqishning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Ushbu tanlovda respublika miqyosida 10 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan bolalar va yoshlar ishtirok etishi mumkinligi belgilanib, g‘olibga bosh sovrin sifatida avtomobil berilishi qayd etilgan.

O‘zbekistonning yoshlar masalalariga oid o‘nga yaqin global tashabbusi va taklifini BMT xalqaro miqyosda keng ommalashtirdi. 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti BMTning 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida dunyo yoshlari haqida alohida to‘xtalib, O‘zbekiston globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etdi. Bu O‘zbekistonning yoshlar masalasini o‘z ijtimoiy siyosatining asosiy va ustuvor yo‘nalishlaridan biri darajasiga ko‘targanidan dalolat beradi.

2022-yilda Buxoro shahri birinchi “Turkiy dunyo yoshlar tashabbuslari poytaxti” deb e’lon qilingan bo‘lsa, 2023-yilda Yoshlar taraqqiyoti indeksiga ko‘ra, O‘zbekiston yoshlar siyosati sohasida eng tez rivojlanayotgan mamlakat deb e’tirof etildi. 2024-yilda esa Toshkent shahri birinchi “MDH yoshlar poytaxti” deb e’lon qilindi.

2025-yilda O‘zbekiston BMTning “Yoshlar – 2030” strategiyasini amalga oshirayotgan 10 davlat qatoriga kiritildi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.

Shavkat Mirziyoyev

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. “Yosh kitobxon” tanlovining ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati nimada deb o‘ylaysiz?
2. Mustaqillik yillarida faoliyat yuritgan yoshlar tashkilotlari haqida ma’lumot bering.
3. Do‘stlaringiz orasida Yoshlar ittifoqi tanlovlarida ishtirok etib, muvaffaqiyatga erishganlar bormi?
4. Davlatimiz tomonidan siz uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlardan qanday foydalanyapsiz?

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat



4-BOB

MA’NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT

- **1990**-yil **3**-may – O‘zbekistonda Navro‘z umumxalq bayrami deb e’lon qilindi.
- **1991**-yil **20**-iyun – Qurbon hayiti dam olish kuni deb e’lon qilindi.
- **1992**-yil **27**-mart – O‘zbekistonda Ramazon hayiti umumxalq bayrami va dam olish kuni deb e’lon qilindi.
- **1996**-yil **18**-oktyabr – Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi.
- **1999**-yil **2**-mart – O‘zbekistonda 9-may – Xotira va qadrlash kuni deb e’lon qilindi.
- **2020**-yil **9**-may – Toshkentda “G‘alaba bog‘i” majmuasi ochildi.
- **2024**-yil **1**-yanvar – “Jadid” gazetasining ilk soni nashr etildi.



t.me/rtm_metodik_xizmat

14-MAVZU MA’NAVIY VA TARIXIY MEROSGA MUNOSABAT. BUYUK AJDODLAR XOTIRASINING TIKLANISHI

BILIB OLASIZ

Ma’naviy va tarixiy merosga munosabatning o‘zgarishi.
Buyuk ajdodlar xotirasining tiklanishi.

IJODIY FAOLIYAT

1. Sizningcha, ma’naviyat nima? U inson hayotiga qanday ta’sir qiladi?
2. Nima uchun mustaqil davlatda ma’naviyatga alohida e’tibor qaratilishi muhim? Fikringizni misollar bilan asoslang.
3. Ma’naviy salohiyatning yuksalishi nimalarga bog‘liq deb o‘ylaysiz?

Ma’naviy va tarixiy merosga munosabatning o‘zgarishi

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ma’naviy tiklanish masalasiga katta e’tibor qaratildi. 1994-yilda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi tashkil etildi. Markaz faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi respublikada ma’naviy va mafkuraviy ishlarni yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

2006-yildan Respublika Ma’naviyat targ‘iboti markazi hamda Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi alohida tashkilot sifatida ish boshladi.

2017-yildan so‘ng ma’naviyat sohasidagi ishlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda uning huzurida Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti ochildi. Markaz muassisligida “Tafakkur”, “Ma’naviy hayot” jurnallari chop etilmoqda. Markaz “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” g‘oyasi asosida xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini shakllantirishga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etishda samarali faoliyat yuritmoqda.

Jamiyat hayotida g‘oyaviy tahdid va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish muhim vazifadir. Bu borada madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san’at sohasi hamda ommaviy axborot vositalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular fidoyi, vatanparvar va o‘z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalashda alohida o‘rin tutadi.

Ma’naviy salohiyatning yuksalishi kitobxonlik bilan bevosita bog‘liq. Mamlakatimizda yoshlarning bilimi va saviyasini oshirish, ularni ma’naviy barkamol inson etib tarbiyalash borasida kitobxonlik madaniyatiga alohida e’tibor qaratildi. 2011-yili Toshkentda milliy va zamonaviy me’morchilik uslubidagi O‘zbekiston xalqaro anjumanlar saroyi va Alisher Navoiy nomidagi

t.me/rtm_metodik_xizmat

O‘zbekiston Milliy kutubxonasini birlashtirgan “Ma’rifat markazi” bunyod etildi.

Barcha viloyatlarda yirik, olis hududlarda kichik kutubxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida kitobxonlik va intellektual o‘yinlar tashkil etildi. “Yosh kitobxon”, “Yosh kitobxon oila”, “Mushoira”, “Zakovat” intellektual tanlovlarining o‘tkazilishi an’anaga aylandi. “Ma’rifat karvoni” tadbirlari doirasida 3 milliondan ortiq kitob yoshlarga yetkazib berildi.



Amir Temur haykali. Samarqand

“Yoshlar kutubxonasi” rukni ostida ko‘plab badiiy adabiyotlar chop etilib, respublikamizdagi barcha ta’lim muassasalari kutubxonalariga tarqatildi.

Buyuk ajdodlar xotirasining tiklanishi

Tarixiy xotira va buyuk ajdodlarimiz nomini qayta tiklash, ma’naviy, ilmiy va ijodiy merosini o‘rganish muhim masalalardan biridir. 1991-yilda O‘zbekistonda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan Alisher Navoiy nomidagi davlat mukofoti ta’sis etildi.

Buyuk alloma haykali Toshkent va Navoiy shaharlarining markaziy xiyobonlariga o‘rnatildi. Toshkent shahridagi markaziy istirohat bog‘i Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i deb ataldi. Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetiga Alisher Navoiy nomi berildi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq, birinchi navbatda, o‘zining intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbayi esa, avvalo, insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalardir.

Shavkat Mirziyoyev

IJODIY FAOLIYAT

1. Siz *ma’naviyat* va *ma’rifat* atamalarini qanday tushunasiz? Ma’naviyatli inson, ma’rifatli kishi deganda qanday shaxslarni tasavvur qilasiz?
2. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” g‘oyasining mazmun-mohiyatini asoslang.
   - “Milliy tiklanish” va “milliy yuksalish” tushunchalarini ta’riflang.
   - Milliy tiklanish davridagi yutuqlar milliy yuksalish uchun qanday zamin yaratganini ko‘rsating.
   - Milliy yuksalishga erishishda har bir fuqaroning o‘rni va mas’uliyatini baholang.
3. "G‘oyaviy va axboriy xurujlar" hamda “mafkuraviy immunitet” tushunchalarini izohlang.
   - G‘oyaviy xurujlar nima, ularning maqsadi va shakllarini tushuntiring.
   - Mafkuraviy immunitet nima? Uning shaxs va jamiyat uchun ahamiyati qanday?
   - Mafkuraviy immunitet qanday shakllanadi?

t.me/rtm_metodik_xizmat

IJODIY FAOLIYAT

Dunyoning qaysi shaharlarida buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning haykali va byustlari o'rnatilgan?



Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy haykali. Ostona shahri, Qozog'iston

1994-yil O'zbekistonda "Mirzo Ulug'bek yili" deb e'lon qilindi. Buyuk allomaning 600 yilligi O'zbekistonda va YUNESKO qarorgohida keng nishonlandi. Mirzo Ulug'bekning tarixiy va ilmiy asarlari nashr etildi.

1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi. "Temur tuzuklari" bir necha tilda chop etildi. Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi bunyod etildi. 1993-yili Toshkentda, 1996-yili Samarqand va Shahrisabzda Amir Temur haykali o'rnatildi. Shu yili Samarqand va Shahrisabz, 2014-yilda Termiz shaharlari "Amir Temur" ordeni bilan mukofotlandi. Shu bilan birga, mamlakatimizda ko'plab tarixiy shaxslar hamda Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi qadimiy shaharlarning yubiley sanasi keng nishonlandi.

1999-yildan mamlakatimizda 9-may – Xotira va qadrlash kuni deb e'lon qilindi. Toshkent, Nukus va barcha viloyatlarning markaziy shaharlarida Xotira maydonlari barpo etildi.

Mustaqillik yillarida jadidlarning nomi va boy ma'naviy merosi qayta tiklandi. Jadid namoyandalari Abdulla Qodiriy hamda Abdulhamid Cho'lpon "Mustaqillik" ordeni bilan taqdirlandi. Toshkentda "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi hamda "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi tashkil qilindi. 31-avgust Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni sifatida belgilandi. Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo'lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosi bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega.

2017-yildan boshlab buyuk ajdodlar xotirasi tiklanishi bo'yicha ishlar yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan jadid namoyandalarining nomini tiklash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

YUBILEY YILI	TARIXIY SHAXS	YUBILEY SANASI
1993-yil	Bahouddin Naqshband	675 yilligi
1995-yil	Mahmud Zamaxshariy	920 yilligi
1995-yil	Najmiddin Kubro	850 yilligi
1996-yil	Amir Temur	660 yilligi
1998-yil	Ahmad Farg'oniy	1200 yilligi
1998-yil	Muhammad ibn Ismoil Buxoriy	1225 yilligi
1999-yil	Muhammadrizo Ogahiy	190 yilligi
1999-yil	Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li	175 yilligi
2004-yil	Xoja Ahror Valiy	600 yilligi

t.me/rtm_metodik_xizmat

Badiiy va hujjatli filmlar, ko‘rsatuvlar tayyorlandi, ilmiy tadqiqotlar, xalqaro konferensiyalar o‘tkazildi. Ko‘chalar va xiyobonlar ularning nomi bilan ataldi. Qatag‘on qurboni bo‘lgan vatandoshlarimizning nomi oqlandi. 2020-yilda jadid namoyandalari Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlandi. 2024-yildan “Jadid” deb nomlangan gazeta nashr etilmoqda. 2025-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi keng nishonlandi.

Usmon Nosir, Abdulla Oripov, O‘tkir Hoshimov va boshqa ijodkorlarning tavallud sanalari keng nishonlandi. Is’hoqxon Ibrat, Ibroyim Yusupov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Hamid Olimjon va Zulfiya nomi bilan ataladigan markazlar hamda ijod maktablari ochildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yilda davlat arbobi Sharof Rashidovning 100 yilligi, 2018-yilda Islom Karimovning 80 yillik tavallud sanasi nishonlandi. Jizzax shahrida Sharof Rashidov haykali o‘rnatildi, muzeyi barpo etildi. Jizzax tumaniga Sharof Rashidov nomi berildi.

Islom Karimov – O‘zbekiston mustaqilligining asoschisi, mamlakat taraqqiyoti va xalqaro nufuzini yuksaltirish yo‘lida ulkan xizmatlar ko‘rsatgan davlat arbobidir. Birinchi Prezidentimiz xotirasini abadiylashtirish maqsadida Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Toshkent xalqaro aeroportiga, Toshkent davlat texnika universitetiga, Qoraqalpog‘iston, Toshkent shahri va viloyatlardagi markaziy ko‘chalarga Islom Karimov nomi berildi hamda Toshkent, Samarqand va Qarshi shaharlarida Islom Karimov haykallari o‘rnatildi. Bundan tashqari, Rossiyaning Moskva va Turkmanistonning Turkmanobod shaharlarida Islom Karimov haykali ochildi. Mamlakatimizda 2-sentyabr Islom Karimov xotirasi kuni sifatida belgilandi.

Bu tashabbuslar Islom Karimovning tarixiy xizmatlarini yodda saqlash, uning mustaqil O‘zbekiston davlatini barpo etishdagi ulkan hissasini kelajak avlodlarga yetkazish yo‘lidagi muhim qadamlardan hisoblanadi.

2020-yil 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Toshkentda “G‘alaba bog‘i” majmuasi va “Shon-sharaf” muzeyi ochildi. Majmuada xalqimizning Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan munosib hissasi ko‘rsatib berilgan.

YODDA TUTING!

Xotirani abadiylashtirish faqat shaxsga emas, balki uning g‘oyalariga va ilmiy merosiga bo‘lgan hurmatni anglatadi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov o‘zining serqirra siyosiy faoliyati, oliyjanob insoniy fazilatlari bilan Vatanimizning ko‘p asrlik tarixida o‘chmas iz qoldirdi.

Shavkat Mirziyoyev

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2021-yili Toshkentda “Yangi O‘zbekiston” bog‘i barpo etildi. Bog‘dagi Mustaqillik monumentida milliy davlatchiligimiz asoslari hamda o‘zbek va jahon xalqlari tarixida ulkan iz qoldirgan buyuk shaxslar, alloma va mutafakkirlar siymosi aks ettirildi.

LOYIHA ISHI

1. Agar tarixchi yoki yozuvchi bo‘lganingizda, qaysi tarixiy shaxs haqida asar yozar edingiz va nima uchun?
2. Nima uchun Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek singari tarixiy shaxslar siymosi milliy g‘ururimizga aylangan?
3. Cho‘lpon va Abdulla Qodiriy asarlaridan qaysi birini o‘qigansiz? Undagi mustaqillik, erk g‘oyalarini tahlil qiling.
4. Guruh shaklida ishlanadigan ijodiy faoliyat. Sinf 4 guruhga bo‘lingan holda har bir guruh quyidagi mavzulardan birini tanlab, taqdimot ishi tayyorlasin.
   1-guruh: Alisher Navoiy – ma’naviyat va adabiyot timsoli.
   2-guruh: Mirzo Ulug‘bek – ilm-fanning buyuk namoyandasi.
   3-guruh: Amir Temur – milliy davlatchilik va adolat ramzi.
   4-guruh: Jadidlar – maorif va milliy uyg‘onish harakatining peshqadamlari.

Taqdimotda quyidagilar aks etishi lozim:

- qisqacha biografik ma’lumot;
- ilmiy-ijodiy yoki siyosiy faoliyati;
- O‘zbekistonda uning xotirasini tiklash yuzasidan qilingan ishlar;
- tanlangan tarixiy shaxs hayoti va faoliyatidan olingan ibratlar.



“Yangi O‘zbekiston” bog‘idagi Mustaqillik monumenti. Toshkent

t.me/rtm_metodik_xizmat

5. Sizningcha, nega aynan 2017-yildan boshlab buyuk ajdodlar xotirasini tiklash ishlari yangi bosqichga ko'tarildi?
6. Qaysi qadimiy shahar yoki tarixiy shaxsning tavallud sanasi keng nishonlanganini bilasiz?
7. Nima uchun ijod maktablari va markazlar buyuk shaxslar nomi bilan ataladi?
8. O'zbekistonda jadidchilik harakati vakillarining nomini qayta tiklash borasida qanday ishlar amalga oshirildi?
9. Fikringizcha, tarixiy xotira va tarixiy ong nima uchun muhim hisoblanadi?
10. O'zbekiston xaritasidan Is'hoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktablari joylashgan manzilni toping va belgilang.



Sharof Rashidov haykali. Jizzax



Islom Karimov haykali. Toshkent

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O'zbekistonda ma'naviy va tarixiy merosning tiklanishi haqida so'zlab bering.
2. Mamlakatimizda qaysi buyuk ajdodlar xotirasi tiklandi?
3. Ajdodlar merosini o'rganish nima uchun zarur? Fikringizni asoslang.
4. Birinchi Prezidentimiz davrida amalga oshirilgan ishlar va uning xotirasiga bo'lgan munosabat yosh avlod ongida qanday tuyg'uni shakllantiradi deb o'ylaysiz?

"G'alaba bog'i" majmuasi. Toshkent



t.me/rtm_metodik_xizmat

15-MAVZU MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI

BILIB OLASIZ

Milliy qadriyatlarning tiklanishi.
Diniy qadriyatlarning tiklanishi.
Islom madaniyati poytaxtlari.
Islom sivilizatsiyasi markazi.

Milliy qadriyatlarning tiklanishi

IJODIY FAOLIYAT

1. Nima uchun Navro‘z umumxalq bayrami deyiladi?
2. Ushbu bayram xalqning qanday ma’naviy qadriyatlarini ifodalaydi?
3. Nima uchun Navro‘z ko‘p millatli O‘zbekistonda birlik timsoliga aylangan?

Milliy qadriyatlarning tiklanishi mustaqillik davrining eng muhim yutuqlaridan biri bo‘ldi. O‘zbek xalqining to‘y va marosimlar, hashar, hamjihatlik, bag‘rikenglik, oila muqaddasligi, farzand tarbiyasi, buyuk mutafakkirlar merosi va Ona tiliga hurmat singari milliy qadriyatlari qayta e’zoz topdi. Jumladan, Navro‘z bayrami azaliy qadriyatlarimizdan biri hisoblanadi. Navro‘z yer yuzidagi eng qadimiy bayramlardan biri bo‘lib, u uyg‘onish, yangi fasl darakchisidir. Navro‘z so‘zi “yangi kun” degan ma’noni bildiradi. Manbalarga ko‘ra, ushbu bayram 3 ming yildan ortiq tarixga ega. O‘zbekistonda Navro‘z milliy o‘zlikning ajralmas qismi hisoblanadi. Sovet hokimiyati davrida Navro‘z diniy bayram degan tamg‘a bilan taqiqlandi. Shunga qaramay, xalq o‘zining azaliy qadriyati va bayramini unutmadi, goh oshkor, goh yashirin nishonlayverdi.

1990-yilda Navro‘z umumxalq bayrami, 21-mart esa dam olish kuni deb e’lon qilindi. Xalqimizga sevimli bayramining qaytarilishi mamlakat tarixida muhim voqea bo‘ldi.

YODDA TUTING!

Navro‘z bayramini Markaziy Osiyo, Kavkaz, Qora dengiz havzasi, Yaqin Sharq, Bolqon yarimoroli va dunyoning boshqa mintaqalaridagi 300 milliondan ortiq inson nishonlaydi.

Navro‘z bayrami chinakam umumxalq sayliga aylandi. U O‘zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning eng yaxshi an’analari, urf-odatlarini birlashtirdi. O‘zaro birdamlik, totuvlik ramziga aylandi. Qadimiy xalq bayrami – Navro‘zning tiklanishini respublikaning butun aholisi mamnuniyat bilan ko‘tarinki ruhda kutib oldi. 2009-yilda YUNESKO Navro‘z bayramini insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e’tirof etdi. BMT tomonidan 2010-yilda 21-mart Xalqaro Navro‘z kuni deb e’lon qilindi. Bayramni BMT bosh qarorgohida turlicha nishonlash an’anaga aylandi.

Navro‘z bayrami munosabati bilan xalqimiz ko‘chatlar o‘tqazadi, yangi bog‘lar barpo etadi, ko‘chalar, mahalla guzarlarini

t.me/rtm_metodik_xizmat



obod qiladi. Bu bayramda xayriya hasharlari o‘tkazish, keksalar, bemorlar holidan xabar olish kabi ezgu ishlar an’anaga aylangan.

Barcha shahar-u qishloqlar, mahalla va ovullarda bayram sayillari tashkil qilinadi, ko‘klam dasturxonlari bezatiladi. Folklor va havaskorlik jamoalari, oilaviy ansambllar, baxshi-shoirlar, ijodkorlar ishtirokida ommaviy tadbirlar uyushtiriladi. Milliy urf-odatlarni ifoda etadigan sport musobaqalari o‘tkaziladi. Bayram sayillari xorijiy sayyohlar va mehmonlarda ham katta qiziqish uyg‘otadi.

Diniy qadriyatlarning tiklanishi

O‘zbekistonda sovetlar boshqaruvi davrida milliy qadriyatlar qatorida din ham qattiq nazoratga olindi. Din zararli deb e’lon qilindi, xudosizlik keng targ‘ib etildi. Butun respublika bo‘yicha juda kam, sanoqli kishilargina haj amalini bajarar edi. 1990-yildan yurtdoshlarimizning haj amalini ado etishi uchun Saudiya Arabistoniga borish imkoniyati yaratildi.

1999-yilda islom diniga oid merosni o‘rganish, bu sohada malakali kadrlar tayyorlash maqsadida Toshkent islom universiteti ochildi. Hozir ushbu ilm dargohi O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi sifatida faoliyat olib bormoqda.

Islom dini taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan Burhoniddin Marg‘inoniy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Imom Abu Mansur Moturidiy kabi allomalarning tavallud sanasi keng nishonlandi.

2007-yilda Hazrati Imom (Hastimom) me’moriy majmuasi qayta ta’mirlandi. Majmuada uzoq vaqt davomida xalifa Usmon davriga taalluqli noyob mus’haf (Qur’on) saqlanib kelindi.

IJODIY FAOLIYAT

1. Nima uchun Navro‘z insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e’tirof etilgan?
2. Sizningcha, nima sababdan sovetlar davrida Navro‘z bayrami taqiqlangan?
3. Odamlar taqiqqa qaramay, bu bayramni qanday saqlab qolgan deb o‘ylaysiz?

t.me/rtm_metodik_xizmat



IJODIY FAOLIYAT

1. Qadim Toshkent va Buxoroning islom dini madaniyatiga qo‘shgan hissasi nimada? Javoblaringizni asoslang.
2. Nima uchun mamlakatimizda madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda?
3. Siz uchun oilaviy, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan buyumlar qanchalik qadrli? Ularga qaraganingizda qanday tuyg‘ularni his qilasiz?

Islom madaniyati poytaxtlari

O‘zbekistondagi ko‘plab shaharlar islom dini taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan. Ular qadimiy madrasa va masjidlari, minglab nodir qo‘lyozmalari, kutubxonalari va muzeylari bilan ham mashhurdir. Islom dunyosi ta’lim, fan va madaniyat tashkiloti (ICESCO) 2007-yilda Toshkent, 2020-yilda Buxoro shaharlarini Islom madaniyatining poytaxti deb e’lon qildi.

2024-yilda Islom hamkorlik tashkiloti Xiva shahrini “Islom dunyosining turizm poytaxti” deb e’lon qildi. Shu munosabat bilan shahardagi obidalar, ziyoratgohlar va ularning atrofida obodonlashtirish ishlari, xalqaro madaniy tadbirlar tashkil etildi.

Islom sivilizatsiyasi markazi

O‘zbekistonda diniy qadriyatlarga hurmat ko‘rsatish yangi bosqichda rivojlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti



t.me/rtm_metodik_xizmat



Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Toshkent shahrida Islom sivilizatsiyasi markazi bunyod etildi. Markaz binosi qadimiy me'morchilik uslubida barpo etilgan.

Majmuaning to'rt tomonida ulkan peshtoqlar, o'rtada 65 metrli gumbaz qurilgan. Mazkur noyob loyihaning qurilishi O'zbekiston Prezidentining 2017-yildagi qarori-ga binoan boshlanib, 2018-yil Ramazon hayiti kuni unga poydevor qo'yilgan. Islom sivilizatsiyasi markazida muzey, kutubxona, ilmiy markaz faoliyat yuritadi. Markazda xalqimizning boy va noyob merosi, buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati chuqur o'rganiladi.

Majmuada "Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar", "Birinchi Renessans davri", "Ikkinchi Renessans davri", "O'zbekiston XX asrda" va "Yangi O'zbekiston – yangi Renessans" kabi bo'limlar tashkil etildi. Mazkur davrlar tarixi turli ashyolar, qo'lyozma manbalar, suratlar va multimedia vositalari orqali namoyish etilgan.

Markazda qadimiy qo'lyozma manbalar va tarixiy ashyolar restavratsiya qilinadi. Qadimiy qo'lyozmalar va arxiv hujjatlari o'rganiladi. Islom sivilizatsiyasi markazi xalqimizning ma'naviy va ma'rifiy qudrati timsolidir.



Toshkentdagi Usmon mus'hafidan 2004-yilda xattot Habibulloh Solih ko'chirgan nusxa, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. "O'z tarixini bilmagan millat boshqalarga poymol bo'lur" degan fikrni quyidagi savol bilan bog'lab tushuntiring:
   markazda xalqimizning boy va noyob merosi, buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati o'rganiladi. Bundan qanday maqsadlar ko'zlangan?
2. Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarning tiklanishi xronologiyasini tuzing.



t.me/rtm_metodik_xizmat

16-MAVZU MADANIYAT VA SAN'AT TARAQQIYOTI

BILIB OLASIZ

Teatr va kino.
Musiqa va raqs san'ati.
Tasviriy san'at va badiiy adabiyot.
Muzeylar – tarix ko'zgusi.



O'zbek milliy akademik drama teatri

Teatr va kino

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, madaniyat va san'at sohasiga katta e'tibor qaratildi. Ayniqsa, teatrlar soni ortdi, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash ishlari boshlandi.

Avvalo, Farg'ona va Xorazmda davlat qo'g'irchoq teatrlari tashkil etildi, Qashqadaryo, Namangan va Surxondaryoda ham yangi teatr guruhlari ish boshladi. Natijada turli viloyatlardagi bolalar va kattalar teatrlashtirilgan tomoshalardan bahramand bo'la boshladilar.

Yangi teatr binolari qurildi, eskilari ta'mirlandi. 2015-yili Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri binosi qayta ta'mirlandi. Ushbu teatr mamlakatimizning iftixori hisoblanib, unda milliy va jahon mumtoz merosining betakror namunalari sahnalashtiriladi.

1993-yili Toshkentda "Turkiston" san'at saroyi ish boshladi. 1997-yilda "Teatr: Sharq – G'arb" xalqaro festivali bo'lib o'tdi. 2014-yilda Farg'ona viloyati teatr-konsert saroyi ochilib, yurtdoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2001-yilda Hamza nomidagi o'zbek davlat akademik drama teatriga "Milliy teatr" maqomi berildi. Viloyat teatr jamoalari ham xalqaro madaniy tadbirlarda qatnashib kelmoqda. Bu borada "Yoshlar", "Ilhom" va Qashqadaryodagi "Eski masjid" teatr studiyasi faollik ko'rsatdi. Teatrlarda Vatan tarixini sahna asarlari orqali namoyish etishga alohida e'tibor berildi.



Surxondaryo qo'g'irchoq teatri

2017-yildan boshlab teatr san'ati sohasida ham keng islohotlar boshlandi. Teatrlarni rivojlantirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash ishlari amalga oshirildi. 2018-yilda O'zbekistonda ilk bor "Turon" harbiy teatr studiyasi tashkil etildi.

Respublika ta'lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

Mazkur teatr nafaqat harbiylar, balki keng aholi vakillariga xizmat ko'rsatadi. Ta'kidlash kerakki, jadidlarning Abdulla Avloniy badiiy rahbarligida Toshkentda tashkil etgan teatr truppasi ham "Turon" deb nomlangan.

O'zbek teatr arboblari jahon teatr san'ati taraqqiyotini diqqat bilan o'rgandilar. Ular Sharq va G'arb san'atini milliy ruh bilan uyg'unlashtirdilar. Natijada sahnalashtirilgan spektakllarda nafaqat milliy, balki umuminsoniy muammolar ham aks etdi. Bu esa tomoshabinlarning dunyoqarashi va estetik didini oshirishga xizmat qildi.

Mustaqillik yillarida o'zbek kino san'ati yangi bosqichiga qadam qo'ydi. O'zbek kinosida milliy qadriyatlar, an'analar, tarix va buyuk ajdodlar merosiga murojaat kuchaydi. Bu esa o'zbek kinematografiyasining milliy madaniyat va tarixni asrashdagi rolini kuchaytirdi, yosh avlodga milliy qadriyatlarni yetkazishda muhim vosita bo'ldi. 2021-yildan boshlab Toshkent xalqaro kinofestivali qayta tiklandi va yangi formatda "Ipak yo'li durdonasi" nomi bilan tashkil etildi. Kinoijodkorlarni munosib rag'batlantirish uchun "Oltin humo" mukofoti ta'sis etildi. Ko'plab kino asarlar xalqaro festivallarda faxrli o'rinlarga sazovor bo'lmoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan "Tirik tarix" loyihasi doirasida eng qadimgi o'tmishdan yaqin tarixgacha bo'lgan davrni yorituvchi turkum filmlari yaratish ishlari yo'lga qo'yildi.



Bahodir Yo'ldoshev,
O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, atoqli rejissyor



"Oltin humo" mukofoti

IJODIY FAOLIYAT

1. O'zbekiston tarixi fanidan o'rganganlaringiz asosida yurtimizda teatrning paydo bo'lishi va asoschilari haqida ma'lumot bering.
2. Nima uchun teatrlar ma'naviyat va ma'rifat maskani hisoblanadi? Qaysi spektakllarni teatrda yoki televizor orqali tomosha qilgansiz?
3. Sahna va kino asarlari insonga qanday ma'naviy ozuqa beradi, tafakkurini rivojlantirishga qanday hissa qo'shadi?
4. Qaysi mashhur teatr va kino ijodkorlarini bilasiz?

t.me/rtm_metodik_xizmat



Munojot Yo‘lchiyeva



Ismoil Jalilov

Musiqa va raqs san’ati

Milliy o‘zlikni anglash va jahon madaniy muhitiga kirib borishda musiqa san’ati muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun mumtoz musiqa, maqom san’ati, baxshichilik, dostonchilik kabi an’anaviy janrlarni o‘rganish va targ‘ib qilishga katta e’tibor berildi. An’anaviy musiqa maktablarini saqlash va rivojlantirish, ustoz-shogird an’analarini qo‘llab-quvvatlashga oid maxsus dasturlar ishlab chiqildi. “Sharq taronalari”, “Navro‘z sadolari”, “Asrlarga tengdosh navolar”, “Boqiy ovozlar”, “O‘zbekiston – Vatanim manim” kabi musiqa tanlovlari va festivallar mamlakat madaniy hayotida muhim voqea bo‘ldi.

O‘zbekistonlik musiqachilar xalqaro festivallarda faol ishtirok etib, o‘zbek musiqasini dunyoga tanitdi. Bu kabi tadbirlar, festivallar o‘tkazish an’anaga aylandi. 1996-yildan boshlab “O‘zbekiston – Vatanim manim” nomli ko‘rik-tanlov o‘tkazila boshlandi. Tanlov Vatanni anglash va ulug‘lashga xizmat qiluvchi, mustaqillikni tarannum etuvchi yuzlab qo‘shiqlar yaratilishiga sabab bo‘ldi.

2002-yilda Toshkent davlat konservatoriyasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasiga aylantirildi. Konservatoriyaning yangi binosi qurildi. Bolalar musiqa va san’at maktablari, oliy o‘quv yurtlari tashkil etildi. “Nihol” davlat mukofoti, “Kamalak yulduzlari” bolalar festivali, “Sozlar navosi” ko‘rik-tanlovlari o‘tkazildi. Ular yangi iste’dodlarni kashf etishga xizmat qildi.

Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi ochilishi musiqa san’ati rivojlanishida muhim omil bo‘ldi. 2020-yilda uning negizida O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi tashkil etildi.

Milliy qo‘shiqchilik va estrada yo‘nalishi rivojlandi. Ko‘plab san’atkorlar milliy qo‘shiqchilik rivojiga munosib hissa qo‘shdi.

IJODIY FAOLIYAT

1. Nima uchun an’anaviy jonli musiqa (maqom, mumtoz ijro) ga milliy o‘zlikni anglash vositasi sifatida qaraladi?
2. “Asrlarga tengdosh navolar”, “O‘zbekiston – Vatanim manim” kabi tanlovlar qanday maqsadlarda tashkil etiladi?
3. Mustaqillik davrida ijod qilgan yana qaysi qo‘shiqchilarni bilasiz?

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

Tasviriy san’at va badiiy adabiyot

Mustaqillik davrida tasviriy san’at rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratildi. 1997-yilda O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tashkil etildi. Toshkent fotosuratlar uyi, O‘zbekiston tasviriy san’at galereyasi, O‘zbek liboslari galereyasi tashkil etildi. Madaniyat va san’at ko‘rgazmasi kabi bir qator yirik tadbirlar o‘tkazildi. “O‘zbekiston Respublikasi xalq ustasi” faxriy unvoni ta’sis etildi, “Hunarmand” uyushmasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida tasviriy san’at va haykaltaroshlik sohalarida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Akmal Nur, Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov, Ortiqali Qozoqov, Ilhom Jabborov kabi rassom va haykaltaroshlar o‘z asarlarida O‘zbekiston tarixi, madaniyati, buyuk ajdodlarimizning obrazlarini tasvirladi. Ularda milliy qahramonlarimizning jasorati, o‘zbek xalqining turmush tarzi va qadriyatlari ifodalandi.

Badiiy adabiyotda milliylik va umuminsoniy qadriyatlarga muhim ahamiyat berildi. Inson taqdiri, Vatan tuyg‘usi, zamon qahramonlari obrazini yaratish milliy adabiyotning bosh mavzulari sifatida namoyon bo‘ldi.

Klassik o‘zbek adabiyoti vakillarning asarlari qayta nashr etilib, ularning ijodiga yangicha yondashildi. Nasrda Shukur Xolmirzayev, Said Ahmad, O‘tkir Hoshimov, Tohir Malik, Xudoyberdi To‘xtaboyev, she’riyatda Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf singari ko‘plab ijodkorlar milliy adabiyotimiz rivojiga katta hissa qo‘shdi. Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Xayriddin Sulton, Xurshid Davron, Muhammad Ali kabi ijodkorlar Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Imom al-Buxoriy kabi tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan tarixiy romanlar, dramalar va dostonlar yaratdilar. Bu milliy tarixni qayta o‘rganish va uni adabiy shaklda aks ettirishga xizmat qildi.

Yozuvchilarni qo‘llab-quvvatlash borasida “Ijod” fondi tashkil etilib, yosh ijodkorlarning kitoblari chop etila boshladi.

2020-yili Toshkent shahrida Adiblar xiyoboni barpo etildi. Xiyobonda ko‘plab atoqli shoir va adiblarning haykali o‘rnatildi. Bu yerda yozuvchi, shoirlar va yoshlar o‘rtasida ijod kechalari tashkil etish an’anaga aylandi.



Adiblar xiyoboni



Abdulla Oripov va Erkin Vohidov



O‘tkir Hoshimov va Said Ahmad

t.me/rtm_metodik_xizmat

IJODIY FAOLIYAT

1. Mustaqillik davrida tasviriy san’at va adabiyotga qanday yangiliklar olib kirildi?
2. Abdulla Oripov yoki Muhammad Yusufning qaysi she’ri sizga eng ko‘p ta’sir qilgan va nima uchun?
3. Adiblar xiyoboni kabi maskanlarning yoshlar ma’naviy rivojidagi o‘rni qanday? Xiyobondagi nimalar sizni hayratlantiradi?



Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkentdagi “G‘alaba bog‘i” majmuasida joylashgan “Shon-sharaf” muzeyining ochilishida



Temuriylar tarixi davlat muzeyi

Muzeylar – tarix ko‘zgusi

O‘zbekiston muzeylari mamlakatning boy tarixi, madaniyati va san’atini aks ettiruvchi bebaho xazinadir. Mamlakatimizda tarix, arxeologiya, san’at, adabiyot, tabiat, politexnika, geologiya va boshqa sohalarga oid muzeylar mavjud.

Mustaqillik yillarida muzeylarni ta’mirlash, eksponatlar bilan boyitish, yangilarini barpo etishga alohida e’tibor berildi. 1996-yili Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Olimpiya shon-shuhrati muzeyi, 2002-yili Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi, Termiz shahrida Arxeologiya muzeyi tashkil etildi. Muzey sohasiga oid “Moziydan sado” jurnali faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

2017-yildan boshlab mamlakatimizda muzeyshunoslik sohasida yangi davr boshlandi. 2020-yili “Shon-sharaf” muzeyi va Toshkent muzeyi ish boshladi. Viloyatlarda yangi muzeylar ochildi. 2025-yil O‘zbekiston Milliy muzeyi qurilishiga tamal toshi qo‘yildi.

Yoshlar tarbiyasida muzeylarning ahamiyati katta. Shu bois har yili sentyabr oyida “Muzeylar haftaligi”, 18-may kuni esa Xalqaro muzeylar kuni keng nishonlanadi. Bu tadbirlar yoshlarni muzeylarga jalb etadi, ularda tarixiy merosga hurmat, Vatanga muhabbat va g‘urur tuyg‘ularini mustahkamlaydi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sizningcha, muzey nima uchun “tarix ko'zgusi” deb ham ataladi?
2. Qaysi muzeylarga borgansiz, ular sizda qanday taassurot qoldirgan?
3. Muzeylarning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni haqida nima deya olasiz?

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat



5-BOB

XALQARO MUNOSABATLAR VA TASHQI SIYOSAT

- **1992**-yil – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tashkil qilindi.
- **1992**-yil **20**-oktyabr – O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi.
- **1992**-yil **23**-noyabr – O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi.
- **1993**-yil **8**-yanvar – O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi.
- **1993**-yil **16**-fevral – O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi.







t.me/rtm_metodik_xizmat

17-MAVZU O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATINING SHAKLLANISHI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI

BILIB OLASIZ

O‘zbekistonning geosiyosiy holati.
Tashqi siyosiy faoliyatning shakllanishi.
Tashqi siyosatdagi asosiy tamoyillar.

YODDA TUTING!

Ikki tomonlama munosabatlar ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy yoki boshqa sohalardagi aloqa va hamkorlikdir.

O‘zbekistonning geosiyosiy holati

O‘zbekiston tarixan muhim geosiyosiy va geostrategik hududda joylashgan. Mamlakatimiz qulay geografik sharoit va boy tabiiy resurslarga ega. Bu omillar ichki va tashqi siyosatni belgilash hamda mamlakat rivojida juda muhim. Ta’kidlash kerakki, hech bir mamlakat jahon hamjamiyati bilan hamkorliksiz taraqqiy eta olmaydi. Tashqi siyosat davlatlarning geosiyosiy imkoniyati va rivojlanishini belgilaydi.

O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatida qator geosiyosiy imkoniyatlarga ega. Tarixan Sharq va G‘arb mamlakatlarini savdo-iqtisodiy hamda madaniy jihatdan tutashtirgan Buyuk ipak yo‘li O‘zbekiston hududidan o‘tgan. Yurtimiz hozir ham Sharq va G‘arb, Shimol va Janub mamlakatlari bilan faol hamkorlik aloqalarini olib bormoqda. Mamlakatimiz Markaziy Osiyoda yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro hamkorlik, savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanishida muhim o‘rin tutadi hamda qulay iqlim sharoiti, boy tabiiy resurslar hamda intellektual salohiyatga ega.

Biroq O‘zbekiston geosiyosiy joylashuvining o‘ziga xos noqulayliklari ham mavjud. Xususan, xalqaro dengiz portlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish imkoniyati yo‘q. Markaziy Osiyo mintaqasiga yaqin hududlardagi beqarorlik, xalqaro terrorizm, ekstremizm va turli ekologik muammolar mintaqa tashqi siyosati uchun noqulay omillar hisoblanadi. Shunga qaramay, O‘zbekiston tashqi siyosatda muhim yutuqlarga erishib kelmoqda.

Tashqi siyosiy faoliyatning shakllanishi

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining bosh maqsadi davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o‘rni va rolini mustahkamlashga, mintaqada xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, respub-

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

likaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surishga qaratilgan.

O‘zbekiston istiqlolning ilk yillaridayoq mustaqil tashqi siyosat yuritish, dunyo mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko‘ptomonlama hamkorlik o‘rnatishga harakat qildi.

Mustaqil tashqi siyosat olib borish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun mamlakatning sohaga mas’ul tuzilmalarini shakllantirish zarurati yuzaga keldi. Shunga asosan, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatini amalga oshiruvchi Tashqi ishlar vazirligi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Jahon siyosati, diplomatiya va xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida milliy kadrlar tayyorlash maqsadida 1992-yilda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-bobi “Tashqi siyosat” deb nomlanib, undagi 17–18-moddalar mamlakatning tashqi faoliyatini huquqiy jihatdan asoslaydi.

2017-yildan boshlab mamlakatimiz jahonning turli mamlakatlari va xalqaro tashkilotlari bilan ikki va ko‘ptomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirdi. Xalqaro va mintaqaviy muammolar bo‘yicha O‘zbekiston tashabbusi bilan Toshkent, Samarqand, Xiva va Buxoro shaharlarida nufuzli anjumanlar, forumlar, sammitlar tashkil etildi. Ushbu yirik anjumanlarda O‘zbekiston global va mintaqaviy muammolar bo‘yicha muhim tashabbuslarni ilgari surdi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yangi, ochiq va faol tashqi siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholanib, keng e’tirof etilmoqda. Xususan, nufuzli xalqaro tahlilchilarning fikricha, O‘zbekistonning tashqi siyosiy tashabbuslari nafaqat mamlakat, balki Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ham yangi hamkorlik va taraqqiyot imkoniyatlarni ochmoqda.

IJODIY FAOLIYAT

1. Buyuk ipak yo‘li O‘zbekiston tarixida qanday ahamiyatga ega bo‘lgan? Bugungi kunda-chi?
2. O‘zbekistonning tashqi siyosiy faoliyatida qanday muammolar va imkoniyatlar mavjud? Sizningcha, eng katta muammo qaysi?
3. Mustaqil O‘zbekistonda tashqi siyosat asoslari qanday shakllangan? Tashqi siyosatning huquqiy asoslari haqida ma’lumot bering.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

Xalqimiz yaqin istiqbolda jahon iqtisodiyoti, madaniyati va siyosatida o‘zining munosib o‘rnini egallaydi. Chunki jahon sivilizatsiyasida bizning qadimiy va mustahkam ildizlarimiz bor.

Shavkat Mirziyoyev

YODDA TUTING!

O‘zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko‘ptomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 18-modda

t.me/rtm_metodik_xizmat

Tashqi siyosatdagi asosiy tamoyillar

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilar:



Mamlakat harbiy-siyosiy bloklarga qo‘shilmaydi, barcha qarama-qarshiliklar va nizolarni faqat tinch siyosiy yo‘l bilan hal qilish tarafdoridir.

2025-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekiston 163 ta davlat, turli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘ygan. Shuningdek, 10 ga yaqin Markaziy Osiyo+ platformalari faoliyatida ishtirok etmoqda.

O‘zbekiston boshqa davlatlarning suvereniteti, hududiy yaxlitligi va ichki ishlariga aralashmaslik tamoyiliga amal qiladi. Tinchliksevar tashqi siyosat mamlakatning barqaror rivojlanishi, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Tashqi siyosiy faoliyatning shakllanishiga oid bilimlaringiz bilan o‘rtoqlashing.
2. Tashqi siyosatning asosiy tamoyillari qanday ustuvor masalalarni qamrab olgan?
3. Markaziy Osiyo + platformasi bo‘yicha qanday ma’lumotlarga egasiz? O‘qituvchingiz yordamida qo‘shimcha ma’lumotlarni topib o‘rganing.

t.me/rtm_metodik_xizmat

18-MAVZU MARKAZIY OSIYO – O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHI

BILIB OLASIZ

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikning ustuvor jihatlari.
O‘zbekistonning Qozog‘iston va Qirg‘iziston bilan hamkorligi.
O‘zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston munosabatlari.

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikning ustuvor jihatlari

Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy beshiklaridan biridir. Mintaqadagi besh mamlakat – O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston tarixi, dini, madaniyat va qadriyatlari mushtarak davlatlardir. O‘zbekiston mintaqadagi barcha mamlakatlar va Afg‘oniston bilan chegaradosh. Mintaqa mustaqillikning ilk yillariga qadar O‘rta Osiyo nomi bilan atab kelindi.



“Do‘stlik” stelasining tantanali ochilishi. Tojikiston Respublikasi Xo‘jand shahri, 2025-yil

1993-yili Toshkentda bo‘lib o‘tgan anjumanda “Markaziy Osiyo” iborasi siyosiy va hududiy atama sifatida ishlatildi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari turli yillarda o‘zaro rasmiy tashriflar, xalqaro va mintaqaviy darajadagi anjumanlar doirasida uchrashuvlar o‘tkazdi.

1994-yilda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, keyinchalik Tojikiston ishtirokida iqtisodiy hamjamiyat tashkil etildi. 2002-yilda bu tuzilma “Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti”ga aylantirildi. 2006-yilda tashkilot Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga qo‘shilib, faoliyatini to‘xtatdi. Shundan so‘ng uzoq vaqt davomida mintaqada integratsiya sustlashib qoldi.

2017-yilda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari munosabatlarida yangi davr boshlandi. Markaziy Osiyo O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilandi. Mintaqa davlatlari o‘rtasida chegaralarni belgilash bo‘yicha ijobiy kelishuvlarga erishildi. O‘zbekiston va Qozog‘iston chegaralarni huquqiy rasmiylashtirishni yakunladi. Turkmaniston, Tojikiston va Qirg‘iziston bilan chegara masalalari bo‘yicha muhim natijalarga erishildi. Chegaradagi o‘nlab o‘tkazish punktlari o‘z



O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston chegaralari tutashgan hududdagi “Do‘stlik” stelasi

t.me/rtm_metodik_xizmat

faoliyatini tiklab, mintaqa mamlakatlariga borib-kelishni yanada yengillashtirdi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi tashkil etildi. Bunday uchrashuvlarni muntazam o‘tkazish g‘oyasi ilk bor O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yilda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan. Birinchi Maslahat uchrashuvi 2018-yili Ostonada, ikkinchisi 2019-yili Toshkent shahrida bo‘lib o‘tdi. Shundan so‘ng Maslahat uchrashuvi an’anaviy muloqot platformasiga aylandi. 2025-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Qirg‘iziston Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov uch mamlakat davlat chegaralari tutashgan hududda – Xo‘jand shahrida “Do‘stlik” stelasini tantanali ravishda ochdilar. Ushbu yodgorlik qardosh xalqlar do‘stligi va birligini ifoda etdi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston hamkorligi



1992-yili Turkiston shahrida O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi. 1998-yilda ikki davlat Abadiy do‘stlik to‘g‘risida, 2013-yilda Strategik sheriklik to‘g‘risida shartnomalarni imzoladi. O‘zbekiston va Qozog‘iston Markaziy Osiyoda muhim ahamiyatga ega davlatlardir. Ularning o‘zaro munosabatlari mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi.



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart To‘qayev

2018-yil Qozog‘istonda “O‘zbekiston yili”, 2019-yil O‘zbekistonda “Qozog‘iston yili” deb e’lon qilindi. Qozog‘iston O‘zbekistonning uchinchi yirik tashqi savdo hamkoridir. 2020–2025-yillarda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi tovar ayirboshlash barqaror o‘sib bordi. Har ikki mamlakatda qo‘shma korxona hamda kompaniyalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Qozog‘istonda O‘zbekiston kapitali ishtirokida avtomobillar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Davlat rahbarlarining o‘zaro tashriflari amalga oshdi. 2024-yili Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart To‘qayev Toshkentga, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev esa Ostonaga tashrif buyurdi. Muzokaralar O‘zbekiston–Qozog‘iston aloqalarini chuqurlashtirish, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni kengaytirishga zamin yaratdi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev do‘stona munosabatlarni mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hissasi uchun Qozog‘istonning “Oltin Qiron” (“Oltin burgut”) ordeni bilan taqdirlandi.

t.me/rtm_metodik_xizmat

Mamlakatimizda 14 ta qozoq milliy madaniy markazi, ta'lim qozoq tilida olib boriladigan o'quv muassasalari mavjud. O'zbekistonda qozoq shoiri va mutafakkiri Abay Qo'nonboyev ijodiy merosini o'rganish va targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratildi. Ostona shahrida Alisher Navoiy haykali o'rnatildi. O'zbekiston va Qozog'iston hamkorligi ko'p qirrali va strategik ahamiyatga ega. O'zaro munosabatlar manfaatli va ishonchli bo'lib, mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotga muhim hissa qo'shadi.

O'zbekiston – Qirg'iziston aloqalari



O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida 1993-yilda diplomatik munosabatlar o'rnatildi. 1996-yili ikki mamlakat o'rtasida Abadiy do'stlik to'g'risidagi shartnoma imzolandi. O'zaro aloqalar do'stona va strategik sheriklik asosiga qurilgan. O'zbekiston va Qirg'iziston mintaqaviy integratsiya jarayonida faol ishtirok etadi.



Savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, energetika sohalaridagi hamkorlik rivojlanib bormoqda. "Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston" temiryo'lini qurish bo'yicha dastlabki kelishuvlarga erishildi. 2024-yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov ishtirokida Farg'ona va Namangan viloyatlarida quyosh stansiyalarini qurish, Qirg'iz Respublikasining Chuy viloyatida avtomobillar, Qora-Baltada to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha muhim loyihalarga start berildi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov

Madaniy-gumanitar sohada ham hamkorlik rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda ta'lim qirg'iz tilida olib boriladigan o'quv muassasalari va qirg'iz madaniy markazlari mavjud. Bishkek va O'sh shaharlarida O'zbekiston madaniyati va san'ati, Toshkent va Samarqandda esa Qirg'iziston madaniyati va san'ati kunlari o'tkazildi. 2018-yilda O'zbekistonda qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov tavalludining 90 yilligi keng nishonlandi.

O'zbekiston va Qirg'iziston hamkorligi iqtisodiy va madaniy aloqalarni chuqurlashtirish, mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

t.me/rtm_metodik_xizmat

O‘zbekiston va Tojikiston munosabatlari



O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yilda o‘rnatilgan. 1993-yili Do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma imzolangan. 1998-yili Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning Toshkentga, 2000-yili O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Dushanbega rasmiy tashrifi amalga oshdi. Ushbu tashriflar asosida Abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi.



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon

O‘zbekiston va Tojikiston chegaradosh davlatlar bo‘lib, geografik yaqinlik hamkorlik uchun qulay sharoit yaratadi. O‘zbekiston Tojikistonning beshta eng yirik savdo hamkoridan biri hisoblanadi. O‘z navbatida, Tojikiston ham O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasida muhim o‘nta davlat qatorida turadi. Ikki davlat hamkorligidagi qo‘shma korxonalar ishga tushirilgan. 2021-yildan buyon “Toshkent – Dushanbe – Toshkent” muntazam aviaparvozlari, 2022-yildan buyon “Samarqand – Dushanbe”, “Panjikent – Samarqand” xalqaro avtobus qatnovlari tiklandi. Ikki mamlakatlar avtomobil va temiryo‘llari o‘zaro bog‘langan. Davlat rahbarlarining tashrifi asosida har ikki davlat uchun manfaatli kelishuvlarga erishildi. Xususan, 2024-yili O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Dushanbe shahriga tashrifi doirasida O‘zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o‘rtasida Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi. Ittifoqchilik shartnomasi siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalarni yanada rivojlantirishga asos bo‘ldi.

O‘zbekistonda ta’lim tojik tilida olib boriladigan maktablar, tojik milliy madaniyat markazlari tashkil etilgan. Har ikki xalq do‘stligining ramzi sifatida 2018-yili Samarqand hamda Dushanbe shaharlarida buyuk mutafakkirlar – Navoiy va Jomiy haykallari o‘rnatildi.

Ikki davlat pandemiya va tabiiy ofatlar yuz bergan og‘ir kunlarda bir-birlariga o‘zaro yordam ko‘rsatib, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni yanada mustahkamladilar.

IJODIY FAOLIYAT

1. Markaziy Osiyo mintaqasi tashqi siyosatda qanday imkoniyatlarga ega?
2. O‘zbekiston va Qozog‘iston hamkorligi mintaqa barqarorligida qanday ahamiyatga ega?
3. O‘zbekiston – Qirg‘iziston hamkorligining eng muhim yo‘nalishlari qaysi sohalarda namoyon bo‘ladi?

t.me/rtm_metodik_xizmat

O‘zbekiston va Turkmaniston hamkorligi



O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar 1993-yilda o‘rnatilgan. 1996-yili Do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2007-yilda Turkmanistonga va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov 2008-yili O‘zbekistonga tashrif buyurdi. O‘zaro hamkorlik ko‘p asrlik do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va hurmatga asoslangan. Ikki tomonlama munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilgan.



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Prezidenti sifatida ilk xorijiy tashrifini Turkmanistondan boshladi. 2018-yili Turkmanistonning o‘sha vaqtdagi Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov, 2022-yilda esa Turkmanistonning yangi saylangan rahbari Serdar Berdimuhamedov mamlakatimizga tashrif buyurdi. O‘zaro tashriflar hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

O‘zbekiston va Turkmaniston mintaqadagi muhim savdo-iqtisodiy hamkorlardir. O‘zbekiston va Turkmaniston kapitali ishtirokida har ikki mamlakatda ko‘plab qo‘shma korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ikki mamlakat o‘rtasida erkin savdo rejimi joriy etilgan. 2025-yili O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmanboshi shahridagi “Avaza” milliy turizm hududida BMTning Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiyasida ishtirok etdi. Shu yili O‘zbekiston – Turkmaniston – Ozarbayjon davlatlari rahbarlarining uch tomonlama uchrashuvi ham bo‘lib o‘tdi. Ushbu uchrashuvlar siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Mamlakatimizda ta’lim turkman tilida olib boriladigan maktablar va turkman madaniyat markazi mavjud. 2018-yili Urganch shahrida “O‘zbek – turkman do‘stlik uyi” ochildi. Buyuk shoir va mutafakkirlar Alisher Navoiy hamda Maxtumquli Firog‘iy ijodi o‘zbek hamda turkman xalqlarining umumiy merosi hisoblanadi. Toshkent shahrida turkman shoiri Maxtumquli Firog‘iy nomidagi ko‘cha ochildi. Shuningdek, poytaxtimizda “Ashxobod” bog‘ining ishga tushirilishi xalqlarimizning mustahkam do‘stligi va madaniy yaqinligining yorqin ramzi bo‘ldi.

SAVOL VA TOPSHIRIQ

1. O‘zbekiston va Tojikistonning geografik yaqinligi va tarixiy qadriyatlari mushtarakligi qanday hamkorlik imkoniyatlarini yaratadi?
2. O‘zbekiston – Turkmaniston hamkorligining eng istiqbolli yo‘nalishi qaysi: siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy?
3. Nima uchun Markaziy Osiyo O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida muhim ahamiyatga ega?

t.me/rtm_metodik_xizmat

19-MAVZU O‘ZBEKISTON VA DUNYONING YETAKCHI MAMLAKATLARI HAMKORLIGI

BILIB OLASIZ

O‘zbekiston va Rossiya munosabatlari.
O‘zbekiston va Xitoy aloqalari.
O‘zbekiston va AQSH hamkorligi.
O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari aloqalari.



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin

O‘zbekiston va Rossiya munosabatlari



O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida 1992-yilda diplomatik munosabat o‘rnatilgan. Davlatlar rahbarlari ikki hamda ko‘ptomonlama tashriflarda bir necha bor uchrashdi. Jumladan, 2000-yilda Rossiya Prezidenti etib saylangan Vladimir Putin o‘zining xorijga ilk rasmiy tashrifini O‘zbekistondan boshladi. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ham 2001-yilda davlat tashrifi bilan Rossiyaga bordi. Bu esa mamlakatlar o‘rtasida teng huquqli va o‘zaro foydali hamkorlikning yanada rivojlanishiga xizmat qildi. O‘zbekiston va Rossiya mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash, terrorizm, ekstremizm va narkotrafikka qarshi kurashda faol hamkorlik qiladi. Ikki davlat o‘rtasida yuqori darajadagi muntazam siyosiy muloqot yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida 1992-yilda Davlatlararo munosabatlar, Do‘stlik asoslari to‘g‘risida, 2004-yilda Strategik sheriklik to‘g‘risida, 2005-yilda Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risida shartnomalar imzolandi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017–2025-yillar oralig‘ida Rossiyaga rasmiy va amaliy tashriflari o‘zaro munosabatlarni yangi bosqichga ko‘tardi. Rossiya Prezidenti Vladimir Putin turli yillarda O‘zbekistonga tashrif buyurdi. 2022-yilda esa davlatlar o‘rtasida Keng qamrovli strategik sheriklik to‘g‘risidagi deklaratsiya imzolandi. O‘zbekistonning Rossiya bilan savdosi ikki tomonlama va MDH doirasidagi ko‘ptomonlama kelishuvlarga muvofiq amalga oshiriladi. Rossiya O‘zbekistonning ikkinchi eng yirik savdo sherigidir. Savdo aylanmasi muntazam o‘sib bormoqda. Ikki davlat ishtirokida ko‘plab qo‘shma korxonalar faoliyat olib bormoqda.

Mamlakatlar o‘rtasida madaniy aloqalar keng rivojlanmoqda. O‘zbekistonda ta’lim rus tilida olib boriladigan muassasalar mavjud. Yurtimizda Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti, Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti, Butunrossiya kinematografiya instituti va boshqa ko‘plab nufuzli oliy ta’lim muassasalari filiallari tashkil etilgan. Rus milliy madaniy markazlari faoliyat ko‘rsatmoqda. An’anaviy ravishda Rossiya va O‘zbekiston madaniyati kunlari tashkil etilmoqda.

t.me/rtm_metodik_xizmat

O‘zbekiston va Xitoy aloqalari



1992-yilda O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Xitoy O‘zbekistonning asosiy savdo hamkoridir. Mamlakatimizda Xitoy sarmoyasi ishtirokida ko‘plab qo‘shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Yirik loyihalardan hisoblangan Pop – Angren temiryo‘li va Qamchiq tunneli Xitoy hamkorligida barpo etildi.



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017–2025-yillar oralig‘ida Xitoyga davlat tashriflari o‘zaro hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tardi. Mamlakatlar o‘rtasida yangi, keng qamrovli strategik sheriklik o‘rnatildi. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida yildan yilga savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlanib, o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi oshib bormoqda. Jumladan, ikki davlat o‘rtasida transport-kommunikatsiya, avtomobilsozlik, maishiy texnika, qishloq xo‘jaligi, og‘ir va yengil sanoat sohalarida iqtisodiy aloqalar rivojlangan. Eksimbank, Xitoy davlat taraqqiyot banki, “Ipak yo‘li” jamg‘armasi kabi institutlar bilan keng ko‘lamli sheriklik o‘rnatilgan. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida 30 kungacha vizasiz rejim joriy etilgan.

Madaniy-gumanitar aloqalar rivojlanib bormoqda. Toshkent va Samarqand shaharlarida Konfutsiy instituti ochilgan. Xitoy Millatlar markaziy universiteti va Shanxay xorijiy tillar universitetida o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro hamkorlik, tenglik va bir-birining manfaatlarini hurmat qilish tamoyillariga asoslangan.

YODDA TUTING!

O‘zbekiston Xitoy bilan BMT va SHHT kabi xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar doirasida, shuningdek, “Bir makon – bir yo‘l”, “Markaziy Osiyo – Xitoy” formatlari doirasida hamkorlik qilmoqda.

O‘zbekiston va AQSH hamkorligi



O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yili o‘rnatilgan. Shu yili Toshkentda AQSH, 1993-yili Vashingtonda O‘zbekiston elchixonasi ochildi. 1996-yil iyunda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov AQSHga rasmiy tashrif buyurdi. O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi hamkorlik ko‘p qirrali bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik va gumanitar sohalarni qamrab oladi.



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp. Nyu York shahri, 2025-yil

t.me/rtm_metodik_xizmat

2018-yilda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning AQSHga birinchi rasmiy tashrifi bo‘lib o‘tdi. Unda Strategik sheriklikning yangi davri haqida qo‘shma bayonot qabul qilindi. Shundan so‘ng 2025-yilda BMTning 80-sessiyasi doirasida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va AQSH Prezidenti Donald Tramp uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Tashrifda muhim kelishuvlarga erishildi. Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSH “C 5+1” (Markaziy Osiyo – AQSH) formatida ham o‘zaro hamkorlik qilmoqda. O‘zbekistonda AQSHning “General Motors”, “Coca-Cola”, “Hilton”, “Honeywell” kabi ko‘plab yirik kompaniyalari faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekistonlik talabalar va tadqiqotchilar AQSH universitetlarida tahsil olmoqda hamda tajriba almashmoqda. Toshkentda AQSHning Vebster universiteti filiali ish boshladi. O‘zaro madaniyat va san’at kunlari tashkil etildi. Amerikalik olim Frederik Starrning “Unutilgan ma’rifat: Markaziy Osiyoning arab istilosidan to Amir Temur davrigacha bo‘lgan oltin asri” hamda “O‘zbekistonning yangi qiyofasi” kitoblari chop etildi.

O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari aloqalari

O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘ygan. 1996-yili Florensiya (Italiya) shahrida O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida sheriklik va hamkorlik to‘g‘risida bitim imzolandi. Mamlakatimizning “ko‘hna qit’a”dagi Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya va boshqa davlatlar bilan aloqalari rivojlanib bormoqda.



O‘zbekiston Prezidenti va Yevropa Ittifoqi yetakchilari Samarqand sammitida. 2025-yil

2017-yildan boshlab O‘zbekiston va Yevropa mamlakatlari hamkorligida yangi davr boshlandi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019–2025-yillar oralig‘ida Germaniya, Fransiya, Italiya va Vengriya kabi Yevropa davlatlariga tashriflarni amalga oshirdi. Ushbu tashriflar O‘zbekiston va Yevropa mamlakatlari o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga asos bo‘ldi. O‘zbekiston Yevropa mamlakatlari bilan BMT, Yevropa Ittifoqi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti doirasida hamkorlik olib bormoqda. Shuningdek, “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” formati asosida ham hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. 2025-yili Samarqandda “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti bo‘lib o‘tdi. Sammit o‘zaro hamkorlikning yangi bosqichlarini boshlab berdi.

Germaniya va O‘zbekiston diplomatik munosabatlari 1992-yili o‘rnatilgan va turli yillarda yuqori darajadagi tashriflar amalga oshirilgan. Bu davlat O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqidagi eng yirik savdo hamkori hisoblanadi. O‘zbekistonda Germaniyaning “Volkswagen”, “Siemens”, “Knauf” kabi yetakchi kompaniyalari faoliyat olib bormoqda. Germaniya akademik almashinuv xizmati (DAAD) o‘zbekistonlik talabalarga mamlakatning yetakchi universitetlarida o‘qish uchun stipendiyalar ajratadi. Germaniyada O‘zbekiston madaniyati kunlari muntazam o‘tkaziladi. O‘zbek san’atkorlari u yerda konsertlar va ko‘rgazmalar tashkil etadi. Toshkentda Gyote instituti faoliyat yuritadi.

t.me/rtm_metodik_xizmat

Italiya 1992-yilda O‘zbekistonning mustaqilligini tan olgan va diplomatik munosabatlar o‘rnatgan. Toshkent va Rim shaharlarida diplomatik vakolatxonalar ochilgan. Toshkentda “O‘zbekiston – Italiya” do‘stlik jamiyati faoliyat yuritmoqda.

YODDA TUTING!

Biyennale *– xalqaro miqyosdagi yirik ko‘rgazma yoki madaniy san’at tadbiri bo‘lib, odatda har ikki yilda bir marta o‘tkaziladi.*

Italiya O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqidagi muhim savdo hamkorlaridan biridir. O‘zbekiston 2020-yildan buyon Venetsiyada o‘tkaziladigan zamonaviy madaniyat, san’at va arxitektura biyennalelarida ishtirok etmoqda. Italiyaning qadimiy Florensiya va Rim shaharlarida O‘zbekiston madaniyati kunlari bo‘lib o‘tdi. Mamlakatimizda Turin va Piza universitetlarining filiallari faoliyat yuritmoqda. Ikki davlat munosabatlari o‘zaro manfaatli iqtisodiy, madaniy va texnologik rivojlanish imkoniyatlarini yaratdi.

Fransiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yilda o‘rnatilgan. O‘zbekiston Fransiyaning Markaziy Osiyodagi muhim hamkoridir. Ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy muloqot yuqori darajada. Fransiya kompaniyalari O‘zbekiston iqtisodiyotining energetika, transport va qishloq xo‘jaligi sohalariga investitsiya kiritdi. 2018-yilga kelib, o‘zaro aloqalar rivoji yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yevropaga ilk tashrifini Fransiyadan boshladi. 2022-yili Luvr muzeyida Markaziy Osiyo tarixiga oid ko‘rgazma o‘tkazildi. Toshkent va Samarqand shaharlarida “Fransuz alyansi” tashkiloti fransuz tilini o‘rganishga hissa qo‘shmoqda. Arxeologiya sohasida qo‘shma ekspeditsiyalar tashkil etilgan. 2023-yilda Fransiya prezidenti Emmanuel Makron O‘zbekistonga rasmiy tashrif bilan keldi. Tashriflar o‘zaro hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini ochib berdi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil Fransiyaga davlat tashrifi doirasida ikki mamlakat rahbarlari strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risida tarixiy qarorga keldilar.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi jadvalni daftaringizda to‘ldiring. Har bir ustunga tegishli davlatga oid ma’lumotlarni yozing.

Ko‘rsatkichlar	Rossiya	Xitoy	AQSH	Yevropa Ittifoqi mamlakatlari
Diplomatik aloqalar o‘rnatilgan yil				
Muhim tashriflar sanasi				
Hamkorlik yo‘nalishlari				
Madaniy aloqalarga misollar				

2. O‘zbekiston va Rossiya munosabatlarining asosiy yo‘nalishlari haqida so‘zlab bering.

3. O‘zbekistonning Xitoy bilan aloqalari qachon yangi bosqichga ko‘tarilgan?

4. O‘zbekiston va AQSH qaysi xalqaro tashkilot va formatlar doirasida hamkorlik olib boradi?

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

20-MAVZU O‘ZBEKISTON VA SHARQNING RIVOJLANGAN DAVLATLARI ALOQALARI

BILIB OLASIZ

O‘zbekistonning Yaponiya va Koreya Respublikasi bilan hamkorligi.

O‘zbekistonning Hindiston ва Turkiya bilan aloqalari.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

O‘zbek va yapon xalqlarini o‘xshash milliy va axloqiy qadriyatlar bilan birga ilm-fan va tafakkurga, kamolotga doimo intilib yashash kabi ezgu fazilatlar birlashtirib turishini e’tirof etmoqchiman.

Shavkat Mirziyoyev



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Nagoya universitetining faxriy doktori unvoni bilan taqdirlangan

O‘zbekistonning Yaponiya va Koreya Respublikasi bilan hamkorligi



Yaponiya – O‘zbekiston diplomatik munosabatlari 1992-yilda o‘rnatilgan. Turli yillarda Toshkentda va Tokioda elchixonalar ochildi. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1994– va 2002-yillarda rasmiy tashrif bilan Yaponiyada bo‘ldi.

Kunchiqar mamlakat bilan hamkorlikda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi, Toshguzar – Boysun – Qumqo‘rg‘on temiryo‘li, Samarqand, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlari, Navoiy va Tallimarjon IESda modernizatsiya ishlari bajarildi.

1999-yili Toshkentda “O‘zbekiston – Yaponiya” do‘stlik jamiyati ta’sis etildi. 2004-yili Soka universitetida ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy haykali o‘rnatildi. Yaponiya xalqaro hamkorlik dasturi asosida o‘zbekistonlik talabalar mamlakat universitetlarida ta’lim olmoqda. Yaponiyaning Sukuba universiteti, Tokio xorijiy tillar universitetida o‘zbek tili, shuningdek, O‘zbekistonning qator oliy ta’lim muassasalarida yapon tili o‘qitiladi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovga Vaseda va Soka universitetlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga Nagoya universiteti faxriy doktori unvoni berilgan.

2019-yili O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan Yaponiyada bo‘ldi. Tashrif o‘zaro munosabatlarni yanada rivojlantirishga asos yaratdi. O‘zbekiston Yaponiya bilan BMT hamda “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqoti doirasida hamkorlik olib bormoqda. 2020–2025-yillarda mamlakatlar o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi oshib bordi. O‘zbekistonda Yaponiyaning yetakchi kompaniya va banklari ishtirokida turli iqtisodiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda

t.me/rtm_metodik_xizmat

ko‘plab o‘zbek-yapon qo‘shma korxonalari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar strategik sheriklik ruhida rivojlanib, mintaqaviy va xalqaro maydonda hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yili o‘rnatilgan. 2006-yilda Strategik sherikchilik to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya imzolandi. O‘zbekistonda Koreya bilan hamkorlikda “UzDaewoo” avtomobilsozlik korxonasi tashkil etildi. 2008-yildan beri “Korean Air” kompaniyasi Navoiy xalqaro aeroporti orqali yuk tashimoqda.

O‘zbekiston Janubiy Koreyaga asosan tabiiy resurslar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qiladi. Koreya Respublikasidan mamlakatimizga transport vositalari, mexanik va elektron asbob-uskunalar import qilinadi. Ikki mamlakat “Markaziy Osiyo – Koreya” forumi doirasida ham hamkorlik qilmoqda.

2017- va 2019-yillarda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi. O‘zaro tashriflar hamkorlikning yangi istiqbollarini belgilab berdi. O‘zbekistonda Koreya Respublikasining “Samsung”, “LG”, “Hyundai” kabi ko‘plab yetakchi kompaniyalari faoliyat olib bormoqda. 2023-yilda “KIA” kompaniyasi bilan hamkorlikda Jizzax viloyatida zamonaviy avtomobillar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Koreya xalqaro hamkorlik agentligi va Eksimbanki O‘zbekistonning faol iqtisodiy hamkorlari hisoblanadi. Koreya madaniyati uyi, Toshkentdagi Seul bog‘i va Seul ko‘chasi ikki mamlakat do‘stligi va hamkorligining ramziga aylangan.

Koreyaning 30 dan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasasi bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Qator ta’lim muassasalarida koreys tili hamda koreys madaniyati markazlari ochilgan. O‘zbekistonda Koreya Respublikasining Inha, Adju, Puchon kabi universitetlari faoliyat yuritadi. Ikkala davlat o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro manfaatli va ishonchli bo‘lib, mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotga muhim hissa qo‘shmoqda.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

Koreya davlati bizdan ancha olisda joylashgan bo‘lsa-da, xalqlarimizning urf-odat va qadriyatlari, ma’naviy olami va dunyoqarashi bir-biriga o‘xshashdir.

Shavkat Mirziyoyev

O‘zbekistonning Hindiston va Turkiya bilan aloqalari



O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yilda o‘rnatilgan. 1995-yilda Toshkentda La’l Bahodir Shastri nomidagi Hind madaniyati markazi tashkil etildi. Shuningdek, Hindistonning Amiti va Sharda universitetlari filiallari ochildi. Hindis-



t.me/rtm_metodik_xizmat



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi

tonlik turistlar O‘zbekistonning Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlariga, o‘zbekistonlik sayyohlar Dehli, Agra, Jaypur, Mumbay kabi shaharlarga sayohat qilmoqda. Hind san’ati ustalari Samarqandda o‘tadigan xalqaro “Sharq taronalari” musiqa festivalida faol qatnashib keladi. 2017-yili Dehlidagi Jamiya Milliya Islamiya universitetida o‘zbek tili va madaniyati markazi ochildi.

2018-yilda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Hindistonga rasmiy tashrifi o‘zaro munosabatlarning yangi davrini boshlab berdi.

2022-yili Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi SHHT sammitida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan O‘zbekistonga keldi. Davlatimiz rahbari Hindistonda bo‘lib o‘tgan “Jo‘shqin Gujarat” va “Global Janub ovozi” sammitlarida faol ishtirok etdi. O‘zbekiston “Hindiston – Markaziy Osiyo” formati doirasida strategik sheriklik va amaliy hamkorlikni yanada kengaytirishga intilmoqda. O‘zbekiston va Hindiston xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT va SHHT doirasida ham hamkorlik qiladi. 2025-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda Hindiston universitetlarining filiallari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Hindiston texnik va iqtisodiy hamkorlik dasturi doirasida o‘zbekistonlik mutaxassislar ushbu mamlakatda malaka oshirmoqdalar. Ta’kidlash kerakki, ikki mamlakat hamkorligi tarixi qadim davrlarga borib taqaladi. Tarixda ming yillar mobaynida ikki xalq o‘rtasida o‘zaro madaniy almashinuvlar va savdo-iqtisodiy aloqalar yo‘lga qo‘yilgan. Shunga asosan, ikki xalq madaniyati, an’analari va qadriyatlari bir-birini boyitib kelgan. Toshkent va Dehli, Samarqand va Agra, Buxoro va Haydarobod kabi qadimiy va zamonaviy shaharlar tarixda ham, hozir ham dunyo tamaddunida o‘z o‘rni va salohiyatiga ega. Ikki davlat o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi mamlakatlar taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.



2024-yili Anqaraga tashrifi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Turkiya Respublikasi nishoni” bilan taqdirlandi

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yilda o‘rnatilgan. 1996-yilda Abadiy do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi. 1999-yili Samarqandda “SamKochAvto” qo‘shma korxonasi ishga tushirildi.

t.me/rtm_metodik_xizmat

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017–2024-yillarda Turkiyaga bir necha marotaba tashrif buyurdi. Tashriflar ikki davlat munosabatlarida yangi sahifa ochdi. O‘z navbatida Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning 2018–2022-yillarda yurtimizga davlat tashriflari aloqalarni yanada rivojlantirdi. Turkiyaning yetakchi kompaniyalari O‘zbekiston bozorida faol ishlamoqda. Turk biznesi ishtirokida ko‘plab loyihalar samarali amalga oshirilmoqda. Ikki davlat xalqaro maydonda BMT, Islom hamkorlik tashkiloti va Turkiy davlatlar tashkiloti kabi xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar doirasida aloqalar olib bormoqda.

O‘zbekiston va Turkiya xalqlarini umumiy til, din, madaniyat va tarix birlashtiradi. O‘zaro hamkorlik mushtarak tarixiy ildizlarga ega mamlakatlarning strategik sherikligiga asoslangan. Ushbu hamkorlik ikki davlatning iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston tashqi siyosatda Janubi-sharqiy Osiyoning Indoneziya, Vyetnam, Bruney, Malayziya, Singapur va Tailand kabi yangi industrial mamlakatlari, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni, Kuvayt, Misr, Qatar, O‘mon kabi davlatlar bilan hamkorlik qilmoqda. O‘zaro aloqalar savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikning rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

O‘zbekiston Turkiyaga o‘zining muhim va uzoq muddatli hamkori sifatida qaraydi, xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlash, hamkorlikni o‘zaro ishonch tamoyillari asosida rivojlantirish tarafdoridir.

Shavkat Mirziyoyev

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Soka universitetida Navoiy haykalining o‘rnatilishi qanday tarixiy-madaniy ahamiyatga ega?
2. Buyuk ipak yo‘li tarixiga tayanib, O‘zbekiston va Sharqiy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi bugungi aloqalarni qanday tarixiy izchillikda ko‘rasiz?
3. O‘zbekistonning Sharqiy Osiyo davlatlari bilan aloqalari global siyosiy sahnadagi mavqeyimizni qanday mustahkamlashi mumkin?
4. Hindiston va O‘zbekiston aloqalarida qadimgi Buyuk ipak yo‘lining ta’siri ko‘zga tashlanadimi?
5. O‘zbekistonning Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalari qanday tarixiy hodisalarga bog‘liq bo‘lishi mumkin?
6. O‘zbekistonning Turkiya bilan hamkorligi faqat tarixiy yaqinlikka asoslanganmi yoki strategik manfaatlar ham mavjudmi? Fikringizni misollar bilan izohlang.
7. Mavzu bo‘yicha darsda sizni eng ko‘p qiziqtirgan hamkorlik yo‘nalishi qaysi bo‘ldi? Nima uchun?
8. O‘zbekistonning qaysi davlat bilan hamkorligiga hissa qo‘shishni istaysiz? Qaysi sohada? Buning uchun sizdan qanday bilim, ko‘nikma va malaka talab qilinadi?

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat



6-BOB

XALQARO VA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIK

- **1991**-yil **21**-dekabr – O‘zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH)ga qabul qilindi.
- **1992**-yil **2**-mart – O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ga a’zo bo‘ldi.
- **1993**-yil **26**-oktyabr – O‘zbekiston YUNESKO a’zoligiga qabul qilindi.
- **2001**-yil **15**-iyun – O‘zbekiston Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT)ga a’zo bo‘ldi.
- **2019**-yil **15**-oktyabr – O‘zbekiston Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) sammitida ilk bor to‘la huquqli a’zo sifatida ishtirok etdi.





t.me/rtm_metodik_xizmat

21-MAVZU O‘ZBEKISTON VA BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI: O‘ZARO HAMKORLIKNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

BILIB OLASIZ

O‘zbekiston va BMT hamkorligining ustuvor yo‘nalishlari.
BMT doirasidagi xalqaro tashabbuslar.
O‘zbekiston va BMT hamkorligining yangi bosqichi.
O‘zbekiston va YUNESKO: xalqaro madaniy aloqalar.

O‘zbekiston va BMT hamkorligining ustuvor yo‘nalishlari

Ko‘p tomonlama hamkorlik xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi aloqalarni bildiradi. O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) hamda boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan ko‘ptomonlama hamkorlik olib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-mart kuni mustaqil davlat sifatida BMTga a’zo bo‘ldi. 1993-yili Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi. O‘z navbatida, Nyu York hamda Jeneva shaharlarida O‘zbekiston Respublikasining BMTdagi vakolatxonalari tashkil etildi. Mamlakatimizda BMTning qator ixtisoslashgan muassasalari va dasturlari faoliyat yuritmoqda.

Mintaqaviy tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, ekologik muammolarni bartaraf etish, barqaror taraqqiyot, ta’lim, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish, madaniy meros obidalarini asrash O‘zbekiston va BMT hamkorligining ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

O‘zbekiston siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan barqaror rivojlanib borayotgan, jahon siyosatida o‘z o‘rni va nufuziga ega mamlakat sifatida BMT bilan hamkorlikni rivojlantirmoqda. 2002-yili BMT Bosh kotibi Kofi Annan, 2010- va 2015-yili Pan Gi Mun, 2017- va 2024-yillarda Antoniu Guterrish O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Bu O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatda nufuzi ortib borayotgani hamda BMT bilan o‘zaro munosabatlar yanada rivojlanayotganini bildiradi.

O‘z navbatida, O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov va O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev turli yil-



YODDA TUTING!

BMT 1945-yilda tashkil etilgan universal xalqaro tashkilotdir. Uning shtab-kvartirasi Nyu York shahrida joylashgan. BMT tizimida Jahon banki guruhi, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, YUNESKO va YUNISEF kabi bir qator ixtisoslashgan muassasalar mavjud.

t.me/rtm_metodik_xizmat



O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov BMT minbarida

larda BMT Bosh Assambleyasida nutq so‘zladi. O‘zbekiston rahbariyati BMT doirasida mintaqaviy va global ahamiyatga ega muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

BMT doirasidagi xalqaro tashabbuslar

O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT doirasida Markaziy Osiyo yadro qurolidan xoli hudud deb e’lon qilindi. Bu tashabbus ilk bor O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 1993-yili BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida ilgari surildi. Mazkur tashabbusni Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari ham qo‘llab-quvvatladi. Uzoq davom etgan jarayonlardan so‘ng 2006-yili BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi asosida Markaziy Osiyo rasman yadro qurolidan xoli hudud deb e’lon qilindi.

BMT Orol dengizidagi ekologik falokat oqibatlarini yumshatish bo‘yicha O‘zbekistonning sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatladi. Bu borada Markaziy Osiyo mamlakatlariga moliyaviy va texnik yordam berdi. Yurtimizda BMT hamkorligida Orol muammosiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyalar tashkil etildi. O‘zbekiston BMT doirasida jahon hamjamiyatini Afg‘onistondagi mojaroni tinch yo‘l bilan hal qilishga da’vat etdi. Mamlakatimiz taklif va tashabbusi bilan 1997-yilda Afg‘oniston muammosi bo‘yicha “6+2” muloqot guruhi tuzildi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasida nutq so‘zlayapti

O‘zbekiston va BMT hamkorligining yangi bosqichi

2017-yildan boshlab O‘zbekiston va BMT munosabatlarida yangi davr boshlandi. Hamkorlikda Toshkent, Samarqand, Xiva shaharlarida global masalalarga bag‘ishlangan qator xalqaro anjumanlar, forumlar tashkil etildi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017–2025-yillarda BMT Bosh Assambleyasida besh marotaba nutq so‘zladi hamda mintaqaviy va global darajadagi muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, 2025-yil BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasidagi nutqida Markaziy Osiyo va umumjahon miqyosidagi dolzarb muammolarga e’tibor qaratdi. Xavfsizlik, hamkorlik va barqaror taraqqiyot masalalariga oid taklif va tashabbuslarni olg‘a surdi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining o‘ndan ortiq rezolyutsiyasi qabul qilindi.



t.me/rtm_metodik_xizmat

2018-yili Ma'rifat va diniy bag'rikenglik, 2022-yili Markaziy va Janubiy Osiyoda o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash, 2024-yil 10-iyunni Xalqaro sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot kuni deb e'lon qilish to'g'risidagi rezolyutsiyalar qabul qilingani fikrimizni tasdiqlaydi. O'zbekiston tashabbusi bilan 2018-yilda BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun maxsus trest fondi tashkil etildi. 2021–2023-yillarda O'zbekiston ilk marotaba BMT Inson huquqlari kengashining a'zosi bo'ldi. Mamlakatimizda BMTning 2015–2030-yillarga mo'ljallangan "Barqaror rivojlanish maqsadlari" dasturi faol amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston va YUNESKO: xalqaro madaniy aloqalar

Olimlar va mutaxassislar YUNESKOga nisbatan "BMTning aql laboratoriyasi" iborasini ishlatadi. Shuningdek, Hindiston Bosh vaziri bo'lgan Javoharla'l Neru YUNESKOga nisbatan "insoniyat vijdoni" degan ta'rifni qo'llagan.

O'zbekiston Respublikasi 1993-yilda YUNESKO a'zoligiga qabul qilindi. Mamlakatimizdagi ko'plab maktablar YUNESKOning Birlashgan maktablar tarmog'iga a'zo. Oliy ta'lim muassasalarida YUNESKOning turli kafedralari faoliyat yuritmoqda.

O'zbekistonlik olimlar va tadqiqotchilar YUNESKO stipendiyalari va grantlari asosida tadqiqotlar amalga oshirmoqda. Ilm-fan sohasidagi xalqaro yutuqlari uchun bir qator olimlar YUNESKOning turli mukofotlariga sazovor bo'lgan. Jumladan, mikrobiolog olima Dilfuza Egamberdiyeva tashkilotning "Inson va biosfera", Karlos Finley mukofotlari bilan taqdirlangan, L'Oreal "Olima ayollar" stipendiyasiga sazovor bo'lgan. Shuningdek, "Sharq taronasi", Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy nomidagi YUNESKO – O'zbekiston xalqaro mukofotlari ta'sis etilgan.

1995-yilda Samarqandda mazkur tashkilotning Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi. Mamlakatimizdagi ko'plab tarixiy shaharlar va yodgorliklar YUNESKOning qator ro'yxatlariga kiritilgan. Xususan, O'zbekistonda saqlanayotgan muqaddas Usmon mus'hafi va Fanlar akademiyasi

IJODIY FAOLIYAT

Quyidagi fikrni izohlashga va sharhlashga harakat qiling:

"Urush haqidagi g'oyalar kishilar ongida paydo bo'ladi, shuning uchun insonlar ongiga tinchlikni himoya qilish g'oyasini singdirish kerak".

YUNESKO nizomidan

YODDA TUTING!

YUNESKO *– BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti. 1945-yil 16-noyabrda tashkil topgan. Qarorgohi Parij shahrida joylashgan. YUNESKO fan, madaniyat, ekologiyani asrash, barqaror taraqqiyot va madaniyatlararo muloqot, ta'lim, axborot-kommunikatsiya sohalarida faoliyat olib boradi.*

IJODIY FAOLIYAT

1. Siz uchun BMT bilan hamkorlikdagi eng dolzarb yo'nalish qaysi? Nega?
2. O'zbekiston BMT minbarida dunyo nigohini qanday global muammolarga qaratmoqda?
3. BMT haqida qanday muhim ma'lumotlarni bilasiz?

t.me/rtm_metodik_xizmat

Sharqshunoslik institutidagi qo'lyozmalar, "Buxoro amiri qushbegi devonxonasi" deb nomlangan arxiv fondi YUNESKOning "Jahon xotirasi" dasturiga kiritilgan. "Shashmaqom", "Katta ashula", "Askiya", "Navro'z", "Palov", "Lazgi", "Baxshichilik", "Kulolchilik", "Naqqoshlik" kabi noyob qadriyatlarimiz Nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga olingan.

YUNESKO hamkorligida bir qator qadimiy shaharlar va tarixiy shaxslarning yubiley sanalari xalqaro miqyosda nishonlandi. Jumladan, 1994-yilda Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi, 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi, 1998-yili Imom Buxoriy tavalludining 1225 yilligi, 2024-yili Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligi YUNESKO hamkorligida keng nishonlandi. Mirzo Ulug'bek, Amir Temur va Abu Rayhon Beruniyning yubiley sanalari YUNESKO qarorgohida keng nishonlanishi mazkur tashkilotning O'zbekiston tarixi va madaniyatiga chuqur hurmati ramzi bo'ldi.

O'zbekistonning Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz, Qarshi, Marg'ilon, Samarqand, Toshkent singari qadimiy tarixiy shaharlari yubileyi YUNESKO shafeligida xalqaro miqyosda tashkil etildi.

1997-yildan buyon O'zbekiston tashabbusi bilan har ikki yilda YUNESKO hamkorligida Samarqandda "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali o'tkazib kelinadi. 2023-yilda Buxoro shahri YUNESKOning "Ijodkor shaharlar tarmog'i"ga kiritildi.

2018- va 2025-yillarda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev YUNESKO bosh qarorgohida bo'lib, tashkilot Bosh direktori Odri Azule bilan uchrashdi. Uchrashuvlar asosida o'zaro aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar imzolandi. O'z navbatida, 2019- va 2022-yillarda YUNESKO Bosh direktori Odri Azule O'zbekistonga tashrif buyurdi. Tashriflar asnosida o'zaro aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar imzolandi. YUNESKO bilan hamkorlikda Buxoroda "Ipak va ziravorlar", Marg'ilonda "Atlas bayrami" festivallari, Shahrisabzda Xalqaro maqom san'ati forumi kabi tadbirlar tashkil etilmoqda.

YUNESKO bilan tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash, himoya qilish borasidagi hamkorlik O'zbekiston tarixi, madaniyati va san'atini xalqaro miqyosda targ'ib etish hamda mamlakatimizning jahon miqyosida nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ko'ptomonlama hamkorlik deganda nimani tushunasiz? Fikrlaringizni misollar bilan bayon eting.
2. O'zbekiston BMTga a'zo bo'lishining tarixiy ahamiyati nimada?
3. O'zbekiston va BMT hamkorligining ustuvor yo'nalishlari qaysi sohalarda ko'proq namoyon bo'ladi?
4. O'zbekiston BMT doirasida qanday mintaqaviy va xalqaro tashabbuslarni ilgari surdi?
5. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining qanday rezolyutsiyalari qabul qilindi? Ularning ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi? Qo'shimcha ma'lumotlar asosida fikringizni bayon eting.
6. YUNESKO jahon miqyosida qanday masalalar bilan shug'ullanadi? Dunyo xalqlari va davlatlari uchun tashkilotning ahamiyati qanday?

t.me/rtm_metodik_xizmat

22-MAVZU O‘ZBEKISTONNING MINTAQAVIY TASHKILOTLAR DOIRASIDA KO‘PTOMONLAMA MUNOSABATLARI

BILIB OLASIZ

O‘zbekiston va MDH aloqalari.
O‘zbekiston va SHHT munosabatlari.
O‘zbekiston va TDT hamkorligi.

O‘zbekiston va MDH aloqalari

1991-yil 8-dekabrda Rossiya, Belarus, Ukraina davlat rahbarlari o‘zaro hamdo‘stlik tuzish to‘g‘risida bitim imzoladi. Shundan so‘ng 1991-yil 21-dekabrda Olmaota shahrida Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Rossiya, Ukraina, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston singari o‘n bitta mustaqil davlat rahbarlari Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH)ni tashkil qiladi.

Tashkilotning bosh organi Ijroiya qo‘mitasi bo‘lib, uning qarorgohi Minsk shahrida, ayrim tuzilmalari esa Moskvada joylashgan. Tashkilot siyosat, xavfsizlik, parlamentlararo munosabatlar, chegara, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnik sohalarda hamkorlikni rivojlantiradi. 1993-yili Minskda bo‘lib o‘tgan MDH sammitida tashkilotning nizomi qabul qilindi.

O‘zbekiston 1991-yil 21-dekabrda Olmaota Deklaratsiyasiga binoan mazkur tashkilotga a’zo bo‘ldi. MDH davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu a’zo davlatlarning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. O‘zbekiston MDH mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy, investitsiya, transport, turizm, ilm-fan, ta’lim va xavfsizlik sohalarida hamkorlik qilmoqda. Tashkilotga a’zo davlatlar uchun MDHning ulkan tranzit va turistik salohiyatidan to‘la foydalanish manfaatlidir.

2017-yildan O‘zbekiston va MDH hamkorligining yangi sahifalari ochildi. Ta’kidlash kerakki, a’zo mamlakatlar navbat bilan tashkilotga raislik qiladilar. 2020-yilda O‘zbekiston MDHga raislik qildi. Bu davrda tashkilotni yanada rivojlantirish, xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, savdo-iqtisodiy, transport, parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish, ilm-fan va madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirishga katta e’tibor qaratildi. Madaniyat sohasidagi munosabatlarda O‘zbekiston va MDHning boshqa mamlakatlari madaniyat va san’at arboblari ishtirokida xalqaro festivallar, madaniyat kunlari hamda gumanitar sohalarda keng ko‘lamdagi tadbirlar o‘tkazildi.

YODDA TUTING!

Muayyan qit’a, mintaqa yoki hudud miqyosida faoliyat yuritadigan a’zo davlatlardan iborat tuzilmalar mintaqaviy tashkilotlar deb ataladi.

t.me/rtm_metodik_xizmat



O‘zbekiston va SHHT munosabatlari

1996-yili Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston Shanxay shahrida chegara hududlarida o‘zaro ishonchni mustahkamlash maqsadida bitim imzoladi. Shu asosda “Shanxay beshligi” muloqot mexanizmi shakllandi. Shundan so‘ng 2001-yilda O‘zbekiston a’zo bo‘lishi bilan Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) sifatida qayta tashkil etildi. Tashkilotning rasmiy tili xitoy va rus tillaridir. Tashkilot qarorgohi Pekinda joylashgan.

SHHTga (2025-yil holatiga ko‘ra) o‘nta davlat – Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, O‘zbekiston, Hindiston, Pokiston, Eron va Belarus a’zo bo‘lgan. Mo‘g‘uliston va Afg‘oniston kuzatuvchi, boshqa bir qator davlatlar muloqot bo‘yicha sherik maqomiga ega.

O‘zbekiston SHHT faoliyatida 2001-yil iyun oyidan ishtirok etib kelmoqda. Mamlakatimiz SHHT doirasida xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik olib boradi. SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi Toshkent shahrida faoliyat yuritadi.

O‘zbekiston 2001–2025-yillar oralig‘ida to‘rt marotaba SHHTga raislik qildi. 2009-yili SHHTga raisligi davrida O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT va SHHT hamkorligi to‘g‘risidagi rezolyutsiya qabul qilindi.

2016-yili O‘zbekiston raisligida bo‘lib o‘tgan Toshkent sammitida Hindiston va Pokistonning SHHTga a’zo davlat maqomini olishi bo‘yicha tegishli hujjatlar imzolandi. Shundan so‘ng 2017-yili Ostona sammitida Hindiston va Pokiston tashkilotga rasman a’zo bo‘ldilar.

O‘zbekiston va SHHT hamkorligi yangi bosqichda yanada rivojlanib bormoqda. 2018-yilda Toshkentda SHHTning Xalq diplomatiyasi markazi tashkil etildi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu tashkilot doirasida yangi tashabbuslarni ilgari surmoqda. Xususan, Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta’minlash, o‘zaro iqtisodiy aloqalarni, transport koridorlarini rivojlantirish, madaniy-gumanitar munosabatlarni yanada kengaytirish kabilar shular jumlasidan. SHHTning 2022-yil bo‘lib o‘tgan Samarqand sammiti o‘zbek diplomatiyasi va tashqi siyosatining muhim yutuqlaridan biri bo‘ldi. Sammit dunyoda muloqot va hamkorlik muhimligini isbotlagan holda “Shanxay ruhi” va “Samarqand ruhi” tushunchalarini uyg‘unlashtirdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil Xitoyning Tyanszin shahrida SHHT yig‘ilishida ishtirok etdi.

IJODIY FAOLIYAT

1. MDHni tashkil etish bilan qanday tarixiy bosqich yakunlangan va qanday yangi davr boshlangan?
2. “Shanxay beshligi” deganda dastlab qaysi davlatlar nazarda tutilgan?
3. “Samarqand ruhi” deganda qanday qadriyat va maqsadlarni tushunasiz?

YODDA TUTING!

SHHT davlatlarining umumiy hududi Yevrosiyo hududining 65 foizini tashkil qiladi.
Tashkilotga a’zo mamlakatlar umumiy aholisi dunyo aholisining qariyb yarmi demakdir.

t.me/rtm_metodik_xizmat

O‘zbekiston Prezidenti o‘z nutqida ko‘ptomonlama hamkorlikda “SHHT plyus” formati ishonchli muloqot maydoniga aylanib borayotganini ta’kidladi. Dunyoda qarama-qarshilik ko‘payib borayotganidan xavotir bildirib, nizolarga barham berish, ishonchni tiklash, tinch-totuv yashash va xalqaro huquq normalarini hurmat qilishga chaqirdi. Xulosa sifatida ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston SHHT bilan hamkorlikni o‘z tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri deb biladi va tashkilot doirasidagi faoliyatida faol ishtirok etadi.

O‘zbekiston va Turkiy davlatlar tashkiloti hamkorligi

Turkiy davlatlar tashkiloti dastlab 2009-yilda Turkiy tilli davlatlar kengashi nomi bilan tashkil etilgan. 2021-yilda nomi Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) deb o‘zgartirildi. Tashkilotning ishchi tillari turk, o‘zbek, ozarbayjon, qirg‘iz, qozoq, ingliz tillaridir.

Tashkilotning maqsadi turkiy tilli mamlakatlar o‘rtasida aloqalarni mustahkamlash, tinchlik, xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni rivojlantirishdir.

O‘zbekiston 2019-yildaTurkiy davlatlar tashkiloti (TDT)ga a’zo bo‘ldi. 2020-yilda Xiva shahri “Turkiy dunyo madaniyati poytaxti” deb e’lon qilindi. 2021-yili O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot ta’sis etildi. 2022-yilda ushbu mukofot ilk bor turkiy dunyo birligiga qo‘shgan hissasi uchun buyuk adib va jamoat arbobi, qirg‘iz yozuvchisi (marhum) Chingiz Aytmatovga berilgan edi. 2025-yili mukofotga taniqli turk biokimyogari, Nobel mukofoti sovrindori Aziz Sanjar sazovor bo‘ldi.

2022-yili Samarqandda Turkiy davlatlar tashkiloti sammiti bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zlab, muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Sammit doirasida Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi. O‘zbekiston tashabbusi bilan 2023-yil “Turkiy sivilizatsiyaning yuksalish yili”, Samarqand shahri esa “Turkiy sivilizatsiya poytaxti” deb e’lon qilindi. Buxoro shahri “Turkiy dunyo yoshlar poytaxti” maqomiga ega bo‘ldi. Madaniy hamkorlik doirasida turli festivallar, madaniyat kunlari tashkil etilmoqda. 100 jildli “Turkiy adabiyot durdonalari” to‘plami o‘zbek tilida nashr qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yili Budapesht (Vengriya) shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammitida ishtirok etdi. Davlatimiz rahbari o‘z nutqida dolzarb xalqaro muammolarni hal

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

Umumiy qadriyatimiz, birgalikda rivojlanishga intilishimiz, madaniyatlar xilma-xilligiga hurmatimiz ifodasi bo‘lgan ko‘ptomonlama hamkorlikning noyob tajribasi – “Shanxay ruhi”ni mustahkamlash bugun har qachongidan muhimdir.

Shavkat Mirziyoyev

TÜRK DEVLETLERİ TEŞKİLATI
ORGANIZATION OF TURKIC STATES

IJODIY FAOLIYAT

1. Turkiy davlatlar tashkilotining mintaqa rivojidagi o‘rni qanday?
2. O‘zbekiston Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida qanday muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda?

t.me/rtm_metodik_xizmat



etishda, birinchi navbatda, xalqaro huquq normalari va BMT Nizomiga tayangan holda tashkilot davlatlarining umumiy yondashuv va pozitsiyalarini mustahkamlash muhimligini qayd etdi.

O‘zbekiston va Turkiy davlatlar tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlik strategik ahamiyatga ega bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar va xavfsizlik sohalarida o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish uchun muhim platformadir. A’zo davlatlarni birlashtiruvchi til, madaniyat va tarix umumiyligi hamkorlik uchun mustahkam zamin yaratadi. O‘zbekiston Turkiy davlatlar tashkiloti faoliyatida ishtirok etib, mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash va o‘zaro ishonchni mustahkamlashga hissa qo‘shadi. O‘zbekiston mazkur tashkilot doirasida turkiy xalqlarning madaniyati, san’ati, adabiyoti va tarixiy merosini saqlash va targ‘ib qilishga qaratilgan ko‘plab loyihalarni amalga oshirmoqda.

YODDA TUTING!

Tashkilotga Ozarbayjon, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston a’zo, Vengriya va Turkmaniston kuzatuvchi a’zo mamlakatlardir.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O‘zbekiston qaysi mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi?
2. O‘zbekiston va MDH munosabatlarining ustuvor yo‘nalishlari qaysi sohalarda namoyon bo‘ladi?
3. MDH doirasida qanday sohalarda hamkorlik olib boriladi?
4. O‘zbekiston SHHTga raislik qilgan davrda qanday tashabbuslarni ilgari surdi?
5. O‘zbekiston va SHHT hamkorligining asosiy jihatlarini bayon eting.
6. O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti faoliyatidagi ishtiroki to‘g‘risida fikrlaringiz bilan o‘rtoqlashing.
7. 2020-yilda qaysi shahar “Turkiy dunyo madaniyati poytaxti” deb e’lon qilindi?
8. Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot qachon ta’sis etildi va kimlarga berilgan?
9. Turkiy davlatlar tashkilotining 2022-yilgi sammiti qayerda o‘tkazildi va unda qanday deklaratsiya qabul qilindi?

t.me/rtm_metodik_xizmat

O‘quv nashri

Zamonov Akbar Turgunovich,
Abdimo‘minov Oybek Bektemirovich,
Bobojonov Islombek Usmonaliyevich

O‘ZBEKISTON TARIXI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik

Respublika ta’lim markazi,
Toshkent – 2025

Muharrir	Xayriddinmurod Abulfaizov
Musahhih	Xurshid Ibrohimov
Texnik muharrir	Alimardon Aqilov
Sahifalovchi-dizayner	Ixvoldin Salohitdinov

Nashriyot litsenziyasi № 140295. 04.10.2023-yilda berilgan.
Bosishga 00.00.2025-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 $^{1}/_{16}$.
“Avenir Next Cyr” garniturasi. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 10,4. Nashriyot-hisob tabog‘i 10,53.
Adadi 566 139 nusxa. Buyurtma № 00-000.

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20. Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz www.iptd-uzbekistan.uz

Respublika ta’lim markazi

t.me/rtm_metodik_xizmat

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.